Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2020-yil. 12-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabi

KIRIB KELAYOTGAN YANGI 2021-YIL QUTLUG' BO'LSIN!



Ushbu sonda

Dolzarb mavzu
Ona tili ta'limiga yangicha yondashuv zarurati 3-bet

Tahlil
Suv va so'z saxovati 20-bet

Tadqiqotlar
O'zbek tilida tasviriy va taqlidiy ma'no hamda ularning ingliz tilida berilishi 33-bet

Лучший учитель-филолог – 2020
Читательский дневник 49-bet

FANIMIZ FIDOYILARI



OQILJON MAVLONOV,

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi 16-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 12-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
EMMA TOROSYAN

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2020.15.12. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. "PRINT REBEL" matbaa korxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Olmazor tum., O'rozboyev ko'chasi, 35- uy. Buyurtma №:34 Adadi 2660 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Elyor XONNAZAROV. Ona tili ta'limiga yangicha yondashuv zarurati ... 3

METODIK TAVSIYA

Dilbar NORMURADOVA. PISA – 2021 tadqiqotlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish ... 4
Mohigul FOZILOVA. Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasini o'qitishda blum taksonomiyasidan foydalanish ... 6
Abdumurod NOMOZOV. Qiyosiy va tahliliy yondashuv – bilim olishga yangicha munosabat ... 8

DARS – MUQADDAS

Hilola XUDOYMURODOVA. Ona tili fanini o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish ... 11
Xurshida HOSHIMOVA. Sintaksisda nima o'rganiladi? ... 12
Mohidil NIZOMOVA. G'afur G'ulom hayoti va ijodi. Uning "Sog'inish" she'ri bilan tanishish ... 14
Barno ABDURAHMONOVA. O'quvchilarga badiiy tasvir vositalarini o'rgatish usullari ... 16
Saodat KAMBAROVA. Muammoli tahlil – fikrlashga o'rgatish omili sifatida ... 18

TAHLIL

Rahimboy JUMANIYOZOV. Suv va so'z saxovati ... 20
Doniyor YULDASHEV. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida atoqli otlar antroposentrik talqinidan foydalanish ... 22
Munira XUDOYOROVA. Navoiy qit'alari badiiyati ... 24
Vaziraxon AHMEDOVA. Erkin A'zam dramalarida obyektning plastik obrazi ... 25
Bashorat JAMILOVA, Shahnoza NURIDDINOVA. O'zbek bolalar adabiyotida badiiy tafakkur yangilanishining tadriji ... 27
Azimjon DAVRONOV. Tohir Malik ijodida uslubiy o'ziga xoslik ... 30
Mahliyo UMAROVA. Adabiyotshunoslikda ijodkor shaxsi tushunchasi ... 31

TADQIQOTLAR

Nilufar ALIBOYEVA. O'zbek tilida tasviriy va taqlidiy ma'no hamda ularning ingliz tilida berilishi ... 33
G.SAFAROVA. Evfemizmlarning sotsial xoslanishini tadqiq etish omillari ... 35
Davronbek ORIPOV. "O'g'uznoma" va "Dada qo'rqud": fikr va qarashlar nomutanosibligi ... 37
Dilafruz MUQIMOVA. Kamol Xo'jandiyning g'azal janri rivojlanishidagi hissasi ... 39
Maxfirat QURBONALIYEVA. Movarounnahr tazkiranavislik tarixiga bir nazar ... 42
Yulduz NUROVA. Etnolingvistika va etnologiya munosabati ... 44

KICHIK TADQIQOT

Go'zal XIMMATOVA. Qo'chqor Norqobil nasrining badiiy xususiyatlari ... 46
Nigora KENJABOYEVA. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga qo'yilgan davlat talablarining zaruriyati ... 47

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ – 2020

Марвар ШАРАФУТДИНОВА. Читательский дневник ... 49
Юлия ТИНЬКОВА. Мотив экипажа и дороги в жизни и творчестве А.С.Пушкина ... 53
Насиба АХМЕДОВА. Биография В.Г.Короленко. Очерк «Огоньки» ... 55
Сайёра БОЗОРОВА. Основные методы обучения в педагогической практике ... 56
Гуллола АБДУЛЛАЕВА. Речевые игры на уроках русского языка в начальных классах ... 57
Хонбиби ДУСМАТОВА. Разработка кружкового занятия «Путешествие по королевству «Русский язык» ... 59
Фарит ГАБДУЛХАКОВ, Расима ГАБДУЛХАКОВА. Преподавание русского языка: не пора ли перейти к обучению? ... 60

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Шахноза ХОЛМАТОВА. Применение учебных видеоматериалов при обучении русскому языку в экономическом вузе ... 63
Феруза ХУДАЙКУЛОВА. Сложноподчиненные предложения с придаточными определительными ... 64
Малика АРИПОВА. Эффективность применения метода коллаборативного проектирования на занятиях в педагогических вузах ... 67

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Абдуназар ЖУРАЕВ. Информационные технологии при обучении разговорной речи ... 69
Севара СУЛТАНОВА, Гульчехра ДАВЛЯТОВА. Изучение лексических вариантов на модульной основе ... 70

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Николай ИЛЬИН. Любовь, смерть и свобода в поэтическом творчестве Хосият Рустамовой ... 73
Агата ОСИПОВА. Исповедальность как изображение саморефлексии героя ... 75

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Фахриддин АБДУРАХМАНОВ. Лексико-семантическая классификация трехактантных глаголов в современном русском языке ... 77

ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

Мухиба АРАБОВА. Инновационная деятельность учителя высшей школы ... 80

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI *jurnali*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Shevashunoslik markazi huzurida tashkil etilgan shevashunoslik to'garagi o'zining ilk mashg'ulotini boshladi

Unda Samarqand davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchilari hamda ilmga chanqoq talabalar ham ishtirok etdi.

"Bu ilmiy to'garakning asosiy maqsadlaridan biri, butun respublikamiz bo'yicha barcha shevashunos-tilchilarni, taniqli filologlarni bir joyga yig'ib, o'zbek dialektologiyasining keyingi rivojiga samarali hissa qo'shilishiga erishish. Birgalikda dialektik lug'atlar yaratish va bu lug'atlarning sonini oshirishdan iboratdir", – dedi konferensiya tashkilotchisi Tolib Enazarov.

Konferensiyada shuningdek, Yo'ldosh Ibrohimov ham so'zga chiqib, shevashunoslik va areal lingvistika sohasida qilinishi kerak bo'lgan masalalarga alohida to'xtaldi va bu ilmiy to'garak ishini har oyning 3- haftasida o'tkazish taklifini ilgari surdi. Bu taklif yig'ilish qatnashchilari tomonidan ma'qullandi. Bundan tashqari Alisheer Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistrantlari o'zlarining maqola va fikrlari bilan o'rtoqlashishdi. "Ushbu to'garak ishida qatnashganligim, kelgusi rejalarimni amalga oshirishimda turtki bo'ldi deb, bemalol ayta olaman. Shevalar ham o'zbek tilining ko'rki. Ma'lum hududning yashash tarzi va sharoiti, xususiyatlarini ma'lum darajada ochib beradigan muhim soha va yo'nalishdir. O'zbek tilining lug'at boyligini oshirishda, chetdan kirib keladigan so'zlarning muqobilini topishda, istaymizmi yo'qmi, shevalarga murojaat qilamiz. Shunday ekan, bu soha rivoji tilimiz rivoji uchun ham juda muhim".

Muxlisa Jalilova,
SamDU filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Toshkent shahrida Yaponiya raqamli universiteti tashkil etiladi

Hukumatning tegishli qarori bilan, "Digital Knowledge Co., Ltd." kompaniyasining (Yaponiya) muassisligida Yaponiya raqamli universiteti tashkil etiladi.

Qarorda ta'kidlanishicha, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti bilan "Digital Knowledge Co., Ltd." kompaniyasi o'rtasida 2020-yil 17-aprelda "JDU – Japan Digital Universities" satellit kampusini tashkil etish bo'yicha hamkorlik shartnomasi imzolangan.

Universitet nodavlat oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi.

Universitetda o'qitish yapon va o'zbek tillarida to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi. O'quv rejalari va fan dasturlarida Yaponiyaning Otemae universiteti, Tokio onlayn universiteti va boshqa nufuzli OTMlarining tajribasidan foydalaniladi.

Universitetda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi va masofaviy ta'lim shakllarida kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi.


Universitet bitiruvchilariga oliy ta'lim to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan Yaponiya universitetlari hamda O'zbekistonning belgilangan namunadagi diplomlari beriladi.

Universitetda talabalar o'qishi uchun to'lov-kontrakt mablag'lari miqdori Muassis tomonidan belgilanadi, shuningdek har yili ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning qobiliyatli, iqtidorli hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan farzandlari orasidan tanlov asosida bepul (Universitet granti asosida) 10 nafardan kam bo'lmagan abituriyentlar o'qishga qabul qilinadi.

2020 – 2021-o'quv yilidan "Muhandis-dasturchi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha Universitetga talabalar qabul qilinadi, keyingi o'quv yilidan boshlab "Kompyuter grafikasi va dizayn" yo'nalishi bo'yicha ham qabul amalga oshiriladi.

M.DO'STMUHAMEDOVA tayyorladi.

BEHBUDIY xotirasiga ehtirom



Joriy yilning 4-dekabr kuni Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabida Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi munosabati bilan "Behbudiy ijodi yoshlar nigohida" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Unda Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi direktori, pedagogika fanlari nomzodi N. Yuldasheva, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira, tarjimon Gulshan Rahim, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Ch. Jonuzoqova, Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi Davlat va jamoat tashkilotlari bilan ishlash bo'limi mutaxassislari B. Butayeva va Z. Turdiyeva, Toshkent harbiy okrugi harbiy xizmatchilarining oila-a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis O. Odilovalar qatnashib, buyuk ma'rifatparvar olim Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodi, el-yurt manfaatlari yo'lida qilgan fidokorona mehnatlari borasida nutq so'zladilar.

Shuningdek, tadbirda ta'lim dargohida tahsil olayotgan "Qodiriy izdoshlari" to'garagi a'zolari tomonidan tayyorlangan she'riy chiqishlar hamda sahna ko'rinishlari tomoshabinlarda iliq taassurot qoldirdi.

Elyor XONNAZAROV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

ONA TILI TA'LIMIGA YANGICHA YONDASHUV ZARURATI

Respublikamiz ta'lim tizimida ona tili ta'limi asosiy e'tiborda bo'lib kelayotgan masalalardandir. Maktablarda ham quyi sinflardan yuqori sinflargacha eng ko'p o'qitiladigan fanlardan biri ham aynan ona tili fanidir. Aslida shunday bo'lishi ham kerak. Chunki shaxsning kamol topishi, tafakkurining kengayishi, jamiyatda muvaffaqiyatga erishishida bu fanning tutgan o'rni juda muhim. Qolaversa, ona tili tushunchasi millat tushunchasi bilan uzviy aloqadordir. Har bir millat vakili o'z ona tilini sevishni, unda ravon muloqot qila olishni o'zining milliy burchi deb bilmog'i kerak. Aksincha, ona tilini bilmaslik, unda fikrini erkin bayon eta olmaslik yoki bayon qilishni xohlamaslik – shaxs fojiasi, milliy fojia sanaladi. Mana shu holatlardan kelib chiqib ta'lim tizimimizda ona tili faniga alohida e'tibor berib kelinadi.

Ona tili fani ta'limidan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish hisoblanadi. Demak, bu fan doirasidagi barcha usul va vositalar mana shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qilmog'i kerak. Umumiy ma'noda olib qarasak, tilni bilish deganda o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon bayon qila olish ko'nikmasi tushuniladi.

Har qanday o'rganilayotgan ilm insonga uning kelajakdagi faoliyati uchun manfaatli bo'lishi kerak. Xususan, ona tili bo'yicha maktabda olingan bilimlar ham o'quvchining kelgusi kasbiy faoliyati uchun xizmat qilishi zarur. Lekin ayni damda ona tili fani aksariyat mavzularining o'qitilishidagi mavjud yondashuv haqida bu fikrni aytib bo'lmaydi. Garchi oldingiga nisbatan induktiv metodlarning faol qo'llanilayotganligiga qaramay hamon ko'p hollarda dars jarayonida nazariy qoidalarga urg'u beriladi, shuningdek, baholash jarayonida ham "Aniqlovchining so'roqlarini ayting", "Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarga qanday qo'shimchalar kiradi?" tarzidagi savol va topshiriqlardan keng foydalaniladi. Bu kabi savol va topshiriqlarga bola aniq javob bera olishi bilan nimaga erishadi-yu, javob bera olmasligi bilan nimadan mahrum bo'ladi? Erishadigani yaxshi baho va kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyatsiz bo'lgan bilim. Mahrum bo'ladigani ham ayni shular. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, ko'pchilik bu nazariy qoidalarni puxta o'rganish oliy o'quv yurtlariga kirish testlariga to'g'ri javob berish uchungina zarur deb biladi. Shu sababli o'quvchilar, kerak bo'lsa, maktab ta'limidan tashqari qo'shimcha repetitorga borib bo'lsada, yuqoridagiga o'xshash savollarga aniq javob bera oladigan bo'ladi. Ayni mana shu yondashuv natijasida aniqlovchining so'roqlarini sanab bera olgani holda fikrini aniq, lo'nda bayon etib bera olmaydigan, bir sahifa yozgan matnida bir qancha imloviy, punktuatsion xatolar, g'alizliklarga yo'l qo'yadigan kadrlar yetishib chiqyapti. Demak, grammatik qoidalarning astoydil yod olinishining asosiy sabablaridan biri oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida foydalaniladigan testlardir. Lekin ona tili ta'limi test savollariga emas, balki test savollari ona tili ta'limiga moslanishi kerak. Agar biz ona tilini o'rgatishga bo'lgan yondashuvni o'zgartirsak, test savollarini unga moslashtirish unchalik mushkul ish bo'lmasa kerak. Axir matematika yo'nalishiga o'qishga kirgan talabadan keyinchalik hech kim aniqlovchining so'rog'ini so'ramaydi. U buni bilmasdan turib ham yetuk matematik bo'lib yetishishi mumkin.

O'ylab ko'raylik, bir sinfda taxminan o'ttizta bola o'qisa, ulardan uchtasi, ko'pi bilan beshtasi tilshunos mutaxassis bo'lib yetishar. Qolgan yigirma besh nafar o'quvchi hayotning turli jabhalarida faoliyat yuritadi: kimdir shifokor, kimdir ichki ishlar xodimi, kimdir tadbirkor, kimdir haydovchi, kimdir tikuvchi, kimdir matematika o'qituvchisi va hokazo. Ular o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishida, qolaversa, bevosita amaliy faoliyatida ona tilidan o'rgangan vositali to'ldiruvchining qanday so'roqlarga javob bo'lishini bilish yoxud ergash gapli qo'shma gapning bosh va ergash gaplarini farqlay olish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Bularni bilmagani holda ona tilida ravon gapirib, xatolarsiz, mantiqiy izchil yoza oladiganlar ham talaygina. Zero, ona tili ta'limida birlamchi e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan bundan-da ahamiyatliroq jihatlar borki, yangicha yondashuvda ular yuzaga chiqadi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: unda ona tili ta'limida yangicha yondashuvda nimalarga e'tibor beriladi? Asosiy e'tibor ona tili ta'limining maqsadi bo'lgan o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratiladi. Albatta, nazariy qoidalardan butunlay voz kechish kerak, degan fikrdan yiroqmiz. Chunki ba'zi qoidalar bevosita og'zaki va yozma nutqni to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. Shunda ham o'quvchilarning ularni yod olishiga emas, balki nutqda qo'llay olishiga e'tibor qaratish zarur. Bu endi sinfdagi barcha o'quvchilarning kelajakdagi faoliyati uchun birdek zarur. Qaysi soha vakili bo'lmasin, har bir kishining ona tilida xatosiz yozish va gapirish malakasini egallashi muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, ona tili darslarida egallanishi lozim bo'lgan, sinfdagi barcha o'quvchilarning kelajakdagi faoliyati uchun birdek manfaatli bo'lgan eng asosiy ko'nikmalar quyidagilar:

1) turli mavzularda o'z fikrini mantiqiy izchillikda, erkin bayon qila olish;

2) vaziyatdan kelib chiqqan holda muloqotni to'g'ri tashkil qilish;

3) muloqotning samarali kechish yo'llarini topish;

4) jamiyatdagi turli madaniyat, turli ijtimoiy qatlam vakillari bilan muloqotga kirisha olish;

5) yozma nutqda imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolarga yo'l qo'ymaslik;

6) nutq uslubini to'g'ri tanlay olish;

7) turli ish yuritish hujjatlarini belgilangan shakliga muvofiq mustaqil yoza olish.

Shu holatlardan kelib chiqib, ona tili darslarida qanday mavzu o'tilishidan qat'i nazar, o'qituvchi yuqorida sanalgan masalalarni diqqat markazida tutishi, mavzu asosida o'quvchining og'zaki va yozma nutqini o'stirishi zarur. Shu tarzda yondashuvni o'zgartirsak, ham ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan maqsadga erishilgan bo'ladi, ham sinfdagi barcha o'quvchilar uchun manfaatli, ya'ni har bir kasb egasiga zarur bo'lgan ko'nikmalar shakllantiriladi.

Dilbar NORMURADOVA,
Termiz shahridagi 11-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,

Metodik tavsiya



PISA – 2021 TADQIQOTLARIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH

PISA o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan. PISA xalqaro baholash dasturi, shuningdek, o'quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida ma'lumotlar to'plash barobarida ularning muammoni hal qila olish ko'nikmalarini, masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari va ular bergan taklif va yechimlarni ham baholaydi.

PISA o'zining dunyo bo'ylab qamrovi va muntazamligi bilan ahamiyatli. Hozirgacha saksondan ortiq mamlakatlar PISAda ishtirok etmoqda. PISA 15 yoshli o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan yagona ta'lim tadqiqoti bo'lib, bu yoshda aksariyat mamlakatlarda o'quvchilar majburiy ta'lim bosqichini tugatish arafasida bo'ladi.

PISA va TIMSS (matematika va tabiiy fanlarni o'rganishdagi xalqaro yo'nalishlar) o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?

Mazkur ikki tadqiqot turli yoshdagi o'quvchilar guruhlariga qaratilganligi, ya'ni PISA 15 yoshlilarni, TIMSS 4-, 8-sinflarni tekshirishi, kengaytirilgan TIMSS esa bitiruvchilarni sinovdan o'tkazishi, ularning tekshirish yo'nalishlari ham turlichaligi – TIMSS o'quv dasturiga asoslansa, PISA ko'nikmalarni real hayot muammolariga duch kelinganda qo'llay olish ko'nikmasini tekshirishi bilan farqlanadi. TIMMS, odatda, ma'lum bir sinf o'quvchilarini qamragan holda tekshirsa, PISA o'quv dasturidan tashqari bo'lgan, keng qamrovli tarkiblar kategoriyalarini baholaydi. Shuningdek, PISA o'quvchilar o'z ko'nikmalarini qo'llay oladigan sohalarning (maktab, oila va jamoada) muhimligiga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur farqlar ushbu ikki tizimni taqqoslashni qiyinlashtiradi.

PISA testlari besh yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi: o'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik. O'zbekiston 2021-yilda uch yo'nalish – o'qish, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

PISAda to'rt xil sinovdan foydalanadi:

– bir javobli testlar;

– bir necha javobli testlar;

– qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;

– biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda, bunday savollarga tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab etilmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab-quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan [2].

PISA testlarining **o'qish savodxonligi** bo'yicha topshiriqlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Siz tishingizni qanday tozalaysiz?

Tishlaringizni uzoqroq va ehtiyotkorlik bilan tozalasangiz, ular toza bo'lib qoladimi? Britaniyalik olimlarning ta'kidlashicha, bunday bo'lmaydi. Ular amaliyotda tishni turli xil usullar bilan tozalab ko'rishgach, oddiy tish cho'tkasi bilan ortiqcha harakatlarsiz ikki daqiqalik tishni tozalash usuli eng samarali usul hisoblanadi, degan xulosaga kelishdi. Agar tish cho'tkasini qattiq harakatlar bilan ishlatsangiz, emal va milklaringizga zarar yetkazasiz va tishlarni ovqat qoldiqlaridan xalos eta olmaysiz.

Tish tozalash bo'yicha mutaxassis Benta Xansenning fikriga ko'ra tish cho'tkasini siz qalamni ushlaganday ushlasangiz yaxshiroq ekan.

"Tozalashni tishni bir burchagidan boshlab tish cho'tkasi bilan tish qatorlari orasida yurgizib chiqing", – deya maslahat beradi Xansen xonim.

Tilingizni tozalashni ham unutmang! Til qobig'ida noxush hidlarni keltirib chiqaradigan ko'plab bakteriyalar saqlanib qoladi".

"Siz tishlaringizni qanday tozalaysiz?" maqolasi Norvegiyada nashr etiladigan jurnallardan birida chop etilgan.

Matn yuzasidan savollar:

1-savol. Ushbu maqola nima haqida?

A) Tishni qanday usulda tozalash samaraliroq?

B) Qanday tish cho'tkasidan foydalanish yaxshiroq?

D) Yaxshi tishlarga ega bo'lish qanchalik muhim?

E) Turli odamlar tishlarini qanday tozalashadi?

Baholash mezoni

Faoliyat: Umumlashtirish va talqin qilish, chuqur tushunish, qisqa tavsifli matnning asosiy g'oyasini aniqlash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi: A) Tishni qanday usulda tozalash samaraliroq?

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

2-savol. Britaniyalik tadqiqotchilar nimani tavsiya etishadi?

A) Tishlarni tez-tez tozalashni.

B) Tilni tozalashga urinmaslikni.

D) Ortiqcha kuch ishlatib tishlarni tozalamaslikni.

E) Tishdan ham ko'ra tez-tez tilni tozalashni.

Baholash mezoni

Faoliyat: Ma'lumotni izlash va topish, axborot topish. Qisqa tavsifli matndan sinonim va o'xshashliklarni topish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi: D) Ortiqcha kuch ishlatib tishlarni tozalamaslikni.

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

3-savol. Benta Xansenning maslahatiga ko'ra nima uchun tilni ham tozalash kerak?

_____

_____

_____

_____

Baholash mezoni

Faoliyat: Ma'lumotni izlash va topish, axborot topish. Qisqa tavsifli matndan sinonim va o'xshashliklarni topish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi: Og'iz bo'shlig'idan keladigan noxush hiddan qutulish yoki bakteriyalar haqida gapiriladi. Matnda keltirilgan sitatalarni aynan keltirish mumkin:

– bakteriyalardan qutulish uchun;

– tilda bakteriyalar mavjud bo'lishi mumkin;

– bakteriyalar;

– noxush hid;

– bakteriyalarni bartaraf etish va shu yo'l bilan og'iz bo'shlig'idan keladigan noxush hiddan qutulish (ikkala sabab);

– noxush hid keltirib chiqaradigan bakteriyalar mavjud bo'lishi mumkin;

– bakteriyalar tufayli og'iz bo'shlig'idan noxush hid taraladi.

Javob qabul qilinmaydi: Javob noaniq va noto'g'ri bo'lsa:

– tishlarni qalamni ushlagandek qilib tozalash kerak;

– tish cho'tkasiga unchalik suyanmaslik kerak;

– esdan chiqarib qo'ymaslik uchun;

– tishdagi toshlarni bartaraf etish uchun;

– ovqat qoldiqlarini olish uchun.

4-savol. Nima uchun matnda qalam yodga olinadi?

A) Tish cho'tkasini qanday ushlash tushunarli bo'lishi uchun.

B) Cho'tka va qalam o'xshash.

D) Tishlaringizni turli xil usullar yordamida tozalashni ko'rsatish uchun.

E) Tishlarni tozalash xuddi xat yozish kabi e'tiborliroq bo'lishni talab etadi.

Baholash mezoni

Faoliyat: Matn shaklini tasvirlash va baholash. Qisqa tavsifli matnda analogiyadan foydalanish maqsadini aniqlash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi: A) Tish cho'tkasini qanday ushlash tushunarli bo'lishi uchun.

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha *asosiy tushunchani bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.* Biroq, bu testlarda o'quvchilarning *dars davomida aniq mavzular bo'yicha o'rgangan bilimlarini sinovdan o'tkazish nazarda tutilmagan.* Buni yodda tutishimiz kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/2855.htm

2. Ta'lim sifatini baholashning PISA Xalqaro tadqiqot dasturini amalga oshirish bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2020.

3. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent: Sharq, 2019.

Mohigul FOZILOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining mustaqil tadqiqotchisi

SAID AHMADNING "QOPLON" HIKOYASINI O'QITISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISH

Ta'lim jarayonida badiiy asarni o'rganishning har bir bosqichi o'zining muayyan maqsadi va vazifalariga ega. Xuddi mana shu maqsad va vazifalar bilan bog'liq holda materiallar tanlanadi va uni o'zlashtirish jarayoni tashkil etiladi. Badiiy asarni o'qish va tahlil qilish o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishda eng ko'p samara beradigan didaktik jarayondir. Bu jarayonda o'quvchilar yozuvchining hayot yo'li, ijodiy laboratoriyasiga nazar tashlab, badiiy asarda ifodalangan har bir voqea-hodisa, anglanishi kerak bo'lgan g'oya, ijodkorning badiiy maqsadi haqida o'zlarining fikrlarini bildiradilar.

Benjamen Blum rahbarligida ishlab chiqilgan, jahon pedagogikasida keng tarqalgan o'quv maqsadlari badiiy asarni chuqur tahlil qilishda, unda ilgari surilgan asosiy g'oyani anglashda, ijodkorning asardan ko'zlagan g'oyaviy maqsadiga olib borishda yuqori samara ko'rsata oladigan taksonomiyadir. Unda bilim olish jarayoni: **"bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez (umumlashtirish) va baholash"**[1] kabi oltita toifaga ajratib ko'rsatiladi.

Blum taksonomiyasi o'qituvchiga o'quvchilar o'zlashtirishidagi muammolarni hal eta olish, bilimlarini boyitish va ular yuzasidan fikr bildira olish, bilimlarni o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga ko'mak beradi.

"Blum taksonomiyasi o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar oldiga qo'yiladigan qator topshiriqlarni ta'lim maqsadlariga muvofiq tarzda: *kognitiv, affektiv, psixomotor* yo'nalishlarda tasniflanishini nazarda tutadi. Ta'limning bu uch yo'nalishini oddiyroq qilib "bilaman", "his qilaman" va "yarataman" so'zlari bilan ifodalash mumkin"[2]. Taksonomiyaning muhim jihati shundaki, fikr-mulohazalar va tuzatishlar barcha o'quvchilarning o'quv maqsadlariga erishishiga imkon beradi.

Adabiyot fanini o'qitish jarayonida tizimli o'qitishni tartibga solgan holda "o'qishni o'zlashtirish"ni, "tahlil qila olish"ni o'quvchilarimizda shakllantirsak, asarning o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlovchi omillardan biri – qahramonlar ichki dunyosini chuqur tahlil etishiga ko'mak beramiz. Asarda keltirilgan har bir qahramonning ruhiy olamini tahlil etishda ham o'quvchi ortiqcha so'z ishlatib o'tirmaydi, balki ko'proq detallarga suyanadi, portretdan, insonning xatti-harakatlaridan foydalanib tahlil etishga o'rganadi. Shundagina yozuvchi va shoirlarimiz ijodini yuksak cho'qqiga olib chiqqan chiroyli iboralar, ifodalar, antiqa voqealar, kulguli va qayg'uli holatlargina emas, balki xalqqa aytadigan zarur so'zini kitobxonning qalbiga olib kiradigan obrazlar ekanligi, shu obrazlar orqali kitobxon mehrini zabt etganliklarini tushunishadi.

O'zbek adabiyoti nasrining peshqadam arboblaridan biri bu, shubhasiz, Said Ahmaddir. Adib asarlarini Blum taksonomiyasidan foydalangan holda tahlil qilamiz. Said Ahmad ijodi umumta'lim maktablari "Adabiyot" fani o'quv dasturining 6-sinfidan o'rin olgan bo'lib, adib hayoti va ijodini o'rganish uchun 3 soat ajratilgan. Dasturda "Qoplon" va "Sobiq" hikoyalarini o'qib-o'rganish nazarda tutilgan.

Avvalo, taksonomiyaning talablariga muvofiq biz ijodkorning tarjimayi holiga nazar tashlaymiz. Bu **"bilish"** jarayonidir. Mazkur jarayonda biz yozuvchining hayoti va ijodi, u yashab ijod qilgan muhit haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Said Ahmad o'zining rang-barang hikoyalari, pulitsistik maqolalari, realistik qissa-yu romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan hozirgi zamon o'zbek adabiyotida munosib o'rin egalladi. Ijodkor hayoti va ijodini o'rgatishdan maqsad o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirish, ijodkorlik va bunyodkorlik xislatlarini tarkib toptirish; ijodkor shaxsiga xos ibratli sifatlar ta'sirida o'quvchilarning ilmga, san'at va adabiyotga mehrini o'stirish; muayyan ijodkor asarlarini o'rganish orqali uning qalb harakatini, tuyg'ulari va ruhiyatini his qilishga o'rgatish; shu yo'l bilan o'quvchilarning o'zgalar qalbini anglashi; el-yurt dard-u tashvishlariga befarq bo'lmagan insonni shakllantirishga erishish kabi vazifalar tashkil etadi. Said Ahmad hayoti va ijodini o'rganishda ham ana shu muhim jihatlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

"Blum taksonomiyasining **"tushunish"** bosqichida o'quvchining dalillar, qoida va tamoyillarni tushuntirib bera olishi, so'z bilan ifodalangan materiallarni amaliy ifodalarga aylantira bilishi, mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda keyingi bosqichlarni taxmin qilishi nazarda tutiladi"[3]. Adib qalamiga mansub "Qoplon" hikoyasida ijodkor jamiyatdagi insonlarning nuqsonsiz bo'lishini istab, ularga zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik, hazil-askiya bilan munosabat bildiradi. Qahramonlarning ruhiy dunyosiga nazar tashlash o'quv maqsadlarining **"tushunish"** kategoriyasida o'zlashtirilgan bilimlarni aniq tizimga sola bilishni nazarda tutadi. Bu, asosan, qahramon ruhiyati bilan bog'liq tarzda kechishini alohida ta'kidlash joiz.

"Qo'llash" bosqichi esa "o'quvchilarning o'rganilgan qonuniyat va nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarga tatbiq eta olishi, tushuncha va tamoyillarni har xil vaziyatlarga tatbiq etishga qodirligi bilan ahamiyat kasb etadi"[4]. Bundan kelib chiqib, o'quvchilarni hikoya qahramonlari hayoti, tuyg'ulari va boshqa o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishga undaymiz. O'quvchilar bu orqali unda ilgari surilgan asosiy g'oyani anglaydilar.

Bu bosqichda o'quvchilar asardagi voqealarni to'g'ridan-to'g'ri jamiyatga bog'lashlari uchun **"Erkin fikr"** mavzusida bahs-munozara tashkil etiladi. Bahs-munozarani tashkil etish uchun o'quvchilarga savollar beriladi:

Yozuvchi nega hikoyaga "Qoplon" deya nom berdi?

Hikoya qahramoni Qurbonboyning hayotda tutgan yo'li sizningcha to'g'rimi?

Tillayev va uning xotiniga ta'rif bering.

Qurbonboy Tillayevning xotinida o'zi haqida ijobiy taassurot qoldirish uchun qanday yo'l tutdi?

O'quv maqsadlari ichida bilimlarni **"tahlillash"** muhim o'rin tutadi. O'quvchilar tomonidan qissa qahramonlarining xarakterlari tahlil qilinib, ularga xos xislatlar haqida fikr-mulohazalari tinglanadi. Bugungi kun jamiyat hayoti va o'zlarining shaxsiy hayotlari bilan bog'lashlari uchun bir necha savollar bilan murojaat qilinadi. Qissa qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari, xarakterlaridan kelib chiqib, **"Jadvalli test"** metodidan foydalaniladi.

"Jadvalli test" metodi

Jadvalda asar qahramonlarining nutqidan parchalar keltiriladi. Keltirilgan parchalar qaysi asar qahramoniga taalluqli bo'lsa, o'sha katakka (+) belgisini qo'yishadi. Bu jarayon o'quvchilar bilan yakka tartibda amalga oshiriladi.

Asar qahramonlarining nutqidan parchalar	Tillayev	Qurbonboy	Tillayevning xotini	Yangi direktor
Bola-chaqali kamxarj odamga o'xshaydi. Imoratini yetti yildan beri bitkaza olmasmish.				
Oti Qoplon. Odamning yaxshisini darrov taniydi.				
Bizning it qalay?				
Bu itni taniyman.				

Blum taksonomiyasining "tahlillash" bosqichida "Muzyorar" metodidan foydalanilsa, o'quvchilar asarning mazmun-mohiyatini yanada to'liq anglaydilar. Ushbu metodni qo'llashda 1-o'quvchi asardan parcha keltiradi, 2-o'quvchi keltirilgan parchani izohlaydi. Agar 2-o'quvchi 1-o'quvchi keltirgan parchani izohlay olsagina, ikkala o'quvchiyam joyiga o'tiradi.

1-o'quvchi: Tillayev bilan Qurbonboy o'rtasida yaqinlik paydo bo'ldi. Bir kuni gap orasida u ro'zg'ordan orttirib uchastkasining tomini yopolmayotganini aytib qoldi.

2-o'quvchi: Tillayev Qurbonboyning asl maqsadi nima ekanligini bilmay, ishonib u bilan yaqin bo'lishdi. Aslida Qurbonboy o'z maqsadi yo'lida hech narsadan tap tortmaydigan manfur kimsa edi. U Tillayev bilan yaqin munosabat o'rnatganidan so'ng o'z maqsadlarini amalga oshira boshlaydi.

3-o'quvchi: Tillayev hassaga tayanib ko'cha aylangani chiqdi. Bir mahal qarasa, ko'chaning narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi.

4-o'quvchi: Hikoya qahramoni shunchalik manfur kimsa ediki, hatto nomiga bo'lsa ham qaramadi. Yozuvchi itning ham ba'zi insonlardan ko'ra vafodor ekanligini ko'rsatib bergan.

"Umumlashtirish" bosqichida yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda asar qahramonlarini quyidagicha tasniflash uchun **"Tanlab ol"** usulidan foydalaniladi. Bunda hikoya qahramonlari xarakteriga oid so'lar yoziladi. O'quvchilar shu so'zlar qaysi qahramonga mos kelishini o'zlari tanlab yozadilar.

"Baholash" bosqichda umumiy xulosalar uchun darslikda berilgan savol-topshiriqlardan foydalaniladi. O'quv maqsadlarining 5 bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchi bu savollarga hech ikkilanmay javob bera oladi. Shuningdek, asarga mustaqil baho va xulosa bera oladi.

[1]Bloom B.S. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. – New York: McGraw-Hill, 2014. 232 p.
[2]Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi /O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018-yil. 211-bet.
[3]Husanboyeva H., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. 214-bet.
[3]O'sha manba. 214-bet.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ | LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

Abdumurod NOMOZOV,
SamDU masofali ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

QIYOSIY VA TAHLILIY YONDASHUV – BILIM OLISHGA YANGICHA MUNOSABAT

So'nggi yillarda til va adabiyot fanlarining o'qitilishini ta'limning barcha bosqichlarida, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida sifat jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarish sohasida muayyan ishlar qilindi. Ta'lim tizimiga innovatsion g'oya va tushunchalarni singdirish, o'qitishning yangicha usul va shakllarini joriy etish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish masalasida anchagina yutuqlarga erishildi. Albatta, ketma-ket erishilayotgan ijobiy natijalar barchamizni quvontiradi, biroq sohada hali ham muammolarning mavjudligi har birimizni o'ylantiradi, tashvishga soladi. Tizimda bo'layotgan yangilik va o'zgarishlarni o'z vaqtida idrok etmaslik, yillar davomida shakllanib kelgan, qotib qolgan ta'lim "qolip"laridan voz kecha olmaslik, yangicha qarash va fikrlashga to'siqlarning mavjudligi kabilar shular jumlasidandir. Ayni paytda o'qituvchilarda faollikka, ijodkorlikka moyillikni kuchaytirish, ta'lim jarayoniga nafi tegadigan har qanday yangilikni joriy etish ko'nikmasini soha vakillarida shakllantirishga yordam beradigan mustahkam irodani tarbiyalash muhim vazifaligicha qolmoqda. Ana shunday dolzarb vazifalarning ta'limda yechimini kutib turgani soha vakillarining yanada hamjihat bo'lib ishlashini taqozo etadi.

Biz ham yillar mobaynida to'plangan tajriba, dars jarayoni hosilasi sifatida yuzaga kelgan fikr va xulosalarga tayanib, til va adabiyot fanlarini o'qitishda amalda qo'llanib kelingan usul va shakllarni inkor etmagan holda ularni boyitish, zamona zayli bilan yangi usullarni tatbiq etish tarafdori ekanligimizni quyidagi 2 usul tafsiloti misolida bayon qilishga jazm etdik.


1. **Izchil savol-javob usuli.** Odatda, adabiyot mashg'ulotlarida savol-javob usuli deganda ko'z oldimizga bu jarayonning ikki ishtirokchisi: savol berayotgan o'qituvchi hamda unga javob qaytarayotgan talaba keladi. Bu yillar davomida ta'lim jarayonida qo'llab kelingan an'anaviy, ko'p foydalanilgan usul hisoblanadi. Aytish joizki, bu usul ta'lim jarayonida boshqalariga qaraganda ilgari ham, hozir ham faolligicha qolmoqda. Odatiy dars jarayonini ko'z oldimizga keltiraylik. O'qituvchi bunda talabalarga o'quv dasturidagi tegishli badiiy matnni o'qib kelish topshirig'ini beradi. Har bir talaba bunga o'zgacha munosabatda bo'ladi: o'qishga e'tibor yoki e'tiborsizlik bilan, xohlab-xohlamay yondashadi. Shunga ko'ra matn mazmunining talabalar tomonidan o'zlashtirilish darajasi ham har xil bo'lishi kuzatiladi. Bu jarayonda ayrim o'zlashtira olmagan, ishni chala bajargan talabalarni yaxshi o'qimaganlikda ayblash to'g'rimikin? U badiiy matn mazmunini qay darajada o'zlashtirish ko'nikmasiga ega? Aslida topshiriq berilishidan avval masalaning bu jihatini aniqlash muhim emasmi? Matn mazmuni qanday o'zlashtirilishi sir-asrori haqida tushuncha, yo'l-yuriq bermagan o'qituvchi, shubhasiz, talaba nazarida o'rgatuvchi emas, topshiriq beruvchi qiyofasida namoyon bo'ladi, xolos. Bunday vaziyatda matnni o'qib kelinglar deya topshiriq bergan o'qituvchi bu ishning uddasidan chiqmagan talabaga tanbeh berib, uning "javobi"ni past baholashga haqlimi? Mashg'ulotlar ketma-ket o'taveradi, mavzular "o'zlashtirilaveradi", biroq matn mazmuni qay yo'sinda egallanadi degan izohtalab savol ochiqligicha qolaveradi. Aslida savolning javobini kim berishi kerak? Bizningcha, o'qituvchi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida ko'p qo'llanilayotgan "hamkorlikdagi dars" tushunchasi bor. Fikrimizcha, bunda qilinadigan yumushning mohiyati, mazmuni ta'lim beruvchi tomonidan tushuntirilishi, izohlanishi, ta'lim oluvchi tomonidan esa ijro etilishi kerak. Shu tamoyildan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchi faqat topshiriq beruvchi vazifasini o'tamasligi, jarayonning faol tashkilotchisi, ilhomlantiruvchisi rolini ham bajarishi kerakligi haqiqat. Kuzatishimizcha, dars jarayonidagi odatiy savol-javob usulida o'qituvchi mutolaaga tavsiya etilgan badiiy matnning istagan joyidan savol berib, javob olishga harakat qiladi. Go'yoki, talabaning matnni to'liq o'qiganini aniqlamoqchi bo'lganday. Bizningcha, talabaga matnning turli o'rinlaridan savol berilishi uni ma'lum darajada shoshirib qo'yadi. Ko'pchilik hollarda talaba tomonidan javobning birdan qaytarilmasligi, uning esankirab qolishi o'qimaganlikka yo'yiladi. Bu jarayonni kuzatib turgan boshqa talabalar o'zini chetga oladi, o'qituvchi bilan savol-javob qanday kechishini o'ylab, iloji boricha javob qaytarishdan qochadi, dars jarayoniga sovuqqonlik bilan yondashadi. Demak, ularning dars jarayonidagi bunday ruhiyati ishtiroki va faolligini susaytiradi. Shu sababli mashg'ulot davomidagi bunday holatlar bizni savol-javob usulida ishlash jarayonining yangi jihatlarini o'ylashga, izlanishga da'vat etdi. Biz bu o'rinda ushbu usulning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari kengligini e'tiborga olib, uning badiiy matn mazmunini to'liq o'zlashtirish jarayonidagi ahamiyati haqida to'xtalishni lozim topdik. Buning uchun ta'lim jarayonida to'plangan yetarlicha asosimiz, xulosalarimiz bor: matn mazmuni voqealar ketma-ketligiga moslab tuzilgan savollarga tayanib

so'ralsa, matnni sinchiklab o'qigan har bir talaba faol bo'ladi, qiziqishi ortadi, javob berishga qiynalmaydi, dars jarayonidagi so'rovda ham izchillik ta'minlanadi.

Biz taqdim etmoqchi bo'lgan izchil savol-javob usulining mohiyati nimada? Avvalo, izchillik so'zining izohiga e'tibor qaratsak. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha tushuntirish berilgan: "Muntazam, uzviy bog'liqlik, shunday holatga egalik" [1]. Bu ta'rifni mulohazalarimizning nishoni bo'lgan savol-javob usuliga bog'lasak, u badiiy matn mazmunini izchillik bilan o'zlashtirish, voqealar uzviy bog'liqligiga rioya qilingan holda tuzilgan savollar asosida talabalarning bilim darajasini xolis aniqlash, matn ustida ishlash samaradorligini oshirish imkoni degani. Izchil savol-javob usulini qo'llashda o'qituvchi va talabaning o'rni, roli qanday bo'ladi? O'qituvchi o'quv dasturiga kiritilgan turli janrdagi badiiy asarlar matnini mutolaa qilish topshirig'ini talabalarga avvaldan havola qiladi. U matnni sinchiklab o'qishga e'tibor berishni, har bir xatboshidan havola qilingan voqealar bayoni va ularning rivoji, davomiyligi, badiiy tasvir va nutq, badiiy bo'yoq va vositalarning mahorat bilan qo'llanilishi kabilar diqqat markazida bo'lishini uqtiradi. Matn yuzasidan o'tkaziladigan so'rovda uning to'liq mazmunini qamrab olgan savollar taqdim qilinishini aytadi. Namuna sifatida ayrim savollarni havola etib, talabaning so'rov jarayoni haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Mutolaa jarayonidagi mas'uliyat hissi talabani hushyorlikka undaydi, u matnning har bir jihatiga e'tiborli bo'lishni o'rganadi, shular bo'yicha berilishi kutilayotgan savollarga javoblarini tayyorlab boradi. Rejali tayyorgarlik savol-javob jarayonida talabaga qo'l keladi, imkoniyatini kengaytiradi, savollardan hadiksiramaydi, unda ishonch bilan javob qaytarish ko'nikmasi shakllanadi. O'qituvchining mashg'ulotda bir marta qo'llagan izchil savol-javob usuli talabalarga saboq bo'ladi, o'quv dasturiga kiritilgan boshqa asarlarning matni ustida ishlash jarayonining qanday kechishi mumkinligi haqida talabada ilk taassurotni shakllantiradi. Sodda qilib aytganda talaba matn mazmunini o'zlashtirishning to'g'ri yo'liga tushib oladi. Hatto, o'zi ham matnning biror parchasi yuzasidan savollar tuzish malakasiga ega bo'ladi.

Hozirgi paytda badiiy matn ustida ishlash jarayonining susayib ketgani, bu ishga yuzaki yondashish, hatto har bir talaba matnni mustaqil mutolaa qilmasdan, birining o'qigani ta'sirida qolganlarining "o'zlashtirib olishi" ko'p kuzatilmoqda. Hatto o'qish uchun tavsiya qilingan badiiy matn (masalan, "Shum bola", "O'tkan kunlar" kabi)ning sahnalashtirilgan yoki kinolashtirilgan



variantini ko'rib, asar matnini "o'qigani"ni isbotlamoqchi bo'lganlar ham topiladi. Vaholanki, asar matni boshqa, shu asosida tayyorlangan variant matni boshqa bo'ladi. Izchil savol-javob usulida badiiy matn mazmunini o'zlashtirgan talaba buni juda yaxshi anglaydi. Bu usul har bir talabani e'tiborli kitobxonga aylantirishdagi ahamiyati bilan ham qadrli. Agar ta'lim tizimida bu usuldan samarali foydalanilsa, talabalar orasida o'qimaydigani qolmaydi. Hatto dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rayotgan o'qituvchining o'zi ham matnni qayta-qayta ko'zdan kechirishga, voqealar ketma-ketligiga tayangan holda savollar tuzishga, talabalar tomonidan beriladigan har bir javobni tahliliy nazorat qilishga odatlanadi. Boshqacha aytsak, matn yuzasidan o'zida mavjud bo'lgan bilimlarni takrorlashga, charxlashga, yangi ma'lumotlarni qo'shimcha taqdim etishga sharoit yaratiladi.

To'g'ri, badiiy asar matnining hajman katta-kichik bo'lishi, har bir matnning yaratilishidagi janriy talablar izchil savol-javob usulida inobatga olinadi. Fikrlarimizni asoslash uchun boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi Adabiyot fani o'quv dasturidan o'rin olgan yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning kichik hajmli "Nihollarning nolasi" hikoyasi [2] mazmunini o'zlashtirish maqsadida o'qituvchi tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan savollardan namunalar keltirishni ma'qul ko'rdik.

- Nima uchun nihol ekib, ularning holidan xabar olmay qo'ygan bolalarning munosabatini yomon ko'rib qoldingiz?

- Niholcha nima uchun shabnamni so'rdi?

- Hikoyada nihollarning ko'plari uyg'onmadi deyilganini qanday tushuntirasiz?

- Niholcha nima uchun men o'lmasligim kerak deb nola qildi?

- Hikoyada nima uchun niholchalar bolalarni intizor bo'lib kutishadi?

- Hikoyada nima uchun qahramonlar sifatida nihollar tanlangan?

- Hikoyaning nima uchun Vatan, mehr-oqibat, g'amxo'rlik, e'tibor tushunchalariga aloqasi bor?

Havola qilingan savollar hikoya mazmuniga mos, voqealar ketma-ketligidan kelib chiqib tuzilgan. Savollarning miqdorini yanada ko'paytirish imkoni ham bor. Muhimi, savollar matn mazmunini to'liq qamrab olgan. Har bir savolning aniq bir talabaga yo'naltirilishi, javoblarning tahliliy baholanish imkoni mashg'ulotdagi ijobiy holat. Ayni paytda bu dars jarayoni talabalarning har biriga o'ziga xos yondashuv, mashg'ulotga qiziqtirishning bir yo'li hamdir. O'z tajribamizda sinab ko'rilgan izchil savol-javob usulida tashkil qilingan mashg'ulotda jarayon qizg'in bo'ldi, savollarga hech bir talabaning befarq emasligi kuzatildi. Sog'lom bahs-munozara muhiti yuzaga keldi. Endi o'ylab ko'raylik: badiiy asar matni mazmuni ustida ishlashning izchil savol-javob usuli darsni jonlantiradimi yoki matn mazmunini boshdan-oyoq talabalarning birin-ketin uzuq-yuliq aytib berish usulimi?

2. Talabalar kitobxonligini shakllantirishda satira va yumordan foydalanish usuli. Kitob o'qishga bo'lgan muhabbat aslida ta'limning quyi bosqichida shakllanishi barchaga ma'lum haqiqat. Bu tuyg'uni kamol toptirish masalasida o'qituvchilar tomonidan ko'plab taklif-mulohazalar bildirilgan. Biz ham bunday fikr-mulohazalar bilan tanishgan holda jarayonni kuchaytirishda satira va yumor imkoniyatlaridan foydalanish usulini ilgari surmoqchimiz. Ochiqroq aytganda satira va yumorni birlashtiruvchi xususiyat – kulgidan foydalanish orqali talabalarni kitob o'qishga jalb qilish, ularda kitobga nisbatan mehrni kuchaytirish maqsadimiz bor. Bu usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi talabaga asar mazmunini aytib bermasdan uni tayyor iste'molchi bo'lib qolishdan saqlaydi. Avvalo, asar matni ustida o'qituvchining o'zi ishlaydi, u matn bilan tanish bo'lgani uchun dastlab tegishli "nuqta"lariga e'tibor qaratish maqsadida eng qiziqarli, diqqattortar, kulgiga boy parchalarni belgilab oladi va dars jarayonida ifodali o'qib beradi. Shu orqali talabalarda asar matniga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bu usuldan samarali foydalanishni uddalagan o'qituvchi talabani o'sha asarni topishga undagan, qiziqtirgan bo'ladi. Shubhasiz, bu usulning natija berishi o'qituvchining mahoratiga: parchalarni to'g'ri tanlay bilishiga, ifodali o'qish va qiziqtira olish qobiliyatiga, talabalar ruhiyatiga qay darajada ta'sir ettira olish malakasiga bog'liq bo'ladi. Endi mana shu usulning bevosita dars jarayonida qo'llanishi va samarasi haqidagi fikrlarimizni bayon etsak. O'qituvchi o'quv dasturidan kelib chiqib, amaliy mashg'ulot darsida "Abdulla Qahhorning hajviy asarlari" mavzusini qay tarzda o'tish yuzasidan quyidagi to'xtamga keldi:

- mashg'ulotni ikki guruhda ikki xil usulda tashkil etish;

- ikki guruh talabalari misolida o'zlashtirish darajasini qiyosiy o'rganish;

- guruhlar o'rtasidagi erishilgan o'zlashtirish natijalari, samaradorlikni aniqlash va tahlil qilish.

Birinchi guruhda amaliy mashg'ulot hozirgacha adabiyot darslarida foydalanilgan shaklda o'tiladigan bo'ldi. Unda nazariy ma'lumotlar qisqacha gapirib berilgach, adibning "Adabiyot muallimi", "Notiq", "To'yda aza", "San'atkor", "Mayiz yemagan xotin" singari hajviy asarlarini o'qib kelish topshirig'i berildi.

Ikkinchi guruhda esa o'qituvchi asarlarning nomlarini tilga olish barobarida ulardan olingan eng qiziqarli, kulgi-mutoyiba sezilib turgan parchalarni mahorat bilan o'qidi, talabalarni diqqat bilan kuzatdi, ularga ushbu parchalarning ta'sir etish darajasini aniqladi. Dars yakunida, odatdagidek, yuqorida nomlari tilga olingan hajviy asarlar matnini topib, o'qish vazifasi talabalarga yuklandi. Dars davomida o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ayrim parchalarni keltirmoqchimiz.

"O'rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!

…Agar biz kamchiliklarimizdan bevosita ko'z yumib, yashasinchilik kayfiyatlariga berilib ketadigan bo'lsak, xato qilgan bo'lamiz. Bizda kamchiliklar bormi? Bor, oz emas! Masalan, iyul oyining birinchi yarmida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda yo'l qo'ygan jiddiy nuqsonlarimizni olaylik. Bu masalaga ikkovimizning ham jinoyatkorona sovuq qarashimiz orqasida qator chirishlar, buzilishlar, ko'karishlar yuz berdimi? " ("Notiq"dan)

– "J"ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti ...

Kichigini yozib qattiqroq o'qing! ("San'atkor"dan)

O'qituvchi keyingi amaliy mashg'ulotda ikki guruhga topshirilgan vazifaning ikki xil bajarilishiga guvoh bo'ldi. Birinchi guruhda talabalardan ayrimlari yuqoridagi asarlardan o'qigani ma'lum bo'ldi. Ko'pchilik talabalar asarlarning matnini izlab ham ko'rmagani oshkor bo'ldi.

Ikkinchi guruhdagi talabalar esa matnni topib o'qib kelishgani so'rov davomida aniq bo'ldi. Asarlarning mazmunini hayajon bilan gapirib berishganidan ularning qiziqib mutolaa qilishgani sezilib turardi, bu holat dars mazmuniga o'zgacha ruh bag'ishladi. E'tiborlisi shu bo'ldiki, talabalar o'qituvchidan shunday mazmundagi asarlarni mutolaa uchun tavsiya etishni so'rashdi. O'qituvchi dasturdan o'rin olgan boshqa hajviy asarlarni ham shu tarzda o'rgatish kerak ekan degan xulosaga keldi.

Qisqasi, ta'lim jarayonini jonlantirishga hissa qo'shadigan har bir kichik urinish, tajribani jur'at bilan joriy etish payti keldi hozir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. – Toshkent: "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 184-bet.
2. S.Matjonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2015. 226–230-betlar.

Hilola XUDOYMURODOVA,
Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi
36-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ONA TILI FANINI O'QITISHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

(5-sinf o'quv dasturidagi til sathlarining fonetika va leksikologiya bo'limlarini o'qitish misolida)

Darsning mavzusi: *X, x* va *H, h* harflari.

a) ta' limiy maqsad: *X, x* va *H, h* harflarini to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ona tabiatga muhabbat tuyg'usini o'stirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar og'zaki va yozma savodxonligini oshirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Zanjir", "Hikmat sabog'i", "Popurri", "Ayt-chi menga", "Xotira mashqi", "O'zingni o'zing bahola", "So'zni to'g'ri qo'lla".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, proyektor, slaydlar, tarqatmalar.

Darsning turi: noan'anaviy.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi. So'ng o'quvchilar e'tiborini darsga qaratish uchun "Hikmat sabog'i" usulidan foydalanib til haqida maqollar aytishlari so'raladi.

1-o'quvchi: Til – dil kaliti.

2-o'quvchi: Odob boshi – til ...

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzuni so'rashda "Ayt-chi menga" usulidan foydalanish mumkin. Bu usul yordamida o'zaro hurmat, o'zgalar fikrini tinglay bilish kompetensiyasi shakllantiriladi. Buning uchun doskaga ikki o'quvchi taklif etiladi va ular bir-biriga o'tilgan mavzu yuzasidan savollar beradi.

1-o'quvchi: Aytchi menga, Nodira, nutq tovushi deb nimaga aytiladi?

2-o'quvchi: Og'zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan qismi nutq tovushi deyiladi.

2-o'quvchi: Ayt-chi menga, Olim, alifboda undosh harflar va tovushlar soni nechta?

1-o'quvchi: Undosh harflar 23 ta, undosh tovushlar 24 ta ...

O'quvchilar javoblariga qarab rag'batlantirib boriladi.

Yangi mavzuni tushuntirishga kirishish oldidan "Zanjir" usulidan foydalanib o'quvchilar savodxonligi tekshiriladi. Buning uchun proyektor ekranida slayd namoyish etiladi:

T/r	1	2	3	4	5	6	7	8	9
X	+								
H		+							

O'qituvchi **x** va **h** harfiga oid sozlarni raqamlab aytadi. O'quvchilar qaysi so'z qaysi harf bilan yozilishini aniqlaydilar. O'qituvchi tog'ri aytilgan katakka qo'shuv, noto'g'ri aytilgan javob ro'parasiga ayiruv belgisini qo'yadi.

So'zlar	
1) xushxabar	5) xirmon
2) hujum	6) hokim
3) xodim	7) hordiq
4) hukmron	8) xattot

III. Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi: "Zanjir" usulidan bilib oldingizki, bugun **x** va **h** harflarining talaffuzi va imlosini o'rganamiz.

X, x harfi **q, g'** tovushlari bilan bir xil o'rinda, tilning orqa qismida hosil bo'ladigan undosh tovushni ifodalaydi. Masalan: xiyobon, xayol.

H, h harfi esa bo'g'izda hosil bo'ladigan undosh tovushni ifodalaydi. Masalan: hordiq, hokim.

O'qituvchi o'quvchilardan mavzuga oid misollar aytishlarini so'raydi va tegishlicha rag'batlantirib boradi.

1-topshiriq. *Bahor, hokim, goh-goh* so'zlaridagi **h** harfining qanday tovushni ifodalashini ayting?

O'quvchi: H bo'g'iz tovushini ifodalab, yumshoq talaffuz etilyapti.

2-topshiriq. *Xon, xor, hovuch, hol* so'zlaridagi **x** va **h** harflari ifodalagan tovushlarning talaffuzdagi farqini izohlang.

O'quvchi: X chuqur til orqa tovushi bo'lib, qattiq talaffuz qilinadi. **H** bo'g'iz tovushini ifodalaydi va yumshoq talaffuz qilinadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mavzu mashqlar bajarish orqali mustahkamlanadi.

417-mashq "Xotira mashqi" va **"O'zingni o'zing bahola"** usullaridan foydalanib bajariladi.

Paxta, xatar, shox, no'xat, taxta, baxt, shaxta, sinfxona, xil-xil.

Ogoh, harf, shoh, halol, havaskor, hayvonot, hayot, suhbat, hil-hil.

O'quvchilar mashqni o'qib, talaffuziga e'tibor bergandan so'ng o'qituvchi mashqda berilgan so'zlar asosida lug'at-diktant oladi. So'ng o'quvchi proyektorda yozilgan mashqqa qarab o'z diktantini tekshiradi.

418-mashq. *Shoh* va *shox*, *uxlamoq* va *uhlamoq* so'larining ma'nosidagi farqni tushuntiring hamda ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mashqni bajarishda "So'zni to'g'ri qo'lla" va "Popurri" usulidan foydalaniladi.

O'qituvchi: Paronimlarni to'g'ri qo'llash orqali bog'li matn tuzamiz. Ushbu mashqni adabiyot faniga bog'lab bajaramiz.

1-o'quvchi: *Shoh* – Susambil yurtida adolatli bir shoh bo'lgan ekan.

2-o'quvchi: *Shox* – O'sha shoh xurmo daraxti shoxini kesishni xizmatkoriga aytibdi.

3-o'quvchi: *Uxlamoq* – Xizmatkori xurmo daraxti tagida uxlayotgan ekan.

4-o'quvchi: *Uhlamoq* – Shohning buyrug'ini eshitib, ichida "uh" tortib o'rnidan turibdi…

Darsni yakunlashda "Muqaddima bizdan – xotima sizdan" usulidan foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi tomonidan aytilgan so'zning oxirgi harfiga o'quvchilar ot so'z turkumiga oid so'zlarni aytadilar. Masalan: *bahor – rohat – taxt – tanga – anhor…*

V. Baholash va rag'batlantirish.

O'quvchilarning barchasi darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi. Eng faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa.

420-mashq. "Halol va harom" mavzusida matn tuzib kelish.

Xurshida HOSHIMOVA,
NamMTI akademik litseyi ona tili
va adabiyoti fani o'qituvchisi

SINTAKSISDA NIMA O'RGANILADI?

(Akademik litseylarning 2-bosqich 1-yarim yilligi hamda 8-sinfning II choragi uchun mo'ljallangan)

Darsning mavzusi: Gap bo'laklari. Ega va uning ifodalanishi.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: talabalarning so'z birikmasi va gap bo'laklari haqida olgan bilimlarini rivojlantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: talabalarni mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: talabalarni badiiy asar o'qishga qiziqtirish, ular qalbida buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini o'stirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: ma'ruza, tushuntirish, namoyish qilish, suhbat, ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda tezkor savol-javob.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: ma'ruza matni, texnika vositalari, ish varaqasi, matnlar, diagrammalar, proyektor, yozuv taxtasi, rangli qog'oz, marker, slaydlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Talabalar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi, sinf xonasi va talabalarning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Darsning keying bosqichida "Aqliy hujum" usulidan foydalanib tezkor savol-javob o'tkaziladi. Talabalar bergan javoblariga ko'ra rag'bat yoki jarima kartochkalari bilan baholab boriladi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Sintaksisda nima o'rganiladi?
2. Gapda so'zlar qanday bog'lanadi?
3. Otli birikma nima?
4. Moslashuvli tobe bog'lanishda egalik shakli qaysi so'zda bo'ladi?
5. So'z birikmasini qaysi birliklardan farqlashimiz kerak?
6. Morfologiyada nima o'rganiladi?
7. Teng bog'lanish nimani hosil qiladi?
8. Fe'lli birikma nima?
9. Boshqaruvli birikmada qanday vositalar ishtirok etadi?
10. So'z birikmasi va iboraga misol keltiring, ularning farqini tushuntiring.
11. Sintaksis so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
12. Tobe bog'lanish nimani hosil qiladi?
13. Til birliklarini sanang.
14. Tobe so'z hokim so'zga ohang orqali bog'lansa, qanday nomlanadi?

15. So'z birikmasi va qo'shma so'zga misol kelting va farqlang.

So'ng uyga vazifa amaliy tahlil qilinadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu e'lon qilinadi. Dastlab yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarda mavjud bilimlar tekshiriladi, chunki bu mavzu boshlang'ich sinfda va 5-sinfda o'rganilgan. O'quvchilar bildirgan fikrlar jamlanadi va o'qituvchi tomonidan izohlanadi. O'qituvchi tomonidan slaydlar yordamida mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi:

– Gap – kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum fikr ifodalovchi sintaktik birlik. Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi mustaqil so'z yoki so'zlar birikmasi gap bo'laklari hisoblanadi. Har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi. Masalan:

Kim?	Kim bilan?	Qayerga?	Nima qildik?
Biz	*o'qituvchimiz bilan*	*muzeyga*	*bordik*

Bu yerda: *biz* – ega, *o'qituvchimiz bilan* – to'ldiruvchi, *muzeyga* – hol, *bordik* – kesim. So'zlar quyidagicha sintaktik aloqaga kirishgan:

1) biz bordik;
2) muzeyga bordik;
3) o'qituvchimiz bilan bordik.

Kesim – gapning asosini tashkil qiluvchi markaz. Gap bo'lagi uning kesimini aniqlashdan boshlanadi. Chunki asosiy xabar kesimda mujassamlangan bo'ladi. Ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi.

To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol – ega va kesimga ergashib, ularni to'ldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Gap tarkibida ulardan birortasi qatnashsa, yoyiq gap hisoblanadi. Ega va hol kesimga bog'lanadi. Lekin aniqlovchi bilan to'ldiruvchi har qanday bo'lakka bog'lanishi mumkin.

Ega – gap kesimidan anglashilib turgan harakatning bajaruvchisini, belgining sohibini bildirgan bo'lak. Ega, asosan, *kim?, nima?, qayer?* so'roqlariga javob beradi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi. Tahlilda uning ostiga bir to'g'ri chiziq chiziladi. Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1	**Ot bilan**	*Shamol* gul hidlarini atrofga taratdi.
2	**Olmosh bilan**	*Ular* to'garak mashg'ulotiga muntazam qatnashadi.
3	**Son bilan**	*Ikkalasi* ham chiqib ketishdi.
4	**Sifat bilan**	*Yaxshilar* ko'paysin, yomon qolmasin.
5	**Ravish bilan**	*Ko'plar* unga ishonch bildirdilar.
6	**Taqlid so'z bilan**	*Qars* ikki qo'ldan chiqadi.
7	**Modal so'z bilan**	*Bor* so'zlaydi, *yo'q* o'ylaydi.
8	**Sifatdosh bilan**	*O'qigan* o'qdan o'zar, *o'qimagan* turtkidan shoshar.
9	**Harakat nomi bilan**	*O'qish* jafoli, oqibati vafoli.
10	**Ibora bilan**	*Uning yuziga oyoq qo'yish* axloqimizga zid.

Ba'zan teng aloqadagi bir nechta so'z ham butunicha yoki bo'lak-bo'lak holda ega bo'lib kelishi mumkin: *Otam bilan akam bozorga ketishdi.*

Ega ibora va kengaygan birikma bilan ham ifodalanadi: *Aravani quruq olib qochish sizga yarashmadi. Otlarni otxonaga olib o'tilmagani Ziyodullani taajjublantirdi.*

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichida har bir guruhga topshiriqlar beriladi, talabalar javoblariga ko'ra baholab boriladi.

1-toshiriq. Berilgan gaplarning egalarini aniqlab, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini namunadagidek yozing.

Namuna: *Uzoqdan to'plarning gumbur-gumburi* (taqlid so'z) *eshitilardi.*

1. Ikkovimiz dala aylandik. 2. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar. 3. Milt-milt yonib turgan chiroq birozdan so'ng o'chdi. 4. Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. 5. Maqtanchoq – quruq po'choq. 6. Ilm hayo bilan kibr orasida yo'q bo'lib ketadi. Kamtar kerilmaydi, mol-dunyoga berilmaydi. 7. Yolg'onchilik, ezmalik, takabburlik, chaqimchilik izzat-obro'ni barbod qiladi. 8. Yugurish sportning bir turidir. 9. Mastura Mashrabning ko'zlariga qadalib qaradi. 10. Bo'g'otda musichalarning g'uv-g'uvi eshitildi. 11. Atrof jimjit. 12. Namangan – gullar shahri.

2-topshiriq. O'qing. Gapni bo'laklarga ajrating.

Turkiy xalqlarning dastlabki xo'jalik turlaridan biri bo'lgan chorvachilik turli sabablarga ko'ra makon o'zgartirish hamda urushlar tarixi bilan bevosita aloqador. Ana shunday tarixiy vaziyatda mazkur xalqlar xohlagan vaqtida tikib yashab, xohlagan paytda yig'ib, ko'chiga ortib ketishiga qulay bo'lgan ko'chma uylar (o'tovlar) dan foydalanganlar. "O'tov" so'zi o'zbek tilida "kigiz uy" ma'nosini bildirsa, qirg'iz, qozoq, turkman tillarida katta uyga nisbatan kichik uyni ifodalaydi. O'tovlar yengil, tabiiy materiallardan quriladi. O'tovlarning yog'och qismi erkak ustalar tomonidan, kigiz qismi esa ayollarning qo'l mehnati natijasida amaliy san'at asari darajasiga ko'tarilgan.

3-topshiriq. Berilgan gaplarga mos kesim qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Beshik tebratgan qo'llar dunyoga... 2. Dunyoda kechayotgan tabiat tanazzulini o'ylasam, dilim tubidan bir nido... 3. Tarix haqiqati oyga... 4. Hikmat toshi vositasida kumush oltinga... 5. Qurumsoq tabassumini ham o'zgalardan... 6. Qafasda dunyoga kelgan qush ham erkin tush... 7. Begona yurt osmonidagi quyosh ham musofirga g'arib... 8. Eng xosiyatli buloq — ilm chashmasi: undan suv ichgan sayin tashnalik... 9. Hikmatni o'tda yoqsangiz, u qaqnus yanglig' kuldan yana... 10. U tavbaning kuchiga ishongani uchun ham dahriylik

ko'chasiga...

So'ng "Venn" diagrammasidan foydalanib talabalarda taqqoslash, tahlil qilish va guruhlash malakalari shakllantiriladi. Bunda:

1-bosqich. Talabalar ushbu diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi.

2-bosqich. Yakka juftlikda yoki guruh ichida diagramma asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi.

3-bosqich. O'xshash va farqli xususiyatlar diagrammaga yoki jadvalga tushiriladi.

4-bosqich. Faoliyat natijalari tahlil qilinadi va baholanadi.

O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishda yuqorida qayd etilgan fikrlardan foydalanib mavzu umumlashtiriladi.

V. Baholash va rag'batlantirish.

Dars yakunida to'plangan "rag'bat" va "jarima" kartochkalar hisoblanadi. Dars jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar olqishlanadi. Barcha talabalar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

1. Badiiy asarlardan foydalanib, ega ishtirok etgan gaplarga o'nta misol toping va ularni sintaktik tahlil qiling.

2. Quyidagi testlarni yeching:

1. Quyidagi gapda ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan:

Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.

A) ot bilan
B) otlashgan sifat bilan
D) fe'l bilan
E) otlashgan sifatdosh bilan.

2. Ega belgilash-jamlash olmoshi bilan ifodalangan gapni aniqlang.

A) Dildorning bari gaplari haqiqat edi.
B) Kela berdilar bari kattakon chinor sari.
D) Har bir inson o'z baxti uchun kurashadi.
E) Allaqayerlarda xo'rozlar qichqirdi.

3. Qaysi gapda ega shaxs oti bilan ifodalangan?

A) Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o'g'li Otabek!
B) Aravakash mo'mingina, muloyim, kamtar kishi.
D) Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog' ortiga jo'nadi.
E) "Qo'shiq aytolsa, demak, cho'ponlikka yaraydi," – dedi Qurbon cho'lig'iga.

4. *Ayol qalbi tosh bo'lsa ham, allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin bo'ladi.* **Ushbu gapda ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?**

A) ot
B) sifat
D) olmosh
E) modal so'z

5. Til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatidan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi nima?

A) matn
B) gap bo'laklari
D) so'z birikmasi
E) gap

Mohidil NIZOMOVA,
Farg'ona viloyati Yozyovon tumanidagi
16-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

G'AFUR G'ULOM HAYOTI VA IJODI. UNING "SOG'INISH" SHE'RI BILAN TANISHISH

(8-sinf, II chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga G'afur G'ulom hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish, "Sog'inish" she'ri bilan tanishtirish, ularning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga vatanparvarlik, mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ularini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Hozirjavob", "Yashirin satrlar", "Xotira mashqi", "Fikr charxi", "Soyabon".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmali rasmlar, rag'bat kartochkalari, texnik vositalar, plakatlar.

Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi. Dars musobaqa tarzida olib borilishi e'lon qilinib, o'quvchilar 2 guruhga ajratiladi: 1-guruh – "Nasr" guruhi, 2-guruh esa – "Nazm"guruhi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

"Hozirjavob" usuli orqali o'tilgan mavzu mustahkamlanadi. Bunda Nodiraning hayoti va ijodi haqida ikkala guruh ketma-ketlikda ma'lumot aytadilar. Eng ko'p ma'lumot aytgan guruh g'olib hisoblanadi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Avvalgi darsda G'afur G'ulomning hayoti va ijodini o'rganib kelish topshirilgandi. "Soyabon" usuli orqali o'quvchilarning adib ijodi bilan qay darajada tanishganliklari tekshirib olinadi. Bu usulni amalga oshirish uchun sinf xonasiga bitta soyabon olib kiriladi. 1-guruh 2-guruhga G'afur G'ulomning hayoti va ijodiga oid savollar bilan murojaat qiladi, ya'ni savollar "yomg'irini" yog'diradilar. 2-guruh a'zolari ushbu savollarga navbatma-navbat javob beradilar va soyabon ostiga o'tadilar. Masalan:

1-guruh: G'afur G'ulom qachon va qayerda tug'ilgan?

2-guruh: G'afur G'ulom 1903-yilda Toshkentning Qo'rg'ontegi mahallasida tug'ilgan.

1-guruh: U bolaligida qanday kasblar bilan shug'ullangan?

2-guruh: U bolaligida kosiblik, mixkorlik, aravakashlik bilan shug'ullangan.

1-guruh: Uning qanday qissalarini bilasiz?

2-guruh: Adib "Netay", "Yodgor", "Tirilgan murda" kabi bir qator qissalar yozgan.

1-guruh: G'afur G'ulom "Shum bola" qissasini nechanchi yilda yozgan?

2-guruh: G'afur G'ulom "Shum bola" qissasini 1936-yilda yozib tugatgan.

1-guruh: Adib qanday mukofotlarga sazovor bo'lgan?

2-guruh: Adib 1963-yili "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni, 1999-yili esa "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

1-guruh: U qachon vafot etgan?

2-guruh: G'afur G'ulom 1966-yilning 10-iyunida vafot etadi.

Savollarga javob topa olmagan ishtirokchi "yomg'irda" qolib ketadi. Shu tarzda guruhlar o'rin almashadilar va o'z bilimlarini sinab ko'radilar.

Shundan so'ng o'qituvchi G'.G'ulomning "Sog'inish" she'rini ifodali qilib o'qib beradi. O'quvchilar ham navbat bilan she'rni ifodali o'qib bo'lganlaridan so'ng "Xotira mashqi" usuli amalga oshiriladi. Bunda she'ning har bir misrasi alohida-alohida qilib qirqib olinadi va chalkash holda guruhlarga tarqatiladi. Guruhlar esa ma'lum bir vaqt ichida ushbu satrlarni o'z o'rniga joylashtirishlari kerak bo'ladi. Shartni birinchi bo'lib bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

So'ng she'rning mazmunini ochib berish maqsadida "Aql charxi" usulidan foydalaniladi. Bunda o'qituvchi she'rni xohlagan bandidan guruhlarga o'qib eshittiradi, guruhlar esa bu band mazmunini so'zlab berishga harakat qiladilar. Masalan:

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh!

"Nasr" guruhi: Ushbu bandda ota urushga ketgan o'g'lini juda-juda sog'inib ko'zi yoshga to'ladi. U o'g'lidan xabar kutadi. Shuning uchun har bir narsadan umidlanadi, najot so'rab to Quyoshga qadar zorlanadi.

Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonani o'pib qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab, o'zimday mag'rur,
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi.

"Nazm"guruhi: Ota urushga ketayotgan o'g'lining holatini aks ettirishga harakat qiladi, ya'ni uning naqadar mard va jasurligini, yaqinlariga mehribonligini ta'kidlaydi.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilar fikrini umumlashtirib, she'r mazmunini ochib beradi.

O'qituvchi: G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'rida otalarimizga xos bo'lgan jamiki fazilatlar o'zining yorqin ifodasini topgan. Ularning samimiyligi, jonsarakligi, mehr-u muhabbati, kuzatuvchanligi – barcha-barchasi shu yerda namoyon bo'ladi.

Asar misralari ichra urushga ketgan o'g'lidan bir mujda – yaxshi xabar kutayotgan Otaning bezovta yuragi gupillab urib turibdi. Uning ko'ngliga goh vahima ko'lanka soladi. Atrofga har kuni yuzlab "qoraxat" qo'nayotgan tahlikali kunlarda bu bezovtalikka o'rin bor, albatta.

Ko'pchiligingizga sog'inch hissi hozircha bir qadar uzoqroq bo'lishi tabiiy. Negaki, hozir ota-onangiz, aka-ukalaringiz yonidasiz – har kuni ularni ko'rish, diydoridan bahramand bo'lish imkoniyatingiz bor. Lekin harbiy xizmatdami, uzoqroq xizmat safarida bo'lgan otangiz yoki boshqa qarindoshlaringiz gaplariga quloq solsangiz, ular uyni, yaqin qarindoshlarini, Vatanni qanchalar qo'msaganliklarini hikoya qilishadi. Shuning uchun ham biz shunday jannatmakon, tinch va osuda diyorda yashayotganimizga shukrona qilishimiz, Vatanimizni, oila a'zolarimizni sevib ardoqlashimiz, ularning qadriga yetishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ri o'zbek sheriyatida badiiy tafakkurning eng yuksak namunalaridan biri, pokiza insoniy hislarni mukammal tarzda mujassam etgan asardir.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Yashirin satrlar" usulidan foydalaniladi. Ushbu usulda she'rning mazmuniga asoslangan rasmli kartochkalar guruhlarga tarqatiladi. Guruhlar esa rasm qaysi band mazmuniga mos kelishini topishlari kerak bo'ladi. Masalan:

Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan
Baxtli tongotar chog' uni kuzatdim,
Bir mal'un gulshanga qadam qo'ymishgan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim.

...Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni – allakimimni,
Doimo umidim bardam bo'lsa ham,
Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.

V. Baholash va rag'batlantirish.

Guruhlar to'plagan rag'bat kartochkalari hisoblanadi, g'olib guruh aniqlanib, rag'batlantiriladi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'rini yod olish, "Mening otam" mavzusida insho yozish.

Barno ABDURAHMONOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti

O'QUVCHILARGA BADIIY TASVIR VOSITALARINI O'RGATISH USULLARI

Men yovvoyi so'zlarni tutdim (Yusuf Xos Hojib)

Darsning mavzusi: "Qutadg'u bilig" asarining badiiy xususiyatlari
(11-sinf)

Darsning maqsadi:

a) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning badiiy tasvir vositalari orqali badiiy adabiyotga, xususan, Yusuf Xos Hojib ijodiga bo'lgan qiziqishlarini orttirish;

b) ta'limiy maqsad: o'quvchilarni asardagi tasvir vositalari, ularning turlari va qo'llanish xususiyatlari bilan tanishtirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mavzu asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish.

Darsning jihozi: "Qutadg'u bilig" nashrlaridan namunalar, asardagi badiiy tasvir vositalari jadvali, asardan olingan parchalardan iborat tarqatmalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'qituvchi darsni kirish suhbatidan boshlaydi: biz o'tgan darslarimizda Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi, u yaratgan muhtasham asar "Qutadg'u bilig" dostonining tuzilishi, sujeti, obrazlar tizimi, unda ifodalangan asosiy g'oya va mavzular haqida suhbatlashgan edik. Keling, shu asar haqida o'qiganlarimizni yana bir marta xotirlaylik.

O'qituvchi: Yusuf Xos Hojib o'z asarini nima maqsadda yozgan? Maqsadini amalga oshirish uchun qaysi ramziy obrazlardan foydalangan?

1-o'quvchi: Badiiy asarning yaratilishi faqat shaxsiy istak bilangina bog'liq emas. U jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi talab va ehtiyojlar zamirida yuzaga keladi. Yusuf Xos Hojibning asari turkiy xalqlarning milliy tiklanish jarayonlari boshlanib kelayotgan davrda yaratilgan. Bu paytda qoraxoniylar davlati mustaqil bir davlat sifatida shakllangan edi. Unda turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

2-o'quvchi: Qo'lga kiritilgan yutuq – davlatchilikning paydo bo'lishi uchun ramziy obrazlardan foydalanilgan. Undagi hukmdor – elig Kuntug'di qiyofasida ko'rsatilgan. U Adolat ramzidir. Hukmdorning eng yaqin yordamchisi, qo'ldoshi vazir Oyto'ldi Davlat ramzini anglatadi. O'gdulmish Aqlning ramzi. U asarda Oyto'ldining o'g'li qiyofasida ko'rinadi, keyinroq otasining o'rniga vazir bo'ladi. O'zg'urmish esa zohid timsolida keladi. Adib shu qahramonlarning badiiy taqdiri, ya'ni talqini vositasida Adolat va Aqlni ulug'laydi.

3-o'quvchi: Insonning baxtli va saodatli bo'lishi uchun zarur bo'ladigan xislat va fazilatlarni badiiy tarzda ko'rsatib beradi. Turkiy tilning nozik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Turkiy tilning ichki, nozik imkoniyatlarini namoyish etish ham adib oldidagi asosiy vazifalardan biri edi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini tinglaydi, o'rni bo'lsa qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

II. Yangi mavzu bayoni.

Dars suhbat metodi asosida olib boriladi. O'quvchilar 5-sinfdan boshlab tashbeh, tazod, istiora, tajnis, irsoli masal kabi tasvir vositalari haqidagi nazariy bilimga ega bo'lganlar. O'qituvchi o'quvchilarning quyi sinflarda olgan adabiy-nazariy bilimlariga tayangan holda quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida qaysi badiiy tasvir vositalarini ko'proq qo'llagan?

Ular qaysi maqsadda qo'llangan?

O'quvchi: Yusuf Xos Hojibning badiiy uslubi uchun tashbeh – o'xshatish, istiora, ta'did, jonlantirish, tazod singari tasvir vositalari xosdir. U anafora, inversiya, alliteratsiya, ritorik so'roq, ritorik murojaatlardan ham unumli foydalanadi.

O'qituvchi: Tashbeh nima, uning qanday qismlari bor? Yusuf Xos Hojib tashbehlarining o'ziga xosligi nimada?

O'quvchilardan biri tashbeh haqida bilganlarini darslikdan o'qiganlariga tayanib, quyidagi misralar misolida izohlashga harakat qilishi mumkin:

*Bo'dum erdi **o'qteg**, ko'ngul erdi **ya**,*
*Ko'ngul qilg'u **o'qteg**, bo'dum bo'ldi **ya**.*
Mazmuni:
*Qaddim **o'qteg** (to'g'ri) edi, ko'nglim esa*
***yoydek** edi.*
*Ko'ngil orzulari hanuz **o'qdek**, qaddim esa*
***yoy** bo'ldi.*

O'qituvchi proyektor orqali "Qutadg'u bilig" asaridagi badiiy tasvir vositalariga misollarni tayyor holda o'quvchilarga ko'rsatadi hamda ulardan she'rdagi poetik ohangdorlik to'g'risida fikr yuritishlarini talab qiladi. Har bir so'zning boshida kelgan birinchi tovushni ajratib ko'rsatishlarini, bu tovushlar takrori qanday badiiy hodisani yuzaga keltirayotganini va ular nima uchun qo'llanganini tushuntirib berishlarini so'raydi . Masalan:

*Tarig'chi **t**urur, ko'r, **t**aqi bir qu**t**u,*
*Keraklig kishilar **t**urur, bu bu**t**u.*

O'quvchi: Keltirilgan misolda o'n bitta so'z bo'lib, bu so'zlarning oltitasi tarkibida "t" tovushi qatnash-

gan. Shundan to'rtta so'zning boshida "t" tovushi ishlatilgan. Tovushlarning bunday takroriga asoslangan hodisa she'riyatda alliteratsiya hodisasi deb yuritiladi. Alliteratsiya hodisasi so'zlardagi ohangdorlikni ta'minlaydi, asosan, undosh tovushlarning takror ishlatilishidan paydo bo'ladi. Ayrim hollarda unli tovushlar ham takror kelishi mumkin. Yusuf Xos Hojibning bu baytlarida undosh tovush takror kelib, konsul alliteratsiyaga (undosh tovushlarning takror kelishi) misol bo'ladi.

Agar o'quvchi bu javobni berishga qiynalsa, o'qituvchi ko'mak bergani ma'qul.

O'quvchining javobini eshitgan o'qituvchi navbatdagi she'riy misraga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi:

Tili yalg'an erning jafa qilqi – ul,
Jafa kimda ersa o'shul yilqi – ul.
Kishi yalg'aninda tilama vafa,
Bu bir so'z sinamish o'kush yilqi – ul.

To'rtlik matni ustidagi ishni o'quvchilar o'zlari uchun notanish bo'lgan so'zlar lug'atini tuzishdan boshlaganlari ma'qul. Bunda, avval, hozirgi tilimizga yaqin keladigan, ma'nolarida ayirma bo'lmagan so'zlar aniqlanadi (Savol: qo'shimcha lug'atlarsiz tushunilishi mumkin bo'lgan qaysi so'zlarni ajrata olasiz?). Gap shundaki, mazkur to'rtlikdagi deyarli barcha so'zlar alohida-alohida olinadigan bo'lsa, ular hozirgi tilimizda ham mavjuddir. Bu yerda birgina "o'kush" so'zi tushunarsiz, xolos. Ikkinchi "yilqi" so'zining o'zagini topish so'ralsa, u ham osonlik bilan "hazm bo'ladi". Demak, bu yerda "yilqi" shakli hozirgi "yilgi" so'zi bilan bir xil ekanligi ("o'kush yilqi – ko'p yilgi") ma'lum bo'ladi.

O'quvchi: Muallif bu she'rning ikkinchi misrasida kelgan "yilqi" so'zi bilan to'rtinchi misrada kelgan "yilqi" so'zlarini o'zaro omonimlik munosabatda qo'llab, she'riyatda keng qo'llaniladigan jinsdoshlik asosida yaratiladigan tajnis san'atini qo'llagan.

So'ngra to'rtlik mazmuni izohlanadi. Buning uchun quyidagicha topshiriqdan foydalanish mumkin bo'ladi. Har bir misraning bir necha variantdagi izohlari o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi. Ular matn mazmuniga mos variantni ajratishlari lozim. Ularni quyidagicha shaklda taqdim etish mumkin:

1-misra:
A) Tilini yalagan kishining qilig'i jafolidir;
B) Tili yolg'on erning qilig'ilig'i jafo va musibatdir;
D) Tili yolg'on bo'lgan bu kimsa, uning qilig'i jafodir;
E) **Tili yolg'on (yolg'onchi) kishining qiliqlari jafodir.**

2-misra:
A) Kimda jafo bo'lsa, u o'sha yillarda qolib ketadi;
B) Kim jafokor bo'lsa, uning jafosi ko'p yillarga yetadi;
D) Jafo kimda bo'lsa, u jafosini odamlarga emas, hayvonlarga qilishi kerak;
E) **Jafo kimda bo'lsa, o'sha kishi odam emas, balki yilqi – hayvondir.**

3-misra:
A) Kishi yolg'onida vafo tilama;
B) Kishidan yolg'on vafo tilama;
D) Yolg'onchi kishi vafoni biladimi;
E) **Yolg'onchi kishidan vafo kutmagin.**

4-misra:
A) Bu bir so'zdirki, ko'p yilqilarda sinalgandir;
B) Bu bir so'zdirki, uquvli hayvonlarda sinab ko'rilgandir;
D) Bu ko'p yillar davomida uquv va zakovat bilan sinalgandir;
E) **Bu bir so'zdirki, ko'p yillar davomida sinalgandir.**

O'quvchi o'zi uchun to'g'ri deb bilgan misrani yuqoridagi kabi ajratib ko'rsatadi. So'ngra unda ifodalangan badiiy tasvir vositasini aniqlash topshirig'i beriladi.

III. Darsni mustahkamlash: "Bahor madhi" qismidan olingan parcha ustida ishlash; undagi tasvir vositalarini aniqlash; o'qituvchi darsning bu bosqichida ham suhbat metodini davom ettirgan holda o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

Darsimiz uchun tanlangan epigrafni qanday tushunasiz?

Siz bugungi mavzumiz uchun qaysi epigrafni tavsiya etgan bo'lar edingiz?

Istiora haqida nimalarni bilasiz? Yusuf Xos Hojib asarida qanday istioralar uchraydi? Quyidagi misralarni o'qing, undagi istioralarni topib, bajarayotgan vazifasini aytib bering.

Qara bash yag'isi **qizil til** turur,
Necha bash yedi ul, taqi ma eyur.
Bashingni tilasang, tilingni ko'daz,
Tiling tegma kunda bashingni yeyur.

Mazmuni:

Qora bosh yovi bu qizil til turur,
Necha bosh yedi u yana ma yur.
Boshing sog'lig'i-chun tiyib yur tiling,
Tiling istagan kun boshingga yetur.

Quyidagi parchalar asarning qaysi qismidan olingan? (O'quvchilarning tayyorgarligiga qarab o'qituvchi asarning turli boblaridan kichik-kichik parchalarni tavsiya etishi mumkin.)

Tazodni aniqlang:
Uqushlug', **vafalig'**, kishi tuzuni,
Yulug'lar kishika qamug' o'zini.
Arig'siz, **jafalig'**, qilinchi o'tun
Qali aydi ersa, qiyar so'zini.

Ta'didga keltirilgan misolni asoslashga harakat qiling:
Tilingni ko'dazgil, **ko'z**ingni ko'daz,
Bo'g'o'zni ko'dazgil, halal, yegil az.

Tajnisni topa olasizmi?
O'sal bo'lma, saqlan qamug' ishda san,
O'sayuq arutti ekaguda san.

Bahor tasvirini esga oling. Unda qanday qush va hayvonlar haqida gap boradi? Shoir nima uchun ayni shu jonivorlarni tanlab olgan deb o'ylaysiz? Quyidagi jadvalga qush va hayvon nomlarini joylashtiring. Ular qanday badiiy tasvir vositasini yaratish uchun asos bo'lishini izohlashga hamda darslikdan misol keltirishga urinib ko'ring.

Jonivorlarning matndagi nomi	Jonivorlar nomining bugungi kundagi muqobili	Qisqacha izoh
qug'u	oqqush	

qaz	g'oz	
o'rdak	o'rdak	
turna	turna	
kaklik	kaklik	
qora chumchuq	qora zog'	
sanvach	bulbul	
ilik kulmiz	jayron	
sig'un muyg'aq	bug'u	

IV. Baholash va rag'batlantirish.

Dars jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar olqishlanadi va baholanadi.

V. Uyga vazifa.

Quyida asarda qo'llangan tasvir vositalarini topish, ularning bajarayotgan vazifalarini belgilash uchun o'quvchilarning o'zlari to'ldirishlari mumkin bo'lgan jadval namunasi tavsiya etilmoqda. Unga ko'ra o'quvchilar yuqorida to'ldirgan jadvallaridagi jonivorlarning "Qutadg'u bilig" asarida qanday badiiy tasvir vosita yaratish uchun asos bo'lganligini jadvalning uchinchi ustuniga yozishlari topshiriq qilib beriladi. Sinfning tayyorgarlik darajasiga qarab ularning mazmunini o'zgartirish ko'zda tutiladi. Bunga tasvir vositalari haqidagi ma'lumotlarni qisqartirish yoki kengaytirish hisobiga erishish mumkin bo'ladi.

Badiiy tasvir vositasi	Misollar	Qisqacha izoh
tashbeh (o'xshatish)	Ko'kis turna ko'kda unun yanguqular, Tizilmish tatirtag uchar, yelgurar.	
istiora		
epitet		
tazod		
ta'did		
tajnis		
talmeh		
so'z takrori		
alliteratsiya (so'z boshidagi tovushlar takrori)		

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M., Djumaboyeva D. Jahon adabiyotini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2019. 28-bet.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
3. Karimov Q. Ilk badiiy doston. – Toshkent: Fan, 1971.
4. To'xliyev B. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. 147-bet.
5. To'xliyev B. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy. – Toshkent: Matbaa-tongi, M.CH.J. 2001. 67-bet.
6.To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik-majmua. – Toshkent: O'ME nashriyoti, 2018.
6. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 504-bet.

Saodat KAMBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUAMMOLI TAHLIL – FIKRLASHGA O'RGATISH OMILI SIFATIDA

Asar bilan to'qnash kelishi hamon o'quvchilarda tug'iladigan savolning o'zi uni muammoli o'rganish jarayonini tashkil qiladi. Voqelikda aks etgan muammoni aniqlash o'quvchilar uchun dastlab murakkab yoki tushunarsiz, ammo vaziyatga kirishgach, rang-barang fikrlarni mujassam etgan jonli bahs-munozaraga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, muallif konsepsiyasi, ijodining o'ziga xosligi, asarda aks etgan zamon, makon va muhit haqidagi materiallar, asar poetikasini o'zlashtirish barobarida o'quvchi iqtidorini to'g'ri yo'naltirish, intellektual imkoniyatlarini oshirish usullarini egallashini ham ta'minlaydi. Professor Q.Yo'ldoshevning fikricha, "Har bir asarda ko'tarilgan muammoni aniqlashda o'ta xolislik, muallifni qalam tutishga majbur qilgan asl sababni anglab yetishga intilish, uning qaysi muammo va masalalar yuzasidan o'qirmanlar bilan dardlashgisi kelganini ilg'ab olishga urinish ustuvorlik qilishi kerak. Kitobxon ijodkor ko'targan muammoni to'g'ri tushunib, muallif nuqtayi nazarini to'la idrok etganiga ishonganda gina u to'g'rida yozuvchi bilan muloqotga kirishishi, bahslashishi, uning yondashuviga faol munosabat bildirishi mumkin"[1].

Har bir muammoning yechimi, albatta, insondan muayyan intellektual faoliyat, ya'ni masala maz-

mun-mohiyatini chuqur tadqiq qilish, izlanish va kuch sarflashni talab etadi. Muammoli tahlil bir-biridan farqlanuvchi muammoli savol, muammoli vazifa va muammoli topshiriq kabi aqliy operatsiyalar qo'llanilishi bilan xarakterlidir.

Muammoli savol axborot tarzidagi savoldan o'zgacha tarzda fikrlash yo'li bilan hosil qilingan noma'lum narsaning anglanishiga yo'naltiradigan so'roq bo'lib, uning alohida, muammoli vaziyat yoki muammoli vazifalar tarkibida kelishi kutiladi. Hal qilinishi belgilangan qator muammoli savollarning o'zaro integratsiyalashuvidan *muammoli vazifalar* yuzaga keladi. Avvaldan muayyan subyekt tomonidan hosil qilingan, sharti ma'lum va javob topish doirasi tor didaktik tushuncha muammoli vazifa sanaladi.

Muammoli topshiriq muammoli savol va vazifalar negizida shakllanib, ta'lim beruvchi yoki darslik mualliflari tomonidan o'quvchini muammoli vaziyatga yetaklaydigan o'quv topshirig'idir. Muammoning qo'yilish sharti muammoli topshiriqlar yechimini har tomonlama asoslash omili sanaladi. Demak, bularning barchasi, o'z navbatida, muammoli vaziyatlarga asos bo'ladi.

"*Muammoli vaziyat* subyektning psixologik holati bo'lib, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikning paydo bo'lishi zudlik bilan hal qilishga imkon beradigan yangi bilim va harakat usullarini izlash, ularni topib, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi"[2].

Muammoli tahlilda savollarning afzalligi shundan iboratki, "birinchidan, o'quvchilar tahlilda qiyinchiliklarni his etadilar va ularni yengishga intiladilar, ikkinchidan, tahlil bir maqsad tomon yo'naltirilib, o'quvchilar umumiy masalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo'lni topishga harakat qiladilar"[3]. Fikrlash muammoli vaziyatlar zamirida shakllanadi. Shunday ekan, o'quvchi muammoli vaziyatlar tahlilida nafaqat kitobiy, balki hayotiy kuzatishlari, shaxsiy tajribalariga tayanib mulohaza yuritsa, bu uning aqliy faoliyatini yanada faollashtiradi, tafakkurining emotsional tomonini qamrab oladi.

O'quvchilarning muammolarni aniqlash, muhokama qilish hamda o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga o'rganishlarida o'qituvchining muhim va badiiy jihatdan mukammal asarlarni o'rnida tavsiya qilishi va mashg'ulotlarni rejalashtirishi maqsadga muvofiq. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida jahon adabiyoti namunalarini mustaqil o'qishga tavsiya qilish orqali turli davr va turli ijtimoiy muhitda yashagan yozuvchilar ijodini xalqning tarixiy o'tmishi, insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatlar birlashishi nuqtayi nazaridan muammoli yo'sinda o'rganish mumkin. Masalan, braziliyalik adib Paulo Koelo qalamiga mansub "Alkimyogar" asari[4] yuzasidan mustaqil o'qishni yuqori sinflarda Ch.Aytmatov ijodiga bog'liqlikda tashkil etish o'quvchilarning "realizm bilan romantikaning, real ifodalar bilan ramziy usullarning, hayot bilan ertakning uzviy birikib ketganligi"[5]ni anglashlariga zamin yaratadi.

Asar tahliliga kirishishdan oldin *"Har qanday tushga ishonish to'g'ri emas", "Tushlar reallikka yot hodisa"* yoki *"Tushlarda qandaydir ilohiylik bor"* degan bir-biriga zid qarashlar asosida "Aqliy hujum" uyushtirilishi asar g'oyasiga shaxsiy qiziqishlari asosida yondashib, bahs yuritish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Binobarin, muammoni yechishdagi "qiyinchilik o'zlashtirilishi lozim bo'lgan noma'lum narsaning yangiligi va umumlashtirilishi zarurligi, o'quvchi intellektual imkoniyatlari darajasi bilan xarakterlanadi"[6].

Qachonki muammo o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etsa, qiziqish uyg'ota olsagina muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Muayyan vazifalarni savollar ko'rinishida shakllantirish, farazlarni ilgari surish, nazariy jihatdan asoslash talab etiluvchi nuqtayi nazarlar tizimi, muammo sxemasi, modeli, ularni hal qilish yo'l-yo'riqlari muammoli vaziyatning uzviy qismlari sanaladi. Muammo o'qituvchi tomonidan qo'yilib, muammoli tarzda havola etilsa, o'quvchilar mantiqiy fikrlab, masalani hal qilish chora-tadbirlarini belgilaydilar. Bunday vaziyatlarda taqozo etilgan vazifaga ijodiy va qiziqish bilan yondashish faoliyati o'quvchini shu vaqtgacha o'ylab ko'rmagan, o'zi uchun yaxshi tanish bo'lmagan qandaydir yangilikning kashf etilishiga yetaklaydi. Mazkur jarayonda o'qituvchi faoliyatining mazmuni shundaki, u muammoli vaziyatni rejali, maqsadga yo'naltirgan holda ko'ndalang qo'yishi, o'quvchini masalani mustaqil hal qilishga yo'llashi va, o'rni kelganda, yordam ko'rsatishga ham tayyor turishi zarur.

O'quvchilar oldiga *"Oddiy tush voqeasi Santyagoning sayohatga chiqishi uchun bir bahona, xolos"* muammosining qo'yilishi voqeliklarni matnga tayanilgan holda izohlash zaruriyatini taqozo etadi. So'ngra muallif e'tibor qaratgan jihatlar: *muhabbat, omadsizlik va mag'lubiyat, qo'rquv* tushunchalariga izoh berilishi muhim. Zero, bu faoliyat turi vositasida hayotdagi to'siq, g'ovlarni yengib o'tishda, avvalo, xohish, so'ngra iroda bo'lsa yetarli ekanligi mushohada qilinadi. Asarda Santyagoning ikki bora bir xil tush – o'ynab yurgan bolani ko'rishi ma'nosini oydinlashtirish maqsadida mashaqqatli Yo'lni tanlashi majoziy ma'noda tasvirlanadi. Tush hodisasi qiziquvchan yigitning Sahroyi Kabirni kesib o'tib, muazzam Misr ehromlarini ko'rishiga hamda sa'y-harakatlari qismatdan qochib qutulolmasligiga Ishora ekanligiga vosita vazifasini o'taydi.

Bosh qahramon Santyago ehromlar yonida ayovsiz kaltaklardan azob chekarkan, borini tunagan qaroqchilar to'daboshisining ikki yil muqaddam aynan shu joyda o'zi kabi bir xil tushni qayta-qayta ko'rgani, faqat voqealar makon jihatidan farqlanishi haqidagi gap-so'zlari muammoga doir bir qator yechimlarni shakllantiradi. Xuddi shu o'rinda o'quvchilar e'tibori yigit izlagan xazina shaharga ketayotganida qo'ylari bilan kirib tunagan, ombori o'rnida chinor daraxti qad rostlagan vayrona cherkov ostida bo'lib, uni topish uchun dunyo kezishi, mashaqqatlar chekib o'z Taqdirini yaratganiga qaratilsa, muammo markaziga yashirin sir ochilib, asar tuguni yechiladi.

O'zbek xalqida qadimdan kishining tushida o'ynayotgan bolani ko'rishi bu o'ngidagi quvonch, oilaviy xotirjamlik va yaxshi xabar belgisi ekanligi haqidagi ishonchlar mavjud. Shunga ko'ra, tahlil yakunida muallif va xalq orasidagi e'tiqodlarni o'zaro taqqoslab, tush voqeasi Santyagoning o'zi istaganday yashash baxtini

topishi va dunyo kezish orzusi amalga oshishiga omil vazifasini o'tagan, degan xulosaga kelish mumkin.

Demak, izlanish xarakteridagi muammoli tahlil usuli adabiy mavzuni chuqur va bir butunlikda idrok etish, bilish jarayonlarini faollashtirish, yozuvchi uslubi va asarning asosiy xususiyatlarini o'zlashtirish, muammoni shakllantirishga oid ichki va tashqi sabablarni o'rganish, taxminlarni ilgari surish va asoslash, fikrni emas, fikrlashni singdirish, masalani yechishda yangi bilimlarni o'zlashtirish maqsadini amalga oshiradi.

Umuman olganda, muammoli tahlil o'quvchida mustaqil va mantiqiy fikrlash sifatini oshiradi, uning aqliy faoliyatini taraqqiy ettirishga ko'maklashadi. O'qitishning boshqa shakllariga nisbatan ta'limiy muammolarni yechish jarayonida orttirilgan tajribalar hayotda sodir bo'lishi kutiladigan turli vaziyatlarga javob topish ko'nikma va malakasini atroflicha shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Muammoli tahlil olingan yangi axborotni shu xildagi mavjud bilimlar bilan qiyoslab, faktlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish, ma'lumotlarni umumlashtirishga o'rgatadi, fikrlashga, asardagi mantiqni anglashga, muhimi, tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltiradi.

[1]Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 68-bet.
[2]Rahimov B., Suvonov O. Muammoli ta'limni tashkil qilishning ahamiyati // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. № 6. 35-bet.
[3]Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 118-bet.
[4]Paylo Koelo. Alkimyogar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 184-bet.
[5]Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. 144-bet.
[6]Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 134-bet.

Tahlil

Rahimboy JUMANIYOZOV,
filologiya fanlari nomzodi

SUV VA SO'Z SAXOVATI

Tarix taqdirlar bilan tirik. Ulug' mutafakkirlar qismatida muayyan makon, zamon va kasb muhim o'rin tutadi. Bu fikr zabardast shoir, mohir tarjimon, mirob, tarixchi, olim va ulkan davlat arbobi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyga ham daxldor.

U 1809-yilning 17-dekabrida Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida ma'rifatli va badavlat mirob oilasida dunyoga keladi. Otadan erta yetim qolib, amakisi, zamonaning yetuk shoiri, xonning bosh mirobi Munis Avazbiy o'g'li Xorazmiy qo'lida tarbiya topadi.

Undagi iste'dod badiiyatga va ota kasbi miroblikka yo'g'rilgani qismatini belgilagani rost. Uning ilk noyob nazmiy durdonalari ko'pchilikni hayratga soldi. 1829-yilda Munisning 51 yoshida vafot etishi, yosh shoir uchun katta yo'qotish bo'ldi. Ogahiy 20 yoshida Xiva xoni Olloqulixon tomonidan miroblik vazifasiga tayinlanadi. Sabr-u qanoati tufayli elda aziz, ishga fidoiylik, vatan ravnaqi uchun jonini fido etishga bel bog'lagan Ogahiyning miroblik davri 1829–1857 yillarga to'g'ri keladi. Xorazmda ko'pgina yangi kanallar qazilib, suv inshootlari qurilgani, vohaning sug'orish istiqbollari borasidagi muammolarning oqilona hal bo'lishi uning nomi bilan bog'liqdir. Ulug' shoir otdan yiqilib oyog'i jiddiy lat yegach, miroblikdan iste'foga chiqadi va nazm, tarix bitish, tarjimonlik bilan mashg'ul bo'ladi. U 1874-yilning dekabr oyida oltmish besh yoshida vafot etadi va o'zi tug'ilgan Qiyot qishlog'idagi "Mavlon bobo" qabristoniga, amakisi Munis qabriga yonma-yon dafn qilinadi.

U dunyoning yaralishidagi moddiy asoslardan biri – suvga e'tibor bilan qaraydi. Yerning qoni, ekinning joni bo'lgan suv shoirning imkoni va darmoni bo'lgan so'z bilan yonma-yon keladi. Suv tanaga qanchalik oziq bo'lsa, so'z qalbga ham shu darajada malham bo'lishini his etgan shoir ko'nglida har ikkalasi uchun joy ajrata oldi. Suvning yo'nalishini belgilash uchun miroblik salohiyati, so'zning o'rni va mohiyatini his etish uchun donishmandlik qobiliyati zarur. Har ikkalasi ham Ogahiy siymosida uyg'un.

Har bir insonning o'ziga xos-u mos so'zni topib ayta bilish dilni qulf, tilni kalit deb bilgan Ogahiyga o'zi yashagan zamon va makonda oson kechmagan. Uning umr yo'li sakkiz nafar xon hukmronlik qilgan davrlarda kechadi. U 8 xil boshqaruv muhitida ham o'zi tanlagan saodatli yo'ldan og'ishmay yashagan, ishlagan va ijod qilgan.

Adabiyotning ta'sirchan kuchi va poydevori bo'lgan tilga, so'zga bo'lgan shoirning munosabati hamda qarashlari borasida uning she'riyati shohidlik bera oladi. Tomchida ummonni tasavvur qilish, anglash mumkin bo'lganidek, uning ikkita g'azali ham maqsadimizga xizmat qila oladi. Uning so'z radifli g'azallari mohiyat e'tibori bilan ahamiyatli bo'lib, ijtimoiy vosita quroli bo'lgan tilga munosabat vataniy ish va ishq ekanini ifodalay

oladi. U "Ta'viz ul-oshiqin" (Oshiqlar tumori) devonidan o'rin olgan g'azallaridan birida shunday yozadi:

E ko'ngul, odam xayol aylab dema nodong'a so'z,
Chunki ul inson emas, topsang degil insong'a so'z.

So'z ilohiy ne'mat, suvni isrof qilish o'rinsiz bo'lgani kabi uni ham nojoiz qo'llayverish maqbul emas. So'z tinglovchiga samara bersagina, ta'sir etsagina aytish zaruratini shoir kuyunish bilan izhor etadi. Duch kelgan odamga so'z aytish mumkin emas, chunki uning nodoni ham bor. Johilga aytilgan so'z – oqilning iztirobi, besamar harakati. Shu tobda xalqimizning "So'zni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga" degan maqoli ham beixtiyor yodga keladi. Ogahiy so'zni his etmaganga so'zlash devorga gapirganday gap ekanini uqtirmoqchi bo'ladi.

So'zdur inson ko'nglida bir gavhari qiymatbaho
Oni xor etma debon har hushi yo'q hayvong'a so'z.

Ogahiy Navoiyning izidan borib so'zni qimmatbaho gavharga qiyos qiladi. Hazrat Navoiy esa uning muqaddas gavhar ekanini "Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin" deya e'tirof etadi. Bu o'rinda har ikkala adib ham so'zning ilohiyligiga ishora qilib ibtido va intihoga daxldorligini ta'kidlayotgandek bo'ladi. So'zni xor etish hushi yo'q hayvonga so'z aytishga monand ekanini shoir tashbehona ifodalar bilan tasvirlaydi.

Vah na yanglig' bilgusi hayvon guharning qadrini,
Kim topar haz etsa ul kunjora-u somong'a so'z.

Har bir narsaning o'z o'rni, qadr-u qiymati bor. Zar qadrini faqat zargar bilgani kabi hayvon uchun gavharning qadri yo'q. Uning uchun kunjora va somon bo'lsa bas. Bu qaysidir ma'noda qornidan boshqa qarindoshi bo'lmagan loqayd kimsalarga e'tiroz hamdir.

So'zni mafhum aylamak nofahmga mushkuldurur,
Kim bo'lib so'z ahli bag'ri qon-u botg'ay qong'a so'z.

Eng qiyin jihati shuki, aql-idrokdan benasib befahm insonga tushuntirish azob. Chunki uning fahm-farosati o'ziga yarasha. Ogahiy o'z hayoti mobaynida bunday odamlarga ko'p bor uchragan, ularni kuzatgan, holiga achingan. Mehrdan yiroq qahri qattiq inson qalbini yumshatish og'ir ekanini shoir yaxshi biladi.

Sangdil johilga tong yo'q so'z agar qilmas asar,
Chunki ta'sir aylamak mumkin emas sandong'a so'z.

Qalbi tosh johilga so'z aytishdan hech qanday naf yo'qligini ta'kidlagan shoir sandonga qarata aytilgan so'zning ta'siri benafligini tashbehona tarzda muhrlaydi. So'zni zoye qilish vaqtni, umrni zoye qilish demakdir. Aytilgan so'z samara, natija bermasa benishon uzilgan o'qdek taassurot qoldiradi.

Har xasosatshevag'a so'zingni zoyi' qilmag'il,
So'z demak istar esang, de sohibi ihsong'a so'z.

Sohibi ehson muruvvatli va mehrli inson demakdir. Ularning muruvvatida muhabbat, muhabbatida muruvvat bor. Chunki u insonni qadrlar ekan, muloqot mezoni bo'lgan so'zni ham qadrlashni biladi. Faqat ugina so'zni e'zozlaydi.

Bilmagan o'z qadrini ne bilgusi so'z qadrini,
Hayfdur dono demak nodoni beirfong'a so'z.

Ma'rifatsiz kishiga, nodonga so'z aytish hayf, bu harakat donoga xos emasligini uqtiradi shoir. Nodondan ham tubani ahmoq ahlidir. Unga so'z aytish umuman joiz emas. Ushbu hikoyat fikrimizga asosdir. Hazrati Iso tog' tomonga shoshilgancha ketardi. Bir kishi bu holni ko'rib:

– Nima bo'ldi, ey Iso, ortingdan seni kim quvib kelayapti, kimdan qochyapsan? – dedi.

– Bir ahmoqdan qochyapman, o'zimni u bilan suhbatlashishdan qutqaryapman, ket, meni to'xtatma, – dedi Iso alayhissalom. – Men bir marmar toshga duo o'qidim, tosh yorildi, duoyimni bir mayyitga o'qidim, tirildi, lekin ahmoqning qalbiga minglarcha o'qisam ham unga aslo ta'sir qilmadi. Yana o'z holicha, ahmoqligicha qoldi.

– Duoying har joyda ta'sir qilsa-yu, unga kelganda ta'sir qilmasa, buning hikmati nimada?

– Bilki, ahmoqlik illati qahri xudodir, faqat ko'rlik, karlik illatigina qahri xudo emasdir. Alloh ahmoqlarning qalblarini muhrlagandir, ularning quloqlari va ko'zlarida pardalar bordir. Xudoning bu muhrini buzishga hech kim qodir emasdir. Buning chorasi yo'q, uning bir chorasi unga gapirmasdan qochishdir.

Xuddi shunga muvofiq Ogahiy ahmoqqa so'zlash befoyda ekanini g'azal zamiriga singdiradi.

Ahmaq ahli bilmagay so'z ichra o'z behbudini,
O'ziga qilg'ay zarar oxir chekib hazyong'a so'z.

Ikkinchi toifa odamlar ham borki, ularga ham so'z zoye. Ular shaytoniy fisq-fujurni, ko'rolmaslikdek hasadni qurol qilib ish tutuvchi hosidlar, hasadgo'ylardir. Bu toifalar havas o'rniga hasad qiladi, yutuqlaringdan g'azablanadilar. G'iybatga ham moyil bo'ladi, lekin ularning farqi bor. Biri oriq, biri semiz. Hasadgo'y hasad qilib ich-etini kemiradi, g'iybatchi g'iybat qilib semiradi. Afsuski, ular ham so'zni qurol qilib ish tutadi, oqibatda nazarga emas, hazarga duchor bo'ladi. Ularga so'zingni qabul qildirish shaytonga va'z aytish bilan barobar ekanini uqtiradi shoir.

So'z qabul ummidi birla demagil hosidg'akim,
Odami ma'qul eta olg'oy qachon shaytonga so'z.

Ogahiyning so'z va so'zchi mas'uliyati borasidagi fikrlari uning ijodiyotiga singishib ketgan. Oshiqlar muhabbatiga tumor ham so'z bilan ekanini izhor qilish shoir muddaosi. Odatda, tumor bo'yinga bog'lab yuriladi, uning ishq tumori – so'z esa ma'shuqa yuragiga joylanadi. Shoirning so'z, nutq borasidagi fikrlari uning yana bir g'azalida reallashibgina qolmay, balki Navoiy adabiy qarashlari bilan uyg'unlashadi ham.

Yorning lutf-u iltifoti misoli bol bo'lib, undan ayrilish holati va iztirobini shakkar so'zdan ajralgan to'tiga o'xshatilishi ham fikrni tashbehona ifoda etish ilinji bilan bog'liq. Insonning ahvolotini so'ziga qarab bilish zarur. Chunki inson qalb-u qiyofatida yashiringan dard aytadigan so'zida aks etadi.

Shoir so'zni g'oya bayrog'i, mafkura mayog'i, ta'lim sabog'i o'rnida ko'radi va e'zozlaydi.

Shoir nazdida haqoratomuz so'z kishiga obro' keltirmaydi. So'zni sabab qilib izzat istash ham bema'nilik. Chunki nutqiy va xulqiy madaniyatgina insonni ahillikka yetaklaydi. O'zlik va so'zlikning qadriga yetish e'tibor va mas'uliyatni talab etadi. Izzattalablik nihoyasi haqorat va ta'naga aylanishi mumkin. So'z qadrini inson o'z qadri kabi bilishi kerak. Uning mohiyatini esa hayvon his eta olmasligini kuyunish bilan ta'kidlaydi.

Shoir so'ziga qarab insonning kimligini bilish mumkinligini chuqur idrok etadi. O'zingga qarab kutarlar, so'zingga qarab kuzatarlar, degan xalq naqlini eslatgandek bo'ladi adib. So'zni bilish va uni o'z o'rnini topib aytish, nishonga urish o'ziga xos did va fahm-farosatni anglatadi. So'zni muqaddas tutish, uni mehrigiyo, ko'zga to'tiyo qilishni Ogahiy tashbehona ifoda bilan obro' tojiga, gavharga qiyos qiladi. Qahri qattiq, sangdil insonlarning qalbini so'z yumshata olmasligidan noliydi.

Debon har sanggi dilg'a, Ogahiy, sindurmag'il so'zni,
Ki inson obro'yi afsarig'a keldi gavhar so'z.

Ogahiyning so'z, nutq borasidagi adabiy qarashlarini xulosa o'rnida shunday izohlash mumkin. Ogahiy:
– so'zning kuchi uning o'rnida qo'llanilishida ekanini;
– so'zning xosiyatli, nutqning mohiyatli bo'lishini;
– beta'sir so'z bamisoli tuzsiz taomga o'xshashini;
– inson nutqi uning xulqining oynasi ekanini;
– so'zni kimga, qachon va qancha aytish zaruriyatini ta'kidlaydi.

Adibning barcha asarlarini kuzatishning o'ziyoq uning so'zni muqaddas tutish, o'rinli qo'llash, beta'sir so'zning foydasiz ekani borasidagi mulohazalari qat'iyligini tasdiqlaydi.

Doniyor YULDASHEV,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi,
filolologiya fanlari nomzodi

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA'LIMIDA ATOQLI OTLAR ANTROPOSENTRIK TALQINIDAN FOYDALANISH

Bugungi kunda umumta'lim maktablari dasturiga ham antroposentrik paradigma asosida nazariy ma'lumotlar kirib kelmoqda. Shu bilan birga ushbu yo'nalishdagi tadqiqot natijalari, boy materiallardan adabiyot, tarix, geografiya kabi fanlar doirasida ham foydalanish mumkin. Biz shu o'rinda Alisher Navoiy ijodi misolida maktablarda atoqli otlar antroposentrik talqinidan foydalanish muhim ijobiy ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratdik.

Alisher Navoiy – dunyo ilm-fani, madaniyati rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk alloma. Adibning so'z yoki nom tanlash mahorati o'zidan oldingi ustozlar hamda keyingi salaflarnikidan o'zgacha. Navoiy asos ma'no (motivativ ma'no) va so'z-nomning mohiyatan ham, mantiqan ham chambarchas bog'liq bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan, nazarimizda. Ana shunday o'rinlardan biri "Mahbub ul-qulub"ning "Vuzaro zikrida" deb nomlangan beshinchi faslida kuzatiladi. Unda *vazir* so'zi haqida quyidagicha fikr bildiriladi: "Vazir vizrdin mushtaqdur va bu fe'l aning zotig'a ahaq va alyaqdur"[1]. Vazir so'zining mumtoz lug'atlardagi sharhlariga e'tibor qaratsak, jumladan, "G'iyos ul-lug'ot"da bu so'zga og'irlik va og'ir yuk; yukni yelkaga olish; gunoh; qurol[2] tarzida sharhlanganini ko'ramiz. Ko'rinadiki, qayd etilgan ma'nolar bir-biri bilan mantiqan bog'liq, ya'ni og'ir yuk semasi uning gunoh ma'nosi shakllanishi uchun asos bo'lgan. Vazir so'zi bu holda: 1) birovga yuk ko'tarishib yuboradigan kishi (G'iyosiddin Muhammad vazir saltanat yukini ko'tarishda shoh vazir sanaladi, shuning uchun bunday nomlangan, deydi); 2) gunohkor. Alisher Navoiyning mahorati shundaki, "vizr" so'zining qaysi ma'nosi ekanini qayd qilmasdan, "vazir" so'zi uchun uni eng haqiqatga yaqin (ahaq) va eng loyig'i (alyaq) deydi. Tabiiyki, bunday og'ir mas'uliyatni uddasidan chiqqanlar uchun birinchi va aksi bo'lsa, ikkinchi ma'no nazarda tutiladi.

Tilshunoslikda Alisher Navoiy asarlari onomastikasi masalasi atroflicha o'rganilgan[3], lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, muayyan bir tadqiqot doirasida bu nihoyatda keng ko'lamli mavzu to'la yechim topishi imkonsiz. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlaridagi muayyan onomastik birliklar xususida alohida maqolalar yuzaga kelgani ham ajablanarli emas.[4] Muhimi, Alisher Navoiy asarlaridagi 1076 ta antroponim B.Bafoyev va N.Husanov tomonidan to'planib, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"dan joy olgan.[5] Keyingi davrda tilshunosligimizda ismlar lingvopoetikasi, uslubiy imkoniyatlari keng tahlil qilinayotgani e'tiborga loyiq.[6]

Alisher Navoiy o'z asarlarida har bir antroponimni har qaysi o'rinda g'oyat katta e'tibor bilan qo'llaydi. "Farhod va Shirin" dostonining bir bobi "Shahzoda Farhodqa "Al-asmou tanzilu minassamo" hukmi bila ishq sipehri avjidin nomdorliq nasib bo'lmoq va shavq gulshanida g'uncha erkanda guldek ko'nglaki chok, balki bulbuldek ko'ngli g'amnok bo'lmoq va dard muallimi maktabida ishq kutubin lafz-balafz, balki muhabbat avroqin harf-baharf o'qumoq va dilovarliq maydonida shijoat varzishini qilichdek tez etib o'qdek tuz etmak va zamon kinavarlaridin xuddek saromad va nayzadek sarafroz bo'lmoq" deb nomlangani bejiz emas.[7]

Alisher Navoiy asarlarida zarur o'rinlarda ayrim antroponimlarga izoh berilgani, mumtoz filologiya istilohi bilan aytganda, ularning "vajhi tasmiya" – nomlanish sabablari berilgani diqqatga loyiq. Masalan, "Nasoyim ul-muhabbat"-

da Molik Dinor haqida so'z ketar ekan, uning nima uchun Dinor laqabini olgani izohlanadi.[8] Shu o'rinda Navoiy ikki sababni ham bayon qilib, o'quvchini qanoatlantiradi. Yana bir misol: asarda Habib A'jamiy haqida gapirar ekan, uning Qur'on tajvidida mohir bo'lmagani uchun A'jamiy (g'ayri arab) deyilganini yozadi: "Va ani "A'jamiy" aning uchun derlar erdiki, Qur'onni durust o'quy olmas erdi, ammo sohibkamollar aning qoshida tifli maktab erdilar"[9].

Shuningdek, shu asarning o'zida Shayx Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Shayx Luqmon Saraxsiy[10]kabi ko'plab shayxlarning laqab va taxalluslari xuddi bugungi kundagidek "nom – nominator – nominatsiya" tamoyillari asosida izohlangan. Ana shu ma'lumotlarni umumlashtirish atoqli otlar antroposentrik talqinida muhim bo'lgan nomlash tamoyillarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Nasoyim ul-muhabbat"dagina emas, Alisher Navoiy deyarli har bir asarida bu kabi muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, "Xamsat ul-mutahhayirin"da Jomiy taxallusining tanlanish motivi uning o'z qalamiga mansub qit'a orqali izohlanadi. Qit'aning nasriy tarjimasi: "Tug'ilgan joyim Jom va qalamim tomchisi Shayx ul-islom (Ahmadi Jomiy nazarda tutiladi) jomidan bir qatradir. Binobarin, she'rlar daftarida har ikki ma'noda (shoir bu yerda ikki jihatga: ham Ahmadi Jom ta'limotining unga ta'siri, hamda u siymoning ham Jom viloyatida tavallud topganiga ishora qilmoqda) taxallusim Jomiydir"[11].

Alisher Navoiy o'z asarlari qahramonlariga ism tanlash orqali ularning har biriga alohida badiiy, ayni paytda ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy "vazifa"lar yuklaydi. Bu fikr *Suhayl (porloq yulduz), Mehr (quyosh), Jobir (jabr qiluvchi – zolim), Muqbil (qobil), Mudbir (dabir – baxtsiz)* kabi ko'p sonli antroponimlar misolida ham o'z isbotini topishi mumkin. Alisher Navoiyning bir asarida ilgari surilgan g'oyalarning uzviy davomini ikkinchi bir asarida ko'rishimiz mumkin bo'lgani kabi, bir asar qahramoni nomi "osti"ga yashiringan g'oya boshqa bir asarida zuhur qiladi. Masalan, *Mudbir* (baxtsiz, ishi orqaga ketgan, idbor egasi) nomini Alisher Navoiyning o'zi hammadan yaxshiroq izohlaydi. Birgina "Mahbub ul-qulub"dan misollar: "(Zolim podshohlar nazdida, e'tibordan soqit qilmaylik) Yoruq kunni tiyra tun desa, Suho ko'runadur demagan *mudbir*"; "(zamonasoz odamlar nazdida) Ming orzulari butub, kishi bir uzr arog'a solsa, ayoqdin bosh *mudbirsen*". Hazratning mashhur ruboiysidagi:

El qochsa, biravdin el yamoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni, –

satrlari ham mohiyatan *Mudbir* izohlaridan biridir.

Navoiy g'azaliyotida ham ko'plab badiiy san'atlar, nozik ifoda va kechinmalar antroponimlarga bog'lanadi. Birgina "Badoe' ul-bidoya" hamda "G'aroyib us-sig'ar"dan 2-raqam bilan joy olgan g'azal misolida ko'ramiz:

... Ne ishga bo'ldi beorom ko'zgu aksidek Majnun,
Yuzi ko'zgusida aksingni ko'rguzmadi Laylo.

Baytda Laylo antroponimi apellyativining lug'aviy ma'nosiga ishora qilinmoqda.

Nedin yuz gul ochar ishq o'tidin bulbul kibi Vomiq,
Yuzungdin gar uzori bog'ida gul ochmadi Uzro?

Uzro antroponimi apellyativining lug'aviy ma'nosi "oqlamoq (tarafdorlik qilmoq)" ma'nosidagi عذر *'azaro* fe'li asosida shakllangan.[12] Uning tilimizdagi *uzr* so'ziga o'zakdoshligi ayon. Baytda tarixdagi arablarning *Banu Uzra* qabilasi bilan bog'liq holda shakllangan uzraviylikka ishora ham bor. Arab tilida beg'araz muhabbat "hubbu-l-uzro" deyilishi ham bejiz emas. Baytda *uzor* va *Uzro* orqali ishtiqoq; *Uzro* (bokira) va *gul ochmadi* hamda *gul* va *bulbul* orqali tanosub; "yuz gul ochar" birikmasidan iyhom (gul yuz ochadi; (Vomiq) yuzlab gul ochadi) *yuz* va *uzor* orqali tarodif, butun bayt mazmunidan tajohuli orifona yuzaga chiqmoqda.

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,
Nedin bas la'l o'lur Farhodning qon yoshidin xoro?

Baytdagi "Shirin labi" birikmasini eski o'zbek tili imlosi xususiyatlaridan kelib chiqib, "shirin labi" tarzida ham tushunish mumkin va bunda iyhom (shubhaga solish) san'ati yuzaga keladi. Shuningdek, "la'l" va "lab" orqali tanosub, "la'l" va "xoro" (xarsang) orqali tazod yuzaga kelmoqda.

Jamoling partavidin sham' o'ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o't ichra o'zin solur Xaliloso?

Baytda Ibrohim Xalilullohning Namrud tomonidan o'tga tashlanishi voqeasiga ishora borligi uchun talmehdan tashqari iqtibosning bir ko'rinishi ham mavjud. Ko'rinadiki, Navoiy har bir so'zga, jumladan, har bitta antroponimga juda ehtiyotkorlik bilan, to'g'rirog'i, alohida ehtirom va muhabbat bilan yondashadi.

Fikrimizcha, Alisher Navoiy asarlaridagi antroponimlarni bayt mazmunidan, muallif shaxsiyatidan tashqari tahlil qilish mumkin emas. Chunki adib asarlaridagi ko'pgina ismlarning yashovchanligini ta'minlagan omil bevosita muallif va u tanlagan antroponimlarga munosabat bilan izohlanadi. Ko'plab antroponimlarning antroposentrik talqinida betakror ijodkor asarlarining o'rni beqiyos. Alisher Navoiy nazmi-yu, dostonlaridagi poetonimlarning antroposentrik talqini Navoiy dahosini anglash sari yana bir qadam qo'yishimizga imkon beradi.

[1]Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. O'n uchinchi tom. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 13-bet.
[2]G'iyosiddin Muhammad Jaloliddin Sharafiddin Rampuriy. G'iyos ul-lug'ot. Jildi duvvum. Bo havoshiy va izofot bako'shishi Dabiri Siyoqiy. – B. 514.
[3]Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Filol. fan. nomz. dis. avtref. – Toshkent, 1994. 24-bet.
[4]Sh.Yoqubovning Farhod, M.Abdulxayrovning Nosut nomlari xususidagi maqolalari.
[5]Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4-tom. – Toshkent: Fan, 1985. 268–311-betlar.
[6]Husanov N. O'zbek antroponimlari tarixi. – Toshkent: Navro'z, 2014.
[7]Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlovchi P.Shamsiyev. – Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. 34-bet.
[8]Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. 26-bet.
[9]Ko'rsatilgan manba. 24-bet.
[10]Ko'rsatilgan manba. 208-, 287-, 300-betlar.
[11]Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 15-tom. – Toshkent: Fan, 1999. 6-bet.
[12]An-na'im. Arabcha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. 529-bet.

Munira XUDOYOROVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasi doktoranti

NAVOIY QIT'ALARI BADIIYATI

Badiiy tasvirning betakror ustasi Alisher Navoiy ijodida muhim o'rin tutuvchi qit'a janri va ularda qo'llangan badiiy tasvir vositalari tahliliga bag'ishlangan qator risola va maqolalarda shoir asarlari badiiyati haqida xilma-xil fikr-mulohazalar mavjud. Jumladan, adabiyotshunos olim Rahmonqul Orzibekov Navoiy qit'alarining yuksak ma'nodorligi, falsafiyligi bilangina emas, badiiy tomondan ham go'zal va mukammalligi bilan ajralib turishini ta'kidlab, "... Alisher Navoiy lirik hissiyotni to'laroq va mukammalroq ifodalashda, qit'alari ta'sir kuchini oshirishda talmeh, tajnis, tazod, mubolag'a san'atlaridan, xalq og'zaki ijodiyotidan ustalik bilan foydalanadi"[1], deydi. Olim badiiy tasvir vositalari orasida, eng avvalo, talmeh san'atini tilga oladi. Talmeh mumtoz ijodkorlarimiz eng ko'p murojaat qilgan badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lishi bilan birga ijodkorning din, tasavvuf, tarix va xalq og'zaki ijodidan qay darajada xabardorligini ham belgilab beradi.

Badiiy san'atlar mohiyat e'tiboriga ko'ra uch katta guruhga bo'lib o'rganilgan. Talmeh (*arab.* chaqmoq chaqilishi; bir nazar tashlamoq) ma'naviy san'atlar toifasiga mansub bo'lib, u "shoirga bir ishora bilan chuqur ma'noni ifodalash imkonini beruvchi san'atdir. Istiora, tashbeh kabi san'atlardan farqli o'laroq, ijodkorga tarixiy yo afsonaviy voqealarga, masallar, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini mo'jaz holda kuchaytirish uchun imkoniyat tug'diradi"[2].

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibidagi devonlardan joy olgan qit'alarda talmehning go'zal namunalariga duch kelamiz. "G'aroyib us-sig'ar" devonida "Tavakkul sifati-yu betavakkullar mazammati" sarlavhali 8-qit'ada talmeh sifatida keltirilgan Qorun nomi falsafiy-ijtimoiy mavzudagi qit'aning mohiyatini ravshanlashtirishga xizmat qilgan.

Tavakkulni ulkim qo'yib xotirig'a
Tushar shoh ollida qullug' havosi.
Nasibi aning bir oyoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.
Biravkim, bo'lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga kerakdur qazonning qarosi.[3]

Tavakkul – Parvardigorga dilbastalik va komil e'timod-ishonch. Bu tasavvufda ma'rifatning kamoliga bog'liq maqom bo'lib, valiylarga nasib qiladi. Bu toifaning to'la ta'rifini Navoiy "Mahbub ul-qulub"da beradi: "Tavakkul ahlikim, maqsad vodiysig'a qadam qo'yubdurlar yo'l zodi haq xoni ehsonidin bilibdurlar. Tavakkuli durust elning yemagi haq xoni in'onidin va ichmaki aning sharbatxonasi jolidin va kiymagi aning xizonayi ehson ikromidin". (486-bet) Navoiy ana shunday ehsonning oldida turib qanoatni unutgan kimsalarni Qur'oni Karim orqali adabiyotimizga kirib kelgan Qorun ("Qasos surasi", "Ankabut surasi"da Qorun haqida gap boradi.) timsoli vositasida ogohlantiradi.[4] Bu timsol unga berilgan davlatning Alloh ehsoni ekanligini rad etganligi va kibrga berilganligi uchun behisob xazinasi, mol-mulki bilan yer yutishiga sabab bo'lgan va xuddi shu jihatiga ko'ra adabiyotimizda o'zining qat'iy o'rniga ega. Shoir shohning oldida ori va g'ururini paymol etgan kimsalarning maqsadlari Qorun ganji bo'lsa-da, nasibasi "bir ayoq osh"dan oshmasligini aytish bilan birga bundaylarga sharmandali jazoni ham loyiq ko'radi: "yuziga keraktur qazonning qarosi".

Navoiyning qit'alarini "turmush bilan to'qnashuvdagi ilk taassurotlari mevalari"[5] sifatida baholagan olim Abduqodir Hayitmetov ularning mavzu jihatdan rang-barangligidan kelib chiqqan bo'lsa, ajab emas. Navoiy o'zi qatnashgan yoki guvohi bo'lgan voqea-hodisalarni eng avval qit'ada darj etib, yaratilajak katta adabiy janrlarda ulardan asos sifatida foydalangan. "Navodir ush-shabob" devonining "Pahlavon motamining sarguzashti va manzuri sabzxat firoqining sarnavishti" sarlavhali 38-qit'asi shoirning ota darajasida ulug'lagan insoni xotirasiga bag'ishlab yozilgan "Holoti Pahlavon Muhammad" yodnomasining yaratilishiga zamin bo'lgan bo'lishi mumkin.

Pahlavon erdi mening yorim-u bir sho'x anisim.
Biri o'ldi-yu biri itti, ishim bo'ldi taassuf.
Roviyo, hajrlaridin manga yo'qdur kecha uyqu,
Qissai Hamza degil gohi-yu gah qissai Yusuf.
(693-bet)

Hazrat Navoiy fano tariqida yagona, sur'at va siyratda benazir, millat va dinning quyoshi ta'riflari bilan e'tirof etgan ustozi, do'sti va muhosibi Pahlavon Muhammad bilan munosabati haqida yodnomada shunday yozadi: "...qirq yil bir meningdek xudroy va besarupoy oshuftasori parishon ro'zg'or kishi bila muhosiblig' qilg'ayki, xotirg'a kelmaski, andin g'ubore o'ltirmish bo'lg'ay va ko'ngilga yetmaski, hargiz andin ko'ngilg'a ozore yetmish bo'lg'ay. Balki andoq nisbat qilmish bo'lg'aykim, kundan kunga muhabbat sarrishtasi mahkamroq va mavaddat qoida va tariqi muakkad va mustahkamroq bo'lmish bo'lg'ay". (25-бет) Shunday yaqin insonidan ayriliqdagi uyqusiz kechalarida roviyga murojaat qilib, bu holatning Hamza va Yusufning qissalarini tinglaganda ham o'zgarmasligini ta'kidlaydi. Shoirning ko'p yillik qadrdonidan judolik alami darajasini talmeh sifatida keltirilgan Hamza va Yusuf qissalariga ishoradan ham sezsa bo'ladi. Hamza – tarixiy shaxs. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning o'zlaridan ikki yosh katta amakilari bo'lib, Islom dinini birinchilardan bo'lib qabul qilgan va bu yo'lda payg'ambarimizni hamma vaqt qo'llab-quvvatlagan. "Rasulullohni eng ko'p g'amga solgan va uning eng ko'p ko'zyoshini to'ktirgan" og'ir jinoyat Uhud jangida

yuz bergan edi. Jangda Hamza Vahshiyning qilichidan halok bo'ladi. Qotil ko'krak qismidan qornigacha yorib, Hamzaning jigarini sug'urib oladi. Eng dahshatlisi esa Hind tomonidan amalga oshiriladi. "Qahramon Hamza, janglarda ajal shamolidek esib, raqiblarga qiron keltiradigan mardi maydon Hamzaning burni va quloqlarini, jinsiy a'zosini kesib oladi. Ularni maydalab ipga tizib, bo'yniga munchoq, ikki qo'liga ikkita bilakuzuk, oyoqlariga halhal qilib taqib oladi"[6]. (691-bet) Rasulullоh (s.a.v.) umrlarining oxirigacha bu qayg'uli xotirani unuta olmaganlar.

Mumtoz adabiyotimizda an'anaviy go'zallik timsoli sifatida o'zining qat'iy o'rniga ega Yusuf obrazi va u bilan bog'liq qissa ko'pchilikka ma'lum. Yusufning ko'rgan tushi ta'birini bilgan o'gay akalari o'ynab kelish bahonasida uni o'tloqqa olib chiqib, o'lguday do'pposlaydilar. Otalaridan Yusuf uchun olgan taomlarni esa itlarga yedirib, o'zini Ahzan qudug'iga tashlashadi. O'g'illaridan Yusufni bo'ri yeb ketganligi haqidagi yolg'on xabarni eshitgan Yaqub alayhissalom hushidan ketadi. Uzoq vaqt behush yotadi. Hushiga kelib ko'p yig'laganidan, ko'zlari ojiz bo'lib qoladi. Bu ikki hasratli qissadan Navoiy o'z g'am-u hasratini ifodalashda o'rinli foydalangan.

Ma'lumki, "Xazoyin ul-maoniy" devoni tarkibidagi qit'alarning barchasi sarlavhalangan. Sarlavhalar mazmunning manbayi, qit'aning yozilishiga turtki bo'lgan sababga, aytilayotgan g'oyani izohlash va ta'kidlashga xizmat qiladi. Shunday qit'alar borki, ularda "sarlavha bilan she'r bir-birining aynan takrori emas, balki ularning har biri o'ziga xos mustaqillikka ega"[7]. "Badoe' ul-vasat" devonidagi "Pokdomon zuafokim etaklaridin yurunni eranlar sajjodasi mehrobig'a tiroz qilsa sazodur va ul mehrobda namoz qilsa ravodur" sarlavhali qit'a ana shunday qit'alardan biri. Sarlavhadan pokdamon ojizalar – ayollarning etaklaridan olingan ipdan eranlar joynamozining mehrobiga bezak berib ziynatlasa va bu joynamozni mehrob o'rnida ko'rib, namoz qilsa arziydi, degan fikrni anglaymiz. Nazmiy qism esa nasr bilan yaxlitlik, bir butunlikni ta'minlaydi:

Pokdamon zuafodin neki zoyanda bo'lur,
Ruhparvardur-u jonbaxsh, zihi xilqati pok.
Ko'rki, Maryamg'a o'g'ul Isoi Ruhulloh erur.
Ursa bu holg'a nopok ulus ta'n ne bok?

(691-bet)

Mumtoz adabiyotimizda "ruhparvar", "jonbaxsh" sifatlashlari Iso alayhis-salomning nomlari bilan birga tilga olinadi. Pokdamon ayollardan tug'ilgan har bir go'dak ham payg'ambartabiyat. Keyingi baytda Maryam va Isoning hayotlaridagi voqeaga qilingan ishora orqali shoir o'z fikriga zarracha shubha qoldirmaydi. Bulardan tashqari, Navoiy qit'alarida Xizr, Hotam, Jamshid, Iskandar kabi tarixiy, diniy va xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq, hudhud, Anqo kabi afsonaviy timsollar vositasida yaratilgan talmeh san'atining ko'plab namunalariga duch kelamiz. Qit'alar shoirning umri davomida yaratilgan. Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqovning fikricha, bu san'at boshqa she'riy san'atlar qatori eng oldin qit'alarda ishlatilganligi haqiqatga yaqindir.

---

[1]Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. 26-bet.
[2]Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. 198-bet.
[3]Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami.10 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. 709-bet. (Keyingi misollar ham ushbu manbadan olinib, sahifasi ko'rsatiladi)
[4]Bu haqida qarang: Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. 1-kitob. – Toshkent: Movarounnahr, 2005.
[5]Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 62-bet.
[6]Ahmad Lutfiy. Saodat asri qissalari. 3-kitob. – kitobxon.com.ru
[7]Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.

Vaziraxon AHMEDOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

ERKIN A'ZAM DRAMALARIDA OBYEKTNING PLASTIK OBRAZI

(*"Tanho qayiq" kinorivoyati misolida*)

O'zbek kinodramaturgiyasining keyingi rivojida Erkin A'zam kinoqissalari muayyan o'rin tutadi, deb bemalol aytish mumkin. Adibning "Jannat o'zi qaydadir?", "Shajara", "Farrosh kampirning tushi", "Xonadon egasi", "Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi" nomli pyesalari respublika teatrlarida sahnalashtirildi. Uning "Chantrimore" (1990), "Piyoda" (1996), "Dilxiroj" (2001), "Erkak" (2004), "Zabarjad" (2007), "Suv yoqalab" (2008), "Jannat o'zi qaydadir?" (2008), "Qarzdor" (2010), "Parizod" (2012) kabi o'nlab asarlari kinolashtirildi. Yuqorida sanalgan asarlarning ba'zilari respublika kinoteatrlarida muvaffaqiyatli namoyish etilgan bo'lsa, ayrimlari hatto xalqaro maydonlarda ham haqli e'tirof etildi.

Albatta, bunday yutuqlar E.A'zamning jahongashtaligiga sabab bo'ldi. Kinodramaturg: *"... ana shu anjumanlar ham kaminaga bir kinodars bo'lgan"*[1], deya e'tirof et-

ganiday, jahon bo'ylab ijodiy safarlari jarayonida E.A'zam sohaning nozik asrorini o'rgandi, ko'plab do'stlar orttirdi. Kinofestival saboqlari esa E.A'zamning Temurmalik Yunusov va Yusuf Roziqov kabi o'zbek kinorejissorlaridan o'rganganlarini yanada to'ldirdi.

Adib o'z ijod jarayoni xususida to'xtalib: *"... men ularga oz-moz kino tusini berib, dangal kinoqissa atab, ammo-lekin boshidanoq kitobga mo'ljallab yozaman: kino qilinsa qilinar, bo'lmasa o'qilar-ku" (6-bet),* deydi. Bu hol E.A'zam asarlarida obyektning plastik obrazi yaratilgani, ya'ni ularda ijodkor shaxsiyati obyektga singdirib yuborilgani, teatr va kinoga asos bo'lgan bu badiiy matnlarni o'qib qabul qilish ham mumkinligi haqida so'zlash imkonini beradi.

Masalan, Erkin A'zamning "Tanho qayiq" kinorivoyati qirq bitta mo'jaz fasldan iborat mozaika bo'lib, tarkibiy tuzilishiga ko'ra muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Biz bu asarning badiiy matni haqida so'zlar ekanmiz, film yaratishning ishlab chiqarish emas, balki ijod tomonigina nazarda tutamiz. Teatr va kino uchun yozilgan ssenariy negizida yaqin o'tmishda sodir bo'lgan Orol fojiasidek global muammo tursa ham, u real borliqning aynan o'zini aks ettirmaydi. Aniq hujjatlilikka ham da'vo qilmaydi.

Binobarin, "Tanho qayiq" tabiat va jamiyat muammosini ifodalagan tarixiy mavzudagi ssenariy bo'lishiga qaramay, sof ilmiy-ommaviy asar ham emas. Bu hol adibning nuqtayi nazari, milliy hayotni qanchalik chuqur bilishi, poetik mahorati, uslubi, qahramonlar ichki dunyosi (milliy qiyofasi, fikr-o'ylari, ruhiy-psixologik dramasi)ni qanday ochib bera olgani maslalarini tahlil va tadqiq etish ssenariyning badiiy qimmatini baholashga to'siq bo'lolmaydi.

Odatiy shakl mazmunlardan qochishga uringan va tomoshabinni jalb qilishning yangi yo'llarini izlagan E.A'zam mazkur asarda ijtimoiy-ma'rifiy muammolarni shoirona romantik nigoh bilan kuzatdi. Tarixiy mavzuga zamonaviy talqinni olib kirish uchun goh folklor va mumtoz adabiyotga xos badiiy ifoda usullariga, goh ijtimoiy-falsafiy talqinlarga murojaat qildi.

Jumladan, asar janri "kinorivoyat" tarzida belgilanishidayoq xalq og'zaki ijodining "rivoyat" janri tajribalari ijodiy o'zlashtirilganiga ishora qilingan. Asar muqaddimasi xalq rivoyatlari singari hikoyachi bayoni bilan boshlanadi. Garchi asarda xalq qahramonlari yoxud real tarixiy shaxslar ishtirok etmasa ham, uning bosh g'oyasi asosida tarixiy voqelik yotadi. Orol fojiasining asl sabablari izlanadi. Odob-axloq, elsevarlik, imon-e'tiqodning ideal me'yorlari tashviq etiladi. Qistirma epizod sifatida kiritilgan pir va oqibatli murid haqidagi rivoyat ham xuddi mumtoz adabiyot an'analaridagi singari kinorivoyat mazmuniga singdirilib, Haqning ulug' dargohidan umidvor Orol bobo ruhiyatini teran e'tiqod va ko'ngil odami sifatida ochishga xizmat qildiriladi. Boboni qo'llab turuvchi noma'lum otliq obrazi ham g'oyib bir banda sifatida talqin qilinadi. Bunday holning ota-bola dialogiga ko'chishi kinorivoyatda fikr-qarashlar ziddiyatini yorqin namoyon qiladi:

Qalimbet: – Ie, ie! Hajga ham-a? Ota, o'ylab gapiryapsizmi o'zi? Siz bormay kim borsin hajga?! Birovga yomonlik qilmagan bo'lsangiz, xiyonat qilmagan bo'lsangiz, hech kimning mol-u joniga ko'z olaytirmasangiz...

Orol bobo: – (erib ketib). Rosti-ku, bir-ikki daf'a chog'lanib ham ko'rganman, o'g'lim. Yurak dov bermadi-da: o'zing kim bo'psan-u, hajni orzu qilsang deganday. Lekin ichimdagi bir sirni aytsam: ba'zan xuddiki borib kelganga ham o'xshayman! Niyati bilan-da...

Qalimbet: – (jonlanib) Ana endi chinakamiga borib kelasiz, otaboy! Hamma hujjatlaringiz tayyor!

Orol bobo: – (og'zi ochilib). Iya, bir og'iz oldimdan o'tsang bo'lardi...

Qalimbet: – O'tsam-o'tmasam, endi masala hal! Azza-bazza bittasining o'rniga gaplashganman-a!...

Orol bobo: – Nima? Birovning o'rniga?! (U balodan qochgan kabi, ikki qo'li oldinda, tislanib). Bormayman! O'ylab qildingmi o'zi shu ishni, Qalimbet! Gunoh-ku bu axir, gunohi azim! (195-bet)

Adabiy-badiiy matn tarkibidagi yuqoridagi muloqot (dialog)dan ko'rinadiki, Orol bobo nainki personajlar e'tirofiga ko'ra, balki niyati, so'zi va amalining pokligiga ko'ra ham teran e'tiqod odami sifatida o'z jigarbandi Qalimbet va shu tipdagi qavmdan keskin farqlanadi.

Shu ma'noda, Orol boboning dengizni o'z asliga qaytarish yo'lidagi yuksak orzu-intilishlari ham bir jihatdan, E.A'zamning tabiatni asrash muammosiga e'tiqodiy mazmunda javob izlashi, Qur'oni Karim oyatlari va Islom ta'limotlariga murojaat qilishidan oziqlanadi. Zotan muqaddas kitobning "Anbiyo" surasi 30- oyatida: "... va suvdan har bir tirik narsani qilganmiz", deyilsa, "Nur" surasining 45- oyatida: "Alloh hamma jonivorni suvdan yaratdi", deya marhamat qilinadi.

Ayni masala xususida bahs yuritgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf suv ne'mati va uni isrof qilmaslik haqidagi hukmlar xususida to'xtalib: "Islom ummatining o'tgan avlodlarining suvga bo'lgan e'tiborlari shu darajaga yetganki, hatto ulamolarimiz fiqh kitoblarida: "Dengizdan olganda ham suvni isrof qilmaslik haqida" degan boblar ochganlar"[2], deb yozadilar.

Demak, kinorivoyat yozilayotgan paytda E.A'zam suv Allohning ulkan ne'mati ekani, uni isrof va iflos qilmaslik haqidagi islomiy ko'rsatmalar bilan tanishgan va muhaddislarning rivoyatlarini imkon qadar xarakterlar tiynatiga singdirishga intilgan. Orol boboning zolim qavmdan yiroqroq bo'lishga intilishi, hayotini go'zal insoniy sifatlar bilan ziynatlashi, niyat xolisligida hikmat ko'p ekaniga astoydil ishonishi iymoni but, qalbiy ibodatdagi zot ekaniga dalolat bo'la oladi.

Muallifning voqea davomidagi sahna harakati va nutq jarayoni bilan bog'liq tafsilotlarga bergan izohlari – remarkalar ham sodir bo'layotgan voqelik mohiyatini tasavvurda jonlantirishga xizmat qiladi. Zotan biz remarkalar orqali E.A'zam nigohi o'sha voqealarni qanday "ko'rdi" va personajlarning gap-so'zlarini qanday "eshitdi", degan savolga ishonchli javob topamiz va qisman unga ergashamiz. Jumladan, farzandining haj safari haqidagi taklifi va otasiga bo'lgan e'tiboridan Orol bobo dastlab har qanday ota singari "erib" ketsa, o'z ichki dardlari, xolis niyatlarini bayon qilganida "jonlanib" ketadi. Qalimbet uning bir og'iz fikrini so'ramay taqdirini hal qilganidan "og'zi ochilib" qoladi. Bir musulmon bandani zor qaqshatib ham Qalimbetning bir tuki o'zgarmay turishi – mo'minlarni muqaddas ibodat safariga jo'natishga ham tanish-bilishlik aralashganidan xabar topganida: "*U balodan qochgan kabi, ikki qo'li oldinda, tislanib*" kabi izoh beriladi. Yuqoridagi singari vaziyat-holat talabiga ko'ra sodir bo'luvchi o'zgarishlar Orol boboning ovoz toni, ohangi, tempi, pauzalari, tana holati, yuz-ko'z,

qo'l harakatlari ifodasi, imo-ishoralari hamda keskin qiliqlari orqali ko'rsatiladi. Shubhasiz, E.A'zam bunday tafsilotlarni berish orqali bir jihatdan, sahnaviylikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan qahramon xarakterini ichki va tashqi harakat uyg'unligi jarayonida ko'rsatishga erishadi.

Guvohi bo'lganimizdek, kinorivoyatda umrining bolalik ("Orolbola"), o'smirlik ("Oroltoy"), yigitlik ("Orolboy") damlarini ortda qoldirib, endilikda hayotining keksalik bosqichiga qadam qo'ygan shaxs ("Orol bobo") hayoti tasvirlangan. Asl ismi unitilib ketgan, qadrdon dengizidan ayrilgan baliqchi Orol bobo sevimli qayig'ini uyining tomiga chiqarib, e'zozlab keladi. Uning o'z shogirdlari bilan birgalikda yangi qayiqlar yasab, yaxshi odamlarning tomlariga o'rnatishi bilan bog'liq tafsilotlarda majoziy talqin bilan bir qatorda, qahramon tabiatidagi devonavor orzular ham bo'y ko'rsatadi. Aslida, asarning teatr sahnasiga mo'ljallangan varianti "Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi" tarzida nomlanganida aynan shu jihat nazarda tutilgan edi.

Anglashiladiki, Orol bobo zohiran devonasifat cholday tuyulsa ham, aslida u teran ixlos va qanoat kishisi. Shuning uchun ham u Orol dengizining qurishini "Ichiga shayton oralagan bandalar Xudoning g'azabini qo'zg'agani" bilan izohlaydi. O'g'lining "da'vat"lariga ko'nib, ko'ch-ko'ronini orqalab shaharga ketishni ota-bobolari va jufti haloli xoki turob bo'lgan aziz maskan hamda bir umrlik qadrdon eshkagi-yu qayig'iga xiyonat deb biladi. O'zi yasagan qayiqlarni imon-e'tiqodli, halol va pok kishilarning tomlariga o'rnatishdan charchamaydi. Chunki tom boshidagi qayiqlar boboning osmondan yomg'ir, dengizdan suv so'rash bilan bog'liq iltijolarining moddiy ramzlaridir.

Albatta, Orol boboning xatti-harakatlari o'g'li Qalimbet, qizi Gulzira va uning dugonasi Rohat Sobirovna, O'tagan singari har narsadan iqtisodiy manfaat izlovchi, ulug' maqsadlardan mosuvo kimsalarga "devona"lik bo'lib tuyuladi. Otasining "qiliqlari"ni savdoyilik deb hisoblagan Gulzira o'z padari buzrukvorini jinnixonaga tiqishgacha borib yetadi. Ta'kidlash o'rinliki, cholning bu maskanga yotqizilishi va yaxshi kishilar ko'magida sirli tarzda qutulishi bilan bog'liq o'rinlarda ertakona bayon va detektiv talqinlar ham ko'zga tashlanadi. Bot-bot kadr ortidan sehrli ovoz eshitilib turadi. Bu ovoz Orol boboga otameros baliqchilik kasbi, o'z kechmishi, xususan, sevgilisi Oykumush bilan bog'liq yorqin xotiralar va butun qilmish-qidirmishlarini eslatib turadi. Afsuski, dramaturg "ovoz" detalini bosh qahramon qalb nidosi darajasida yuksaltira olmaydi.

Asarning xotima qismida enaqayiqni e'zozlagan oq qalpoqli Orol bobo va to'rt navqiron o'g'lon (Jumaboy, Tilovbergan, Genjamurod, Amet) tashnalik azobidan qiynalishadi. Albatta, E.A'zam bu tashnalikka ramziy ma'no yuklashga intilgan. Bu hol qahramonlar fikrini dengiz haqidagi aziz xotiralar, sog'inch, ummonga yetish orzusi va muttasil olg'a intilish hissi tark etmaganida namoyon bo'ladi. Muhimi, maqsadi aniq bo'lgan qahramonlar bir nafas harakatdan to'xtashmaydi.

Xulosa qilib aytganda, E.A'zamning "Tanho qayiq" dramasida obyektning plastik obrazi yaratilgan bo'lib, asarda mujassam bosh g'oya uning ramziy-majoziy mazmuni, axloqiy-falsafiy va didaktik mohiyatini belgilab beradi.

---

[1]Erkin A'zam. Kinoga qanday kelib qolganim. Tanho qayiq. Kinoqissalar – Toshkent: Sharq NMAK, 2017. 5-bet. (Ushbu manbadan olingan keyingi misollar qavs ichida ko'rsatiladi.)

[2]Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. – Toshkent: Sharq NMAK, 2006. 84-bet.

Bashorat JAMILOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti;
Shahnoza NURIDDINOVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA BADIIY TAFAKKUR YANGILANISHINING TADRIJI

Hozirgi adabiy jarayonda bir asrlik tarixga ega milliy bolalar adabiyotimiz ham o'ziga xos shiddat bilan odimlayotgani uning yosh avlod tafakkuriga mos taraqqiy etib borayotganidan dalolat.

Istiqlol davri nasri va nazmidagi shakliy, janriy rang-baranglik, mavzu dolzarbligi, mazmundorlik ko'lami haqida so'z borganda Anvar Obidjon ijodini alohida tilga olish joiz. U har qanday mavzuni yoritishda bola qalbiga mos ohang, davr ruhini aks ettira oladigan va ayni paytda g'oyat qiziqarli uslub, o'ziga xos jilo bera olgan shoir, adib va dramaturgdir. Ayniqsa, zamon bilan hamnafaslik, jahon adabiyoti an'analarini o'zbek bolalar adabiyotiga singdirish, jumladan, bolalar nasrida ham modernistik obraz va detallar yaratishda milliy ohang uyg'unligini saqlab qolish ham Anvar Obidjon ijodiga xos tamoyildir. Adibning "Dahshatli Meshpolvon", "Meshpolvonning janglari" yoki "Alamazon va uning piyodalari", "Yaltiroq tugma" dilogik qissalari, shuningdek, "Oltin yurakli Avtobola" asari shu jihatdan o'zbek bolalar adabiyotida yangi voqelik hisoblanadi. Bu asarlardagi

obrazlar ham shu kunning qahramonlari. Ular oddiy bola emas: "dahshatli Meshpolvon", "g'aroyib, olovqalb Alamazon" yoki temirtan Avtoboladir. Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o'z erki va haq-huquqi uchun kurashuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli "Alamazon" turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog'i "ona yurtning jasur farzandlariga" bag'ishlagan.

"Alamazon va uning piyodalari" qissasining bosh qahramoni Alamazon. U toshtaqaliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Alamazon yoshligidanoq kitobga mehr qo'yib, jahon bolalar adabiyotidagi tengdoshlari Chippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finn, o'zbek xalq dostonlaridan Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlarni savodi chiqqandan buyon taniydi, u bu kitoblardan ta'sirlanib, do'sti Eshmat bilan xazina qidirib topish, topganda uni nimalarga sarflash haqida reja tuzadi. Eng avvalo, yaylov etagida o'n ming kishilik stadion, ko'p qavatli uy, marmar devorli kattakon choyxona qurish, qishloqlarida zamonaviy inshootlar barpo etish, hatto butun umri boshlang'ich sinflarga dars berish bilan o'tgan Ahmadali otaga atab terak bo'yi haykal o'rnatmoqchi bo'ladi.

Yozuvchi garchi bu asarni 1976–78-yillarda yozganligini qayd etsa ham asar mustaqillik yillarida kitobxonlarga taqdim etildi. Asarda bolalarni kitobxonlikka da'vat etish Alamazonning uyg'oq tafakkuri bilan ko'rsatib berilgan.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Mungli ko'zlar", Tohir Malikning "Alvido bolalaik" qissalarini ham o'zbek bolalar adabiyotining bir asrlik tarixida butunlay yangi hodisa deya olamiz. O'zbek bolalar adabiyotida ham shu singari detektiv qissalar bo'y ko'rsata boshlagani, bunda asosiy e'tibor jinoyatni fosh qilishdan ko'ra bolalar va o'smirlar psixologiyasi tadqiqiga qaratilgani baayni adabiy yangilanish dalilidir.

Mustaqillik davri bolalar she'riyatining yangi obraz va mavzular bilan boyishida esa Tursunboy Adashboyev ijodining alohida o'rni bor. Yetuk olim I.G'afurov ta'biri bilan aytganda, "Uning she'rlarida tog' yonbag'ridagi echkilar, kiyiklar o'zlarini qanday erkin tutsalar, so'zlar ham shu kiyikday javlon o'ynaydi... hech narsadan xavflanmaydi, qo'rquv tuymaydi"[1].

Darhaqiqat, shoirning "Tuproq" she'rida shunday misralar bor:

Ajdodlardan meros bo'lib,
Qolgan tuproq.
Bobolarning qon va teri
Tomgan tuproq.
To'kin-sochin dasturxonni
Solgan tuproq.
Dori-darmon, sinovlardan
Tolgan tuproq.
Qotilni ham, botirni ham
Sukut saqlab,
Ehtiyotlab, o'z bag'riga
Olgan tuproq.

Hech shubhasiz, bu satrlar istiqlol shabadalari yelkasini silab turgan har bir o'g'il-qizga o'tmish va o'zligimizni, tarixiy qadriyatlar hamda haqiqatlarni yaxlit tasavvur etish, u haqida mushohada yuritishga yordam beradi.

Safar Barnoyev ham XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida alohida g'ayrat va shijoatga to'lib ijod qildi. Shoirning aksariyat she'rlarida urush va inson taqdiri masalasini turli qirralardan yoritishga mayl kuchli:

Asrim shoshirib qo'ydi
Bugun inson aqlini.
Bizlar unutdik tanish
Uchburchak xat shaklini.
Ammo unutmadik, yo'q
Sog'inchning dardlarini.
Yer emas, qalbga ko'mdik
Yurtimiz mardlarini.

Istiqlol yillarida alifbo-she'rlarning ham rang-barang namunalari yaratildi.

"Alifbo-she'rlar odatda, – deb yozadi adabiyotshunoslar, – yangi alifbo qabul qilinishiga bevosita aloqadordir"[2]. Kavsar Turdiyeva ijodida mustaqillik yillarida alifbo-she'rlarning rang-barang namunasi yuzaga keldi. Shoira "Biz shunaqa bolamiz" she'rini "she'riy alifbo" deb ko'rsatadi.[3] Unda lotin alifbosidagi 29 harfning har biri bilan boshlanuvchi so'zlar alifbo tartibida she'riy vazn va qofiyaga solingan. Mazmuni esa **a**qlli, **b**esh baho oladigan, **d**o'stlari ko'p va **e**li mustahkam, **j**ajji botirlar, **V**atanga qo'shqanot bo'lgan e**ng** ibratli avlod tilidan kuylanadi. Shoiraning "Sehrli harflar oroli" she'rida esa harflar o'zini shunday tanishtiradi:

Aa – Men "A"dirman, "A"dirman,
Ko'p narsaga qodirman,
"Qor", "Bol", so'zlarga qara:
Yasadim "Qora, bola"[4].

Bu alifbo-she'rda har bir harfga bag'ishlangan misralar mustaqil kompozitsiyaga ega. Harflar alohida xususiyatlarini namoyon qilish bilan birga, o'zlari ishtirok etgan so'zdan yangi so'z va ma'no yasashini isbot qiladilar. Birinchi harfning o'zi ta'kidlayotganidek, juda ko'p so'zlarda ishtrok etishi qor-qora, bol-bola so'zlaridagi ma'no farqlashi orqali oydinlashgan. Bunday she'rlarda ma'no, fikr yetakchilik qiladi. Har to'rt qator she'r shu tariqa, mustaqil qofiya va mazmunga ega bo'la borgan. K.Turdiyeva shu kabi ko'plab she'rlarida harflarni mustaqil harakatga keltiradi. Ulardan kichkintoylar xarakteriga xos xususiyatlarni ochib berishda foydalanadi. Shoiraning "Manman "B", "Harflar adashdi", "Harflar o'yini", "Bitta harf qochsa-chi", "Harflar ketib qolsa", "Harflar ustaxonasi" kabi she'rlari ham shu tariqa ma'rifiy-badiiy ahamiyatga ega. Zero, alifbo-she'rlar endilikda harfiy san'atga asoslangan yangi she'riy shakllarga keng yo'l ochdi, desak yanglishmaymiz.

Dilshod Rajab she'rlarining mavzu mundarijasi rang-barang. Uning Vatan, yurt, Davlat ramzlari haqidagi she'rlari alohida turkumni tashkil etsa, "Baxshi bola – yaxshi bola", "Yaxshi va yomon", "Dehqon dalasida" turkum she'rlari ham shakliy, ham mazmunan

o'ziga xos. Shoirning "Ketmon", "O'roq", "Xaskash", "Belkurak", "Panshaxa" deb nomlangan to'rtliklari bolalar uchun mazmun mohiyatan e'tirofga loyiq.

Tinmay ishlar, yer chopar dehqon,
To kechgacha, saharlab turib.
"Dam oling" deb yolvorar ketmon,
Oyog'iga har dam bosh urib.[5]

Ketmon nimaligini bugungi bolalarning ayrimlari bilmaydi. Ammo unda dehqon tinmay yer chopishini eshitgan. Dehqonning "oyog'iga bosh urishi"ni katta avlod kinoyaviy tushunsa, yosh avlod shaklan chiroyli o'xshatishdan zavq oladi. Chunki, mustaqillikgacha dehqon dam olmay ishlasa ham "kosasi oqargani yo'q". Shoir shunga shama qilmoqda. Biroq ketmonni har ko'tarib, yerga urganimizda, u rostdan ham oyog'imiz ostida boshi bilan tushadi va shoir o'xshatishini tasdiqlaydi.

D.Rajabning ayrim she'rlari esa shaklan tuyuqqa hamohang, faqat 4-satri va vazniga ko'ra undan farqlanadi. Masalan, "Belkurak" she'rida shunday shakily va mazmuniy o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi:

Dehqon bobo, doim tik-ku **belkuraging**,
Lekin nechuk hol-ahvoling, **bel, kuraging**?
Keng maydonga tushgan chayir polvon o'zing,
Tolmagaysan, sira ko'rmas yer kuraging.[6]

Ta'kidlab ko'rsatilgan so'zlar shakl va talaffuzda bir xil bo'lgani bilan, ikki hodisani ifodalayotgani anglashiladi. Bu bolalar uchun aynan tanish manzara. Ular bu so'zlar o'rtasida chindan ham bog'liqlik bor deb o'ylaydilar. Chunki, har birimiz ham bolaligimizda shunday o'ylaganmiz. O'sha dehqonning qo'lidagi belkurak o'zining beli va kuragiga o'xshashligiga ishonuvchan bolalar uchun yaxshi topilma bu. Kattalar esa, o'z navbatida, buning dardli mohiyatini ilg'ay oladilar. Chunki dehqon bobolarimiz bir umr belkurakda yer qazib, tuproq olib, bemalol egilish, qad rostlashga qiynaladigan bo'lib qoladilar. Shunday bo'lsa ham ular tolmasdan, polvonlarining kuragi yerga tegmasdan – yiqilmay-yengilmay dong taratganlarini shoir o'rinli ta'kidlaydi.

D.Rajab she'riyatidagi shakliy izlanishlar hatto musavvirga xoslik ham kasb etadiki, bu adabiyotshunoslikda geometrik she'rlar deb yuritilmoqda. Shoirning o'zi ham bu turkumni "Musavvirning she'rlari" deb nomlagan. Jumladan, uning "Tanbeh" she'rida ham mazmunan, ham shaklan belkurakning musavvirona chizilgan tasvirini ko'rish mumkin:

To'plaganing bor-yo'g'i
Ikki uyum xas-xashak.
Darrov cho'zilib olib
Yotganing ne, Xashxashak?
Shuncha yerni ag'darib,
O'tirmasdan yana, ko'r;
Ishlayman, deb,
B
E
L
K
U
R
A
K
T i k k a
u n
r a
a k
ro'

Rasmda ham, mazmunda ham belkurakning tikka turgani shu tariqa chizilishi bola uchun ikki ma'noda muhim. Avvalo, u belkurakni hali ko'rmagan bo'lsa, rasmidan bilib oladi. Ikkinchidan, shu shakl – rasmga joylashtirilgan so'zni topib o'qish uchun ancha mehnat qiladi, so'zni to'g'ri o'qiy olsa, zavqi ortib boradi, demak, she'rdagi badiiy estetik zavq yoniga, mustaqil ijodiy topshiriqni bajarishdagi quvonch qo'shiladi.

Miraziz A'zamning 1988-yilda yozilgan "Qirq bolaga qirq savol" she'riy asari nomidanoq ma'lumki, u 40 ta she'riy savolni qamrab olgan. She'riy savollardan oldin boshlanma, keyin esa xotima she'r ham keltirilgan. Shoir unda jajji bolakaylarga roppa-rosa 40 ta savol bilan she'riy murojaat qiladi. Bilim va zakovat egasigina bu savollar mohiyatini to'g'ri ilg'aydi, ularga asosli javob topadi. Shoirlar bolalar va o'smirlarni shu tarzda ma'rifat dunyosiga olib kiradilar.

Umuman, istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotida shu singari ohorli tashbehlar, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish kuzatiladi, yangi obrazlar, motiv va g'oyadorlik, ifoda usullaridagi rang-baranglik tadriji yorqin ko'zga tashlanib kelmoqda. Bunda ayniqsa, S.Barnoyev, M.A'zam, T.Adashboyev, A.Obidjon singari bolalar shoirlarining noan'anaviy tur va shakllardan foydalanib ijod qilishlari, shu bilan birga H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, D.Rajab, A.Akbar kabi ijodkorlarning jarayon faollashuviga qo'shgan hissalarini alohida ta'kidlash bilan birga ular yaratgan badiiy ijod namunalari jahon bolalar adabiyoti bilan bo'ylasha olishini ham e'tirof etish joiz.

---

[1]Qarang: Beg'uborlik kuychisi. Maqolalar to'plami. – Toshkent: Navro`z, 2011. 54-bet.
[2]Barakayev R., Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. 104-bet.
[3]Turdiyeva K. Dunyoni saqlar bolalar. – Toshkent, 2012. 156-bet.
[4]O'sha joy. 157-bet.
[5]Dilshod Rajab. Tanish tovushlar. – Toshkent: Zarqalam, 2006. 11-bet.
[6]O'sha joy.

Azimjon DAVRONOV,
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

TOHIR MALIK IJODIDA USLUBIY O'ZIGA XOSLIK

XX asr siyosati sharqona milliy adabiyotimiz va san'atimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz, diniy e'tiqodimiz va ma'naviy-axloqiy tarbiyamizni aftodahol vaziyatga solib qo'ygan. Istiqlolgacha bo'lgan davr va istiqlolning dastlabki yillarida yozuvchi Tohir Malik ushbu muammolar talqini bilan bog'liq qator asarlar yaratdi.

Tohir Malik ijodida uslubiy o'ziga xoslikni, xususan, "Ov" qissasi misolida kuzatamiz. "Ov" 1995-yilda yozilgan ilmiy-fantastik, sarguzasht qissadir.

Avvalo, uslub haqida. Uslub – g'oyaviy estetik xususiyatlar yig'indisi, tor ma'noda yozuvchining tasvir usuli, keng ma'noda uning dunyoqarashi, u yaratgan asarlarining asosini tashkil qiluvchi g'oyalar, sujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari, tili va boshqalarni qamrab oladi. Muayyan oqimga nisbatan ham, yozuvchi ijodiga nisbatan ham uslub termini qo'llaniladi. Romantik uslub, realistik uslub kabi. Ko'pchilik hollarda uslub yozuvchining ijodiga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni Chexov uslubi, Abdulla Qahhor uslubi, Oybek uslubi kabi. Bu ma'noda uslub bir yozuvchining ijodida, barcha asarlarida bo'rtib ko'rinadigan g'oyaviy-badiiy xususiyatdir. Aniqrog'i, uslub yozuvchinig voqelikni aks ettirishdagi o'ziga xos yo'li, ifoda-tasvir vositalari, o'ziga xos obrazlari. Masalan, Oybek va Abdulla Qahhor prozasi uslub jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Oybek kishi portretini chizganda yoki tabiat manzarasining tasvirini berganda erinmasdan, tevarak-atrofning barcha ikir-chikirlarigacha qalamga olib mukammal polotno yaratishga intiladi. Oybek xalq hayotining muhim tarixiy bosqichlaridan mavzu tanlaydi. Shuning uchun Oybek qahramonlari lirik, romantik kayfiyatga ega bo'ladilar. Buni Gulnor, Yo'lchi, Navoiy, Arslonqul kabi obrazlarda ko'rish mumkin.

Abdulla Qahhor uslubi esa unday emas. U tasvirni ixcham, iboralarni esa lo'nda qilib beradi, tabiat manzaralarini chizganda, portret yaratganda shtrix usulini qo'llaydi. Narsa yoki hodisaning eng xarakterli tomonini tasvirlash orqali maqsadga erishadi. Qahhor asarlari satira va yumorga boyligi bilan ham xarakterlanadi. Qahhorga xos uslubiy xususiyatlarni, uning qator asarlari "Sarob", "Ayajonlarim","Qo'shchinor chiroqlari", "Sinchalak"da ko'rish mumkin.[1]

Asar g'oyasi va mazmunini kitobxonga tushunarli qilib yetkazishda badiiy obraz juda muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz adabiyot va san'atda badiiy fikrlashning asosiy vositasi, g'oyaviy mazmunni ifoda etishning muhim formasidir. Shuning uchun M.Gorkiy obraz-ning o'ziga xos xususiyati haqida gapirib, "Obraz fikrni uyushtirishning tejamli usuli"[2], – degan edi.

"Ov" qissasini yozishda muallif ana shu usuldan mohirona foydalanib, Rahmatulloh obrazini yaratgan.

Rahmatulloh – ismi jismiga monand, asarning mavzu va g'oyasiga mos, maqsad va vazifalari bilan mushtarak, yozuvchi dunyoqarashi va e'tiqodi bilan hamohang obraz. Uning o'rmondagi yovvoyi mevaning no'xatdek keladigan danagidan o'zi yasab olgan donalarni o'girib tasbeh aytishi, eti ustixoniga yopishgan, qorachadan kelgan, botiq ko'zlarida qat'iyat zuhur bo'lgan, ko'zlari javdiramaydigan, qaddi egilmaydigan, qoramag'iz, qoramtir yuzi yopishib turgan tasviri, boshliqning nafrat nazari bilan bergan savollariga kiprik qoqmay javob berishi portretning o'ziga xos xususiyatlarini va yozuvchining mahoratini ifoda etgan. Portretning bu xildagi tasyiri kitobxonning asar voqealari rivoji bilan qiziqishini yanada orttiradi.

Rahmatulloh, boshliqning "Xudoga sig'inasanmi? Ibodat qilasanmi?" deb bergan savollariga:

– Ha , men yolg'iz Allohga sig'inaman. Men faqatgina omonatini o'ziga topshirganimdan keyingina ibodatni qo'yaman, – deb javob beradi.

Boshliq "Tiz cho'ksin, uzrini qabul qilaman," deganida:

– Men banda oldida tiz cho'kmayman. Men faqat Allohning quliman, bandaga tavba qilmayman, – deb, tilmochlik qilgan Komissar til uchida "tavba qila qoling" deganda, "Men munofiqlik qila olmayman", deb javob berishi uning xarakteriga xos bo'lgan jihatlarni ko'rsatadi. Yozuvchi Rahmatulloh obrazi vositasida o'zining maqsad va niyatlarini to'la ro'yobga chiqara olgan. Rahmatulloh obrazining o'ziga xosligini quyidagi epizodda ham kuzatish mumkin.

"Ertalabgacha muhlat: Xudo yo'q, deb, yozasan. Makkada hech qanday tosh yo'q, hammasi Muhammad degan savdogarning uydirmasi, Qur'on osmondan tushmagan, o'sha savdogar to'qib yozgan, deysan". Shularni yozsang – ozod bo'lasan , yozmasang – suyaklaring qamoqda chiriydi..."

Rahmatulloh bu buyruqni eshitib, o'z quloqlariga ishonmadi. Qon-qoniga singib ketgan haqiqatni rad etish, yozish u yoqda tursin, xayolga keltirishning o'ziyoq u uchun benihoya dahshatli hol edi. U buyruqqa itoat etaymi yo yo'qmi, deb fikrlab ham ko'rmadi. Chunki shunday fikrlashning o'ziyoq imoniga darz ketkazar edi.

Buyruqqa itoat etmagan Rahmatulloh nomidan bu dahriy so'zlarni ularning o'zlari yozib berishdi. Imzo cheksa, bas – ozodlikka chiqadi. U ko'zlarini chirt yumib, Allohga munojat etdi. Yaratgan unga madad berdi – aqlini olmadi, shaytonga qul qilib qo'ymadi. U bundan xursand edi. Qiyinchiliklar ichida qolganida mana shu quvonch unga dalda berardi. Biroq u bir narsani bilmas edi: imzo chekmagan kunining indiniga gazetada Rahmatulloh Inoyatulloh o'g'li Andijoniyning Xudodan yuz o'girgani haqidagi maqola chop etildi. Oradan o'n besh kun o'tgach, uning "mutaassib ruhoniylar" tomonidan o'ldirilgani haqida kichkina xabar chiqdi.

Yozuvchi qahramonining hayotini real tasvirlash uchun tarixga, arxivlarga murojaat etadi. Sodda xalqimizni ishontirish uchun gazetada yolg'on ma'lumot berilishi va, aslida, qahramon hayotining boshqacha yakun topishi davrning va shaxsning chinakam ayanchli fojeasi edi.

Asar sujetini tasvirlash jarayonida muallifning e'tiboridan hech narsa chetda qolmaydi. Simvolik obraz – o'q o'tmas bug'uning xatti-harakatlari orqali gunoh ishlarga jazo, savob ishlarga ajr muqarrarligini ham ta'kid etadi.

Komissarning jon talvasasida (joni uzilayotgan paytda) Boy ota bilan bo'lib o'tgan voqeani esga olishi; Boy otaning Haj safariga borish uchun zakot ajratib qo'ygani, mahalla ahlini yarim yil boqadigan mulk qoldirishi, Komissarning bolalik paytidagi qimor o'ynashi, qimorda yutqazib qo'yib, Boy otadan pul so'ragani, Boy ota yuziga tarsaki berib, qarzini to'lab o'qishga joylashtirib, to'g'ri yo'lga solib qo'ygani, Boy ota o'limi oldidan o'sha tarsaki uchun Komissarning uyiga rozi-rizolik so'rab kelgani qissadan hissa chiqarishga undaydi.

Komissarning o'limi oldidan o'z-o'ziga ichki hislari bilan hisob berayotgani oxir-oqibat Allohni esga olganini anglatsa, Boy ota xatti-harakatlari zamirida xalqimizning millatparvarlik g'oyalari ulug'lanadi. Qizil komandirning o'limi oldidan "Menga janoza o'qib qo'ying", deb Rahmatullohga iltijo qilishi oxiratni o'ylab qolganligiga ishora. Mirhosilning ustozi Cho'lponning she'rlarini o'qishi, u haqida qayg'urishi, uning ishlarini davom ettira olmagani o'sib kelayotgan adabiyot, san'at va madaniyatimiz taraqqiyotiga urilgan zarbaning nishonasi edi.

Yozuvchi qissada "Hadisi-qudsiy"dan, hikmatli so'z va iboralardan o'rinli foydalangan. Rahmatulloh tilidan "Hadisi-qudsiy"dan ibratli namunalar keltirish orqali chin ma'noda insoniylikni, mo'min-musulmonlikni, sharqona odob-axloqni targ'ib qiladi.

Asarning mavzusi va g'oyasi, mazmuni va shakli yozuvchi dunyoqarashi bilan uyg'unlashib ketgan. Obrazlar xarakter va dunyoqarashlarining xilma-xilligi, personajlar o'rtasida tez-tez bahs-munozaraning keskin tus olishi asarning g'oyaviy mazmunini ochishga katta yordam bergan.

Tohir Malikning chinakam o'ziga xos jasorati diniy e'tiqod masalasini badiiy asarga olib kirgani, asar mazmuniga singdirgani va uni chiroyli targ'ib eta olganida, deb bilamiz. Bu asar vatanparvar, insonparvar, e'tiqodli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

---

[1]N.Shukurov. N.Hotamov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. 220-bet.
[2]O'sha manba. 42-bet.

Mahliyo UMAROVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti,
filologiya fanlari nomzodi

ADABIYOTSHUNOSLIKDA IJODKOR SHAXSI TUSHUNCHASI

Ijodkor shaxsi tushunchasi ilmiy muammo sifatida jahon adabiyotshunosligida chuqur o'rganib kelinmoqda. Har qanday badiiy asar individual faoliyat mahsuli bo'lib, ijodda muallif rolini inkor etib bo'lmaydi. Ijodkor inson o'z asarida ijodiy "men" va biografik "men" kabi tushunchalarni umumlashtiradi. Taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov "Aslida har qanday badiiy asarda ham ma'lum ma'noda muallif tarjimayi holining bir bo'lagi bo'ladi. Sababi, yozuvchi o'z asariga qalbini bag'ishlaydi"[1] deydi "O'zbeklar" nomli asarida.

Ijodkor "men"dagi o'ziga xoslik, betakrorlik, estetik ideal va poetik mezonlar asosida qaralganda, biografik "men" o'z-o'zidan keyingi o'ringa o'tadi. Biografik "men" ijodiy "men"ni chuqurroq anglashda boshlovchi vazifasini bajaradi. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov o'zining "Iste'dod jilolari. Adabiy portretlar" deb nomlangan risolasida badiiy asarni ikki toifaga ajratadi. Ulardan birinchi toifadagi asarlarda hayot batafsil manzaralar bilan tasvirlanadi, lekin yozuvchi kitobxonning ko'zidan o'zini panaga tortib, insonlarga ko'zgu tutganday bo'la-

di. Bunday asarlar bizga hayot haqida tushuncha beradi xolos. Ikkinchi toifaga kiruvchi asarlarda bo'lsa, hayotiy kuzatishlar bo'yicha xulosa ham beriladi. "Yozuvchi ko'p kuzatishlar va izlanishlar orqasida muayyan voqea va hodisalar to'g'risida o'z xulosalarini chiqaradi hamda badiiy so'z yordami bilan bu xulosalarni kitobxonga yuqtirishga, uning fikrini muayyan nuqtaga yo'naltirishga harakat qiladi. Bunday asarlarda analiz ruhi ustun turadi. Biz ulardan estetik zavq olish bilan cheklanmay, tafakkurimiz uchun ham boy ozuqa olamiz."[2] Muallif o'z asari uchun hayotdan mavzu, g'oya, sujet oladi, qahramonlarni belgilaydi, hayotdan olgan materiallarini o'zining dunyoqarashidan kelib chiqib tanlaydi, qayta ishlaydi, ularga sayqal beradi.

Jahonga mashhur yozuvchilarning juda ko'plari o'z hayot tajribalaridan kelib chiqib asar yaratganlarini yaxshi bilamiz. Ularning asarlarida ijodiy "men" bilan biografik "men"ning uyg'unlashuvi yaqqol ko'zga tashlanadi. Amerikalik yozuvchi, Nobel mukofoti sovrindori Ernest Xeminguey urush haqidagi asarlarini yaratishdan avval I va II jahon urushlarining va Ispaniya fuqarolar urushining guvohi bo'lgan. Yozuvchining o'zi ko'ngillilar safida bo'lib birinchi jahon urushida qatnashadi va yaralanadi, ispanlarning fuqarolar urushi hamda ikkichi jahon urushida esa muxbir bo'lib faoliyat yuritadi. Urush haqidagi tajribalarini jamlab, ularni "Alvido qurol" kabi asarlarida tasvirlaydi.

Yana bir dunyoga mashhur shoir, ingliz romantizmi asoschilaridan bo'lgan Jorj Bayron ham Gretsiyadagi mustaqillik uchun bo'lgan urushda qatnashgan va bu tajribalari jahon adabiyotida tengi yo'q "Chayld Garold ziyorati" poemasi va "Don Juan" dostonlarini yaratishga turtki bo'ldi. Shuning uchun ham Bayron jahon adabiyotida "ham qalami, ham qilichi bilan ijod qilgan shoir", deb tan olingan. Amerikalik yana bir mashhur yozuvchi Jek London asarlari dastlab Amerika tahririyatlari tomonidan rad etilib, necha marta qilgan urinishlaridan keyingina chop etilgan. Hayot charxpalagi aylanib, o'sha muharirlarning o'zlari Jek London asarlarini aynan ularning jurnallarida chop etishini iltimos qilib kelishgan. Shuning uchun Jek London Amerika adabiyotidagi "asarlari eng qimmat bo'lgan yozuvchi" hisoblangan. Bu voqealar yozuvchining avtobiografik romani bo'lgan "Marten Iden" nomli asarida yaqqol ifodasini topgan.

O'zbek adabiyotida ham ijodiy va biografik "men"ning uyg'unlashuvini juda ko'p yozuvchilarning asarlarida kuzatishimiz mumkin. Bulardan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Oybekning "Bolalik", Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim", G'afur G'ulomning "Shum bola" va boshqa ko'plab asarlarni misol keltirishimiz mumkin. Bu asarlarda ijodkor shaxsi va qahramonlar uyg'unlashuvi bilan bir qatorda muallif ishtiroki ham bor, shu bilan birga davr tasvirining ham jonli ifodasini ko'rishimiz mumkin, ya'ni yuqorida nomlari keltirilgan asarlarning ba'zilarini biografik, yana ba'zilarini esa avtobiografik asarlar sarasiga qo'shish mumkin.

Shunday asarlar borki, ularning matnida bir qarashda bilinmaydigan, ammo boshqalardan ajralib turuvchi muallifning o'ziga xos "barmoq izi"ni sezish qiyin emas. Bu holat qahramonlarning ismi yoki voqealarning joyi va vaqtida, voqea ifodasida ham sezilib turadi. Mark Tven taxallusi bilan ijod qilgan amerikalik yozuvchi Samuel Klemensning jahonga mashhur "Tom Soyerning sarguzashtlari" asaridagi bosh qahramon, uning yana bir mashhur asarlaridan bo'lgan "Shahzoda va gado"da qahramonlardan birining ismi Tom bo'lgan. Bunga muallifning yaqin do'stining ismi Tom bo'lganligi asosiy sababdir. Shuningdek, "Tom Soyerning sarguzashtlari" asaridagi Polli xola obrazida muallif onasining xarakteri aks etgan.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida biz ta'kidlagan "iz" ijodkor shaxsiga xos bir qancha belgili xususiyatlarni o'zida jamlaydi. Bunday "iz"larni o'rganish uchun ijodkordan alohida biografik yondashuv talab etiladi. Asar qahramonini yaratishda muallif biografik metodni qo'llaydi. Chunki biografik metod yozuvchi ijodini hayotiy tajribalari ifodasi sifatida o'rganish usulidir. Shu bois yozuvchining ichki dunyosi, fe'l-atvori, ruhiyati, kayfiyati, odatlari, yashash tarzi va shu kabi jihatlar uning asarlarida aks etishi tabiiy hol. Asl ijodkor asarlarida o'zlikni ifoda qilish davomida uning hayotiy aqidalari, ijtimoiy-falsafiy qarashlari badiiy qahramonda zuhurlanadi. Shunday ekan, ijodkor shaxsini o'rganishda dastlab uning millati, oilasi, ota-onasi, ijtimoiy ahvoli, nasliy xususiyatlari va oila tutimlari, e'tiqodi kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Ijodkor tarjimayi holini ijodi bilan bog'liqlikda o'rganish bizning o'zbek adabiyotimizda Fitratdan boshlangan bo'lsa, keyinchalik, bu yondashuvni taniqli yozuvchi va olimlarimiz Oybek, Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Umarali Normatov, Hamidulla Boltaboyev, Dilmurod Quronov, Bahodir Karimov, Uzoq Jo'raqulovlarning risola va ilmiy ishlarida kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, ijodkor shaxsini o'rganishda yozuvchining tarjimayi holi, iste'dodi, individualligi, uslubi, adabiy muhit kabi birlamchi omillar asosiy mezon vazifasini bajaradi.

[1]O'tkir Hoshimov. O'zbeklar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 3-bet.
[2] O.Sharafiddinov. Iste'dod jilolari. Adabiy portretlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. 158-bet.

Nilufar ALIBOYEVA,
Қўқон давлат педагогика институти Чет тиллар факультети Факультетлараро чет тили кафедраси ўқитувчиси

O'ZBEK TILIDA TASVIRIY VA TAQLIDIY MA'NO HAMDA ULARNING INGLIZ TILIDA BERILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada olamning milliy lisoniy manzarasida tovush va holat/obrazga taqlid ifodalari, agglutinativ tillar, xususan, o'zbek tilida taqlidlarning keng qo'llanillishi, jumladan, ingliz tilida mustaqil turkum sifatida taqlidlarning deyarli yo'qligi, bu tilda tovush yoki obrazga taqlid ot, sifat yoki fe'llar bilan berilishi haqida so'z yuritilgan.*

Tayanch so'zlar: *onomatopiya, tasviriy vosita, ot, fe'l, gap bo'lagi, grammatik shakl, tovushga taqlid, agglutinatsiya.*

Annotation. *This article is about the expression of onomatopoeia, agglutinative languages, in particular, the widespread use of onomatopoeia in the Uzbek language, including the absence, practically, of onomatopoeia as an independent part of speech in English, instead, the formation of onomatopoeia with nouns, adjectives and verb forms in this language and the real genetic origination of these words from onomatopoeia.*

Keywords: *onomatopoeia, figurative means, noun, verb, parts of a sentence, grammatical form, imitation of sound, agglutination.*

Аннотация. *В данной статье речь идет о выражении звукоподражаний, об агглютинативных языках, в частности, о широком использовании звукоподражаний в узбекском языке, об звукоподражаниях как самостоятельной части речи в английском языке, об образовании звукоподражаний вместе с именами существительными, прилагательными и глагольными формами в данном языке, о реальном генетическом происхождении этих слов от звукоподражаний.*

Ключевые слова: *ономатопея, образное средство, имя существительное, глагол, члены предложения, грамматическая форма, имитация звука, агглютинация.*

Til fonetik strukturasining serqirraligi, shubhasiz, uning borliqdagi barcha tovushlarni til sohibining eshitish va tinglash imkoniyatidan kelib chiqqan holda ifodalay olishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda o'zbek tilining fonetik tarkibi o'zining polifunksionalligi, keng qamrovi bilan ajralib turadi va bu polifoniya tasviriy hamda taqlidiy ma'no ifodalanishida kuzatiladi. Zero, tilda mavjud boshqa leksik kategoriyalardan farqli o'laroq, tasvir va taqlid ma'nosini anglatuvchi so'zlar o'zga tillardan o'zlashtirilish ehtimolidan yiroq va, hatto, imkonsiz. Tasviriy so'zlarning shakllanishi til vakili voqelikni ongida qanday qabul qilishi, ovozlarni qanday eshitishi, uni o'z tilida mavjud bo'lgan tovush tovlanishlarida qay tarzda ifodalashi bilan bog'liq. Bu uzviy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan leksik birliklar har bir tilning xususiy va, tom ma'noda, milliy va betakror qatlamini tashkil etadi. Shu ma'noda agglutinativ tillar sirasiga mansub o'zbek tilining ifoda ustuvorligini ta'kidlamaslikning iloji yo'q. Sababi, boshqa tillar, jumladan, ingliz tilidan farqli ravishda o'zbek tili tabiatda uchraydigan qariyb barcha tovushlarni qamrab ola biladi. Bu esa, o'z navbatida, tovushga taqlid va harakat, holat tasvirini ifodalovchi so'zlarning yanada tabiiyroq bo'lishini ta'minlaydi.

Garchi o'zbek tilining fonetik ustunligi tasvir va tovushga taqlid ifodalarining fenomenal ravishda haqiqatga yaqinlashishini ta'minlab bersa-da, o'zbek tilshunosligida bu kategoriya boshqa turkiy tillardan ko'ra nisbatan kechroq tadqiq qilingan. Taqlidiy va tasviriy so'zlar dastlab tilshunos olim A.G'ulomovning "O'zbek tili morfologiyasiga kirish" asarida undov so'zlar sifatida tasnif etilgan bo'lsa, ma'lum vaqtdan so'ng bu fikr qarshilikka uchrab, jumladan, S.Mutallibovning "Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk" ishida undovlardan ajratilgan holda tovushga taqlid so'zlar sifatida e'tirof etildi va olim tomonidan taqlid birliklariga quyidagicha izoh berildi: "Hayvonlar, jonivorlar, qush-qurtlar va odamlar, narsalar harakatidan paydo bo'lgan tovushlarga shartlicha taqlid qilib yasalgan so'zlar tovushga taqlid so'zlar deb ataladi"[1]. Albatta, ushbu ta'rif tovushga taqlidga ustuvorlik berib, holat tasvirini ifodalovchi birliklar ham bu guruhga oid deyilsa-da, ta'rif mantiqan bunga zid va bu hol ushbu til hodisasi turkumi talqinida birmuncha chalkashliklarga sabab bo'ldi.

O'zbek tilshunosligida taqlidiy va tasviriy ifodalar tadqiqi ilk marotaba keng qamrovli ko'lamda tilshunos olim R.Qo'ng'urov tomonidan "O'zbek tilida tasviriy so'zlar" asarida atroflicha yoritib berilgan. Qo'ng'urov o'z asarida holat tasvirini ifodalovchi so'zlarni obrazli so'zlar deb atab, ushbu ifodalarning o'ziga qadar tadqiqiga doir quyidagicha izoh keltiradi: "Turkologiyada ayrim olimlar obrazli so'zlarni tovushga taqlid so'zlar bilan bir qatorga qo'yib, ularga "obrazga taqlid so'zlar" sifatida qaraydilar. Boshqa birlari esa ularni bir gruppaga birlashtirmasdan, alohida-alohida tekshiradilar. Obrazli so'zlar bilan tovushga taqlid so'zlar fonetik, morfologik va sintaktik tomondan grammatik kategoriya sifatida bir-birlariga juda yaqin turadi. Ammo obraz ifodalovchi so'zlarni taqlid so'zlar deb qarash qiyin bo'lgan ko'pgina o'ziga xos xususiyatlari ham bor: semantik tomondan tovushga taqlid so'zlar kishilar, qushlar va hayvonlar, boshqa turli jonivorlar hamda jonsiz predmetlar-

ning chiqargan tovushlariga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. Ular, asosan, eshitish bilan bog'langan. Obrazli so'zlar esa ko'rish natijasida yuzaga kelib, kishilar va boshqa jonli-jonsiz narsalarning holati, harakati va tashqi ko'rinishining tasavvur obrazlarini bildiradi"[2].

Ushbu izohni taqlidiy va tasviriy ifodalar o'rtasidagi tafovutni izohlovchi ilk to'laqonli ta'rif, desak, albatta, mubolag'a bo'lmaydi. Biroq berilgan bu atroflicha ta'rif, qolaversa, monografiyadagi asosiy g'oya – tasviriy ifodani undov so'zdan ajratib olish maqsadga muvofiq deya qaralishidan tashqari muallifning o'zi ushbu birliklarning mustaqil lug'aviy ma'noga ega so'z bo'la olishini quyidagi xususiyatlar bilan asoslaydi:

a) o'ziga xos leksik ma'noli;

b) umumlashtirish va umumtushunish xususiyati mavjud;

d) xos struktura va shaklga ega;

e) sodda holda, asosan, yordamchi fe'l bilan birga keladi;

f) gapda ma'lum bo'lak vazifasida kelib, boshqa gap bo'laklari bilan sintaktik munosabatga kirisha oladi.

Aytilganlar ularni mustaqil so'z sifatida qarash imkonini beradi.[3]

Shu o'rinda tovushga taqlid so'zlar va holat tasviri ifodalari orasidagi tafovut va o'xshashliklarga oydinlik kiritib olish lozim:

birinchidan, har ikki guruhdagi so'z ham juft holda ko'proq uchraydi, ya'ni *apil-tapil, lo'k-lo'k, lip-lip, lapang-lapang, yiltir-yiltir* harakatning tezligi yoki holatning sur'atiga ishora qiladi va bu ularning har biri juft holatda uchrashi bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. O'zbek tilidagi tovushga taqlid so'zlar ham aksar hollarda juft holda uchraydi: *qars-qurs, dupur-dupur, g'arch-g'urch.* Bu kabi juftlashish natijasida o'z-o'zidan yana bir ma'no anglashiladi, bu juftlashganlik harakatning o'zgaruvchan, davomiy, uzluksizligiga ham ishora qiladi. Ko'rinadiki, "taqlid/tasvir" ma'nosi "harakat tarzi" ma'nosi bilan qorishib ketadi va ularni ajratish mumkin bo'lmaydi. "Harakat tarzi" ma'nosi taqlid/tasvirga yo'ldosh ma'no, yo'ldosh ma'no esa har doim asosiy ma'noning voqelantiruvchisi hisoblanadi. Ular dialektik yaxlitlikni tashkil etadi.[4] Boshqacha aytganda, tasviriy so'zlarda obraz asosiy, taqlid yondosh, taqlid so'zlarda taqlid asosiy va obraz yondosh ma'no sifatida amal qiladi;

ikkinchidan, har ikki turdagi birlik so'zlashuv va badiiy matnda qo'llanib, bundan asosiy maqsad tasvir jonliligi, uning realligi va ifodaning kuchayishini ta'minlashdan iborat;

uchinchidan, morfologik jihatdan har ikkisi ham ravishdosh ko'rinishida ravishdosh qo'shimchalarini olib, gapda fe'l sifatida qo'llana oladi;

to'rtinchidan, har ikki birlik ham sintaktik qatlamda predmet belgisini ifodalovchi sifatdosh bo'lganligi sababli aksar hollarda aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Aytilganlar taqlid va tasvir so'zlarning umumiy va mushtarak belgilarini ifodalaydi. Ammo boshqa tomondan olib qaralganda, ular orasida tafovutlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

birinchidan, tovushga taqlid ifodalar kishining eshitish amali orqali shakllanadi, ya'ni inson o'zi eshitgan tovushni bevosita taqlid qilishga harakat qiladi. Tasvir ifodasi esa o'z-o'zidan kuzatish orqali yuzaga chiqadi. Shu tarzda insonning ko'rish va eshitish taktik amali ushbu ifoda fenomenlarida uyg'unlashadi;

ikkinchidan, tovushga taqlid so'zlar shakllanar ekan, inson ularni "o'ylab topishda" tabiatdagi mavjud fizik va tildagi ijtimoiy tovushlarga asoslanadi. Tovushga taqlid so'zlarning shakllanishida tayyor tabiiy andoza borliqda fizik mavjudlik sifatida namoyon bo'lib turadi. Holat yoxud voqelik tasviriga asoslangan birliklar esa hech qanday andozalarga tayanmagan holda insonning borliqni qanday qabul qilishi va tili yordamida turli artikulatsion jarayonlar natijasida shakllanadi. Ko'rinadiki, insondagi ko'rish, eshitish, talaffuz tafakkur asosida o'zaro yaxlit funksiya uchun hamkorlikka kirishadi;

uchinchidan, "holat tasviri (obraz)" ma'nosi nisbatan kengroq shakllangan va bu kabi so'zlar ma'nolarini nutqda muqobil birliklar – borliq jarayoni tasvirini ko'z o'ngimizda nisbatan yorqinroq gavdalantirish mumkin bo'lgan boshqa so'zlar uyg'unligida ifodalash mumkin. Ayni paytda tovushga taqlid so'zlarni boshqa biror so'z turkumidagi ifoda bilan va, hatto, bir necha ifodalar hamkorligi yordamida ham berish imkonsiz. Ifoda amalga oshirilgan taqdirda ham, u ayni reallikdagi voqelikni to'liq qamrab ololmaydi, o'quvchi boshqa so'z yordamida ifodalangan taqlidiy ma'noni boshqa variant bilan solishtirib, oradagi o'xshashlikni tushunib yetguncha muloqot uziladi. Demak, tovushga taqlid ma'nosi boshqa vosita orqali ifodalangan taqdirda ham kommunikativ maqsadga erishish yo'lidagi harakat muvaffaqiyatsizlik bilan yakun topishi mumkin.

Tasviriy so'zlar, yuqorida aytib o'tilganidek, nutqda borliqni to'laqonli gavdalantirishning eng samarali vositasi sifatida baholanadi.

Quyida tasviriy ifodalarning bolalar adabiyotida qo'llanilgan holatlaridan misol keltiramiz:

G'uj-g'uj *qizil olchalar,*
Shoda qilib tergandek,
Go'yo quyosh ataylab
Unga husn bergandek. (To'lqin, "Olchalar")

Majnuntolning yaprog'i
Mayin-mayin *shivirlar.*
Moviysoy to'lqinlari
Mavj urib jivirlar. (A.Akbarov, "Majnuntol")

Tush ko'rganda tog'dan tog'ga uchasizmi?
Mingga kirgan chinorlarni quchasizmi?
Billur-billur *buloqdan suv ichasizmi?*
Xiyonatkor og'aynidan kechasizmi? (M.A'zam, "Qirq bolaga qirq savol")

Tasviriy ifoda birliklari yordamida qofiyalangan bolalar adabiyotidan boshqa she'riy parchalarga ham e'tiborimizni qaratamiz:

Maqtashib otlarini derki, bu ***duldur-duldur****,*
Baytalim barkashi zo'rki, ***fildur-fildur****,*
Qiladir lof urishib, ko'zlari ***mo'ldur-mo'ldur****,*
Oqjar odamlarining to'nlari ***juldur-juldur****,*
Bilmadim turkmu, tojik, tillari ***g'uldur-g'uldur****,*
Chiqsam eshikka qilur to'rg'ayi ***chuldur-chuldur****.*
(Muqimiy, "Dar mardumi Oqjar ba tariqi muxammas").

Misolni tahlil etar ekanmiz, tasvir ifodalarining ma'nosiga e'tibor qaratamiz. Birinchi misradagi *duldur-duldur* tasviri jonivorlarning sog'lom, baquvvat, tetik va serg'ayratligi, qaysidir ma'noda etli ekanligiga ham ishora qilsa, ik-

kinchi qatordagi tasviriy ifoda mustaqil ma'noli birlik, ya'ni *fil* so'zidan kelib chiqqan va hajmning yirikligiga ishora qiladi. E'tiborli jihati shundaki, tasviriy ifoda inson shuurida mexanik birlashgan bir necha tovush yig'indisi sifatida emas, balki mustaqil ot tasviriy ifoda sifatida qo'llanayotir. Uchinchi misradagi tasviriy ifoda *mo'ldur-mo'ldur* ko'zlarning yalingannamo qarashiga ishora qilsa, to'rtinchi misradagi *juldur-juldur* takroriy ifodasi buyumning eskirib, urinib qolganligini anglatadi. Bir parchada keltirilgan to'rtta tasviriy ifoda uchta ajralib turuvchi xarakterga ega:

– birinchi ifoda o'zining polisemantikligi, ya'ni ko'p ma'noliligi bilan ko'zga tashlanadi;

– ikkinchi holatda mustaqil ma'noli otning juftlashuvi natijasida tasviriy ifoda hosil bo'lgan;

– uchinchi va to'rtinchi holatda esa tasvir ifodasi to'g'ridan to'g'ri bir ma'noga ega.

Tasviriy ifodalarning ketma-ket, qofiya hosil qilib, ko'pincha, uyushiq bo'lak sifatida qo'llanishi o'zbek xalq dostonlarida tez-tez uchraydigan hodisa. Quyidagi misolga e'tiborimizni qaratamiz:

Dubilg'a boshida ***do'ng'illab,***
Kark qubba qalqon ***qarqillab,***
Tilla poyanak urilgan
Uzangilar sharqillab,
Bedov otlar ***dirkillab,***
Olg'ir qushdayin ***charqillab,***
Qo'lda nayzasi ***so'lqillab***
Yurmoqchi qalmoq yo'liga. ("Alpomish" dostonidan)

Keltirilgan parchada ham qofiyalar tasviriy ifodalar xilma-xilligi asosida qurilgan. *Do'ng'illab* so'zining ma'nosi bevosita *dubilg'a* so'zi orqali anglashiladi va ayni holatda dubulg'aning katta, salmoqli ekanligiga ishora qiladi. Ikkinchi misrada ham *qubba* so'zi *qalqon* birikmasi bidan *qarqillab* so'zining ma'nosini yoritib beradi va bu ifoda qalqonning baquvvat va salobatli ekanligi bilan bog'liq. *Dirkillab* ifodasi otning yaxshi parvarish qilingani va tetikligini ifodalasa, *so'lqillab* birligi *nayza* bilan birga qo'llanilgani sababli uning kattaligi, qaysidir ma'noda beo'xshovligini yoritib beradi. *Charqillab* esa qushning olg'irligi haqidagi ma'lumot yordamida o'z ma'nosini ochib beradi va bunda yigitning zabardastligi, yo'lga hozirligi anglashiladi.

Yuqoridagi misolda tasviriy ifodalarning barchasi murakkab semantikaga ega va ularning bari birikib kelayotgan boshqa gap bo'laklari ma'nosidan anglashishi fenomenal lisoniy (nutqiy) butunlikni tashkil etadi.

[1]Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent, 1959. 61-bet.
[2]Qo'ng'urov R. O'zbek tilida tasviriy so'zlar. – Toshkent: Fan, 1966. 18-bet.
[3]Qo'ng'urov R. O'zbek tilida tasviriy so'zlar. – Toshkent: Fan, 1966. 22-bet.
[4]Qo'ng'urov R. O'zbek tilida tasviriy so'zlar. – Toshkent: Fan, 1966. 22-bet.

G.SAFAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

EVFEMIZMLARNING SOTSIAL XOSLANISHINI TADQIQ ETISH OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada til imkoniyatlari, xususan, evfemizmlarning sotsial xususiyatlari, tilshunoslik va boshqa fanlarning integratsiyalashuvi, til birliklarining sotsial qiymati, leksik birliklarning sotsial semasi, professionalizm kabi tilning barqaror mikrosistemalari sifatida sistem-struktur yondashuvda ratsional tadqiq tamoyillari masalalari xususida to'xtalingan. Shuningdek, lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishining tadqiq omillari alohida qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *sotsial xoslanish, leksik birliklarning sotsial semasi, evfemizmlar, terminologik sistemalar, sotsial struktura, paradigma, sotsial kompetensiya, lisoniy kompetensiya.*

Annotation. *The article addresses the issues of language options, in particular the sociological features of euphemisms, the integration of linguistics and other sciences, the social value of language units, the social semantics of lexical units, professionalism, as well as the principles of rational research in the systematically structural approach. Also, the factors of the study of the social characteristics of linguistic possibilities are noted separately.*

Key words: *social characteristics, social semantics of lexical units, euphemisms, terminological systems, social structure, paradigm, social competence, linguistic competence.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы языковых вариантов, в частности социологические особенности эвфемизмов, интеграция лингвистики и других наук, социальное значение языковых единиц, социальная семантика лексических единиц, профессионализм, а также принципы рационального исследования в рамках системно-структурного подхода. Также отдельно отмечаются факторы изучения социальной характеристики языковых возможностей.*

Ключевые слова: *социальная характеристика, социальная семантика лексических единиц, эвфемизмы, терминологические системы, социальная структура, парадигма, социальная компетенция, лингвистическая компетенция.*

Til serqirra hodisa bo'lib, har bir davrda uning mana shu qirralariga oid muammolar yuzaga keladi hamda ularning yechimi ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Masalan, tilga xos bo'lgan funksional, sistem-struktur, me'yoriy xususiyatlardan har biri ijtimoiy buyurtma darajasiga ko'tarilishi mumkinligi tabiiy. Funksional planda tilga sotsial yondashuv til va jamiyat, jamiyat taraqqiyotida tilning o'rni, ijtimoiy taraqqiyotda tilning funksional qamrovi va ko'lamiga ta'siri kabi masalalarni tadqiq etadi. Til imkoniyatlarining sotsial xoslanishi muammosi tilshunoslikning har bir davrida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Bugungi davr fan oldiga qo'yilayotgan vazifalar ijtimoiy buyurtma, ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida sotsial tabaqa va guruhlar sifat va miqdor tarkibining o'zgarishi, ular nisbatining yangicha tus olishi, sotsial tabaqalarga munosabat, ularning jamiyat strukturasidagi o'rni masalalari bilan bevosita bog'liq.

Ko'rindaki, bugungi kunda tilshunoslik sohasida til hodisalarining shakllanish omili, etimologik manbayi, ma'noviy guruhi, funksional jihati, milliy-mental xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Tillarning geneologik va morfologik qurilishlariga bog'liq ravishda har bir tilda evfemik ma'no fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, frazeologik, paremiologik va noverbal vositalar bilan ifodalanadi, evfemik ma'noning namoyon bo'lishida situativ-pragmatik va ijtimoiy omillar mazkur lisoniy vositalar bilan yaxlitlik hosil qiladi. XXI asrda shakllanayotgan antroposentrik lingvistik yo'nalishlarning asosiy vazifasi – insonni tilda, tilni esa insonda tahlil qilishga yo'naltirishdan iborat. Uning diqqat markazida evfemizmlardan amaliy foydalanish samaradorligini ta'minlashning substansial asoslarda hal qilinish muammolari turadi. Tilshunoslikda evfemizm hodisasi keng tadqiq qilingan. Jumladan, L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy, B.A.Larin[1], rus tilshunosligida bu muammo L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov, Y.P.Senichkina[2] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, bu masala o'zbek tilshunosligida N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, Z.Xolmonova, X.Qodirova, Sh.Gulyamovaning ilmiy ishlarida[3] maxsus tadqiq etilgan.

Evfemizmlarning nutq va madaniyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallashi ma'lum. Evfemiya – tilning leksik tizimida muhim o'rin egallovchi, shuningdek, tuzilishiga ko'ra xilma-xillikni aks ettiruvchi lingvistik hodisadir. Evfemizm kishilarga nisbatan ishlatiladigan beodob, qo'pol so'zlar o'rniga emotsional me'yoriy bo'lgan sinonim so'z yoki so'z birikmalarining qo'llanilishidir. Shuningdek, evfemizm so'z ma'nosini yumshatuvchi vazifaga, shuningdek, tilning tarixiy rivojida muhim o'ringa ham ega.

Til va madaniyat o'zaro uzviy aloqada bo'lib, insoniyat jamiyatda muloqot shakli orqali o'zining ichki kechinmalarini ifodalaydi. Anglashiladiki, evfemizmlarni muayyan davrga xos xalq madaniyatining tildagi ko'zgusi yoki boshqa til vositalari, ya'ni jamiyatning ijtimoiy hayotini anglatuvchi so'z va iboralar deb ham atash mumkin. Har bir til egasi bir vaqtda madaniyat tashuvchisi hamdir. Til belgilari madaniyat belgilari vazifasini bajarish qobiliyatiga ega bo'lib, madaniyatning asosiy tushunchalarini ifodalashga xizmat qiladi. Til birliklarining sotsial qiymati, leksik birliklarning sotsial semasi, kasb-hunar leksikasi, terminologik sistemalar, professionalizm kabilar tilning barqaror mikrosistemalari sifatida sistem-struktur yondashuvda ratsional tadqiq tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Bugungi kunda tilga sotsial yondashuv sotsioxarakter kasb etayotganligi kuzatilmoqda va lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini, sotsial tabaqa va toifalar bo'yicha xoslanishini tadqiq etish kuchaymoqda. Tilshunoslikda yangi paradigmalarni o'rganishga yaxshigina ahamiyat berilayotgan bir paytda sotsiolingvistik (sotsial lingvistik emas) yondashuvni. jonli nutqni sotsiolingvistik jihatdan tadqiq qilish, yozma nutq shakllari (asosan, badiiy matnlar)ni sotsiolingvistik o'rganish, shuningdek, lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishini "lison-nutq" tamoyili asosida tekshirish kabi ko'rinishlarda kuzatish mumkin.[4] Ularning har biri turli ijtimoiy muhit va lingvistik an'analar tizimida hukm surayotganini ko'ramiz.

Ma'lumki, muayyan manbalarsiz lisoniy imkoniyatlarning sotsial farqlanishi, xoslanishini o'rganish mumkin emas. Masalan, evfemizmlarning sotsial strukturalarni aniqlash, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni rivojlanuvchi tendensiyalar sifatida kuzatish, sotsial strukturalar orasidagi uzviylik va uzluksizliklarni aniqlash, diniy va e'tiqod tur va xususiyatlari, ularning funksionallashuv holatlari, globallashuv sharoitidagi etnik integratsiyalarni tahlil qilish kabilar muhim. Hodisalarni sinxron va diaxron aspektda, shuningdek, gorizontal (davomiylik) va vertikal (o'zaro ta'sir) holatida o'rganish ham mumkin. Xususan, ayrim mamlakatlarda diniy va irqiy bo'linishlar mehnat taqsimotida ham aks etadi, shuningdek, ko'p millatli davlatlarda millatlararo ham shunday taqsimotlarni ko'rish mumkin. Bu esa barcha tillarda sotsial xoslanishda umumiylikni qidirishni mutlaqlashtirishning ma'qul emasligini ko'rsatadi. Albatta, sotsial strukturaning murakkabligi va ko'p tarkibliligi bilan bog'liqlikda lisoniy imkoniyatlarning funksionallashuvidagi farqlanishlarni sinfiy va antogonistik qarama-qarshiliklar metodologiyasi asosida baholash to'g'ri emas.[5] Buni sotsiolog A.D.Shveytser shu soha bo'yicha talaygina tadqiqotlar muallifi G.V.Osipovning fikri asosida ta'kidlab o'tgan edi: lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishini jamiyat ijtimoiy strukturasining sinfiy farqlanishlaridan emas, balki yoshga asoslanuvchi, boshqa sotsial qatlamlar kasbiy, madaniy va etnomadaniy, jinsiy xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi toifalardan qidirmoq kerak. Sotsiomadaniy farqlanishlar lisoniy imkoniyatlarning funksionallashuvi zamirida yotadi. Bunda sotsial axloq va did me'yorlari, sotsial mo'ljal va maqsadlar, sotsial munosabatlar tarzi, o'zaro va ichki sotsial nazorat, intuitsiya mexanizmlari xususiyatlarini ham ochish lozim bo'ladi.

Sotsial munosabatlarning asosini sotsial dunyoqarash va kompetensiya tashkil qiladi. Sotsial kompetensiya lisoniy kompetensiyaga ta'sir qiladi va bu ikki holatning o'zaro ikkiyoqlama ta'sir mexanizmiga egaligi ma'lum. Tilning sotsial struktura va munosabatlar asosida funksionallashuvi o'zining qorishiq xarakterga egaligini ko'rsatadi. Masalan, amerikalik olim A.D.Grimsho ta'kidlaganidek[6], tilning har qanday holatini, u lison va nutq farqlanishi asosida bo'ladimi, bunda faqat lisoniy yoki nutqiy strukturalar alohida tekshiriladimi, bundan qat'i nazar, muammo lingvistik-sotsial-siyosiy yoki sotsial-psixologik-lingvistik aspektda ko'rilishi lozim. Zero, tilning funksionallashuvini sof lisoniy aspektda kuzatish talqinlarning muqarrar biryoqlamaligi va noadekvatligini keltirib chiqaradi. Sotsial strukturalar bilan tilning funksionallashuvi orasidagi munosabatda aynan mutanosiblikni qidirish maqsadga muvofiq emas. Ular orasida ayniyat bo'lganda, til sotsial omillarning fotonusxasiga aylanishi mumkin edi. Shuning uchun ham

bu ikki struktura orasidagi munosabat deganda nisbiy muvofiqlik haqida gapirish lozim bo'ladi. Tilning leksik-semantik, frazeologik va paremiologik strukturasi, shuningdek, kommunikativ birliklarning grammatik qurilishida lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishi ko'proq va yorqinroq namoyon bo'lishi ko'zga tashlanadi. Demak, bunda lisoniy imkoniyatlarning nominativ va sintaktik variatsiyasi haqida gapirish to'g'riroqdir.

Lisoniy jamiyat hodisasi til lisoniy imkoniyatlarining sotsial xoslanishidagi ilk asosi hisoblanadi. Individlarning mashg'ulotlarida mashg'ulot asosidagi munosabatlar zaminida shakllangan dunyoqarashning o'ziga xosligi sotsial jamoaga birlashishni ta'minlaydi. Mana shu sotsial munosabatlarning ifodalovchisi hamda ta'minlovchisi bo'lgan tilning jamoaviy funksionallashuvi o'z ichida kengayib, tarmoqlanib ketadi. Ana shu holat bir lisoniy jamoada turli qatlam va toifalar mavjudligi (masalan, professionalizm, ilmiy, adabiy yoki san'at sohalarida) til imkoniyatlarining turlicha xoslanishini keltirib chiqaradi. Shuning uchun millat va lisoniy jamoa tushunchalari orasiga aniq bo'lmasa-da, chegaralar tortish mumkin bo'ladi, chunki lisoniy jamoa tushunchasini makro va mikro komponentlari orqali muayyanlashtirishga bo'lgan intilishlar til lisoniy imkoniyatlari funksionallashuvining ichki tarmoqlanishiga ishora qiladi. Masalan, ilmiy sohaning tarmoqlanib ketishi tilning funksionallashuvidagi nutqiy vaziyatlarning ham turlicha bo'lishi bilan belgilanadi va *sotsial-kommunikativ sistema* tushunchasi bilan bog'lanadi.

Nutqiy pragmatik vaziyatning qayta-qayta takrorlanishi natijasida vujudga kelgan barqarorlikni kommunikativ sistema ifodalaydi. Bu barqarorlik sotsial tiplar kommunikativ munosabatlarining davomiyligi va doimiyligi omillari bilan bog'lanadi. Kommunikativ munosabatlarning barqarorlashuvi ham lisoniy imkoniyatlar voqelanishi xususiylashuvining takroriyligi kabi munosabatga kirishuvchilarning lisoniy "ajralishi"ni ta'minlaydi. Tilning funksionallashuvida sotsial rollarning taqsimlanishi va bu taqsimotning barqarorligi, nisbiy mutlaqligi ham o'ziga xos o'ringa ega.

Umuman olganda, til lisoniy imkoniyatlarining sotsial xoslanishini namoyon qiluvchi bosh sababni sotsial asoslardan qidirish to'g'ri bo'ladi va sotsial asoslarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishida evfemizmlarning ta'siri sezilib turadi.

[1]Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Учен. зап. Ленингр. ун-та. №301: Сер. филол. наук: Вып.№60. – Ленинград: ЛГУ, 1961. – С. 110–124.
[2]Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // www/Philology.ru; Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка. – Москва: Высшая школа, 2006. – 151 с.
[3]Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф. дис. …канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 24 с. // Omonturdiyev A. Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari: filol. fan. nomz. …diss. avtoref. – Toshkent,1997. 23-bet. // Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida): filol. fan. nomz. …diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 252 b.; Omonturdiyev A. O'zbek nutqining evfemik asoslari. – Toshkent: Xalq merosi, 2000. – 128 b.
[4] Gumperz J. J. Linguistic and social interaction in two communities. – American anthropologist, 1964. V. 66. No.6, Part 2.; Gumperz J.J. The social group as a primary unit of analysis in dialect study. – In: Social dialects and language learning. Champaign, 1965; Grimshaw A.D. Sociolinguistics. – In: Advances in the sociology of language. V. I. The Hague, 1971; Фишер Дж. Л. Синтаксис и социальная структура. Трук и Понапе. В кн.: Новое в лингвистике. Вып. VII. – Москва, 1975.
[5]Жирмунский В.М. Проблемы социальной дифференциации языка. В кн.: Язык и общество. – Москва, 1968, с. 32; – Жирмунский В.М. Марксизм и социальная лингвистика. В кн.: Вопросы социальной лингвистики. – Ленинград, 1969. – С. 22–23.

Davronbek ORIPOV,
"Ishonch" va "Ishonch-Doveriye"
gazetalari tahririyati muxbiri

"O'G'UZNOMA" VA "DADA QO'RQUD": FIKR VA QARASHLAR NOMUTANOSIBLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiylarning umumiy dostonlari, noyob asarlar – "O'g'uznoma" va "Dada Qo'rqud" eposlaridagi tarixiylik, motivlar talqini, ular haqidagi mutaxassislarning turfa qarashlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *epos, payg'ambar, turkiyshunos, mifologiya, yodgorlik, "Avesto", epik ijod, qavm, matn.*

Annotation. *This article briefly examines the history of the common epics of the Turks, unique works – the epics "Oguznoma" and "Dada Korkud", the interpretation of motives and various views of experts on them.*

Key words: *epos, prophet, Turkologist, mythology, monument, "Avesta", epic creativity, people, text.*

Аннотация. *В данной статье кратко рассматривается история общих турецких эпосов, уникальные произведения – былины «Огузнаме» и «Дада Коркут», трактовка мотивов, различные взгляды на них знатоков.*

Ключевые слова: *эпос, пророк, тюрколог, мифология, памятник, "Авеста", эпическое творчество, люди, текст.*

Turkiylarni dunyo sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan yunonlar, misrliklar, hindlar, xitoyliklar, rimliklar kabi ko'plab xalq, elat hamda millatlar qatoriga qo'shishimiz mumkin. Ularning etnik kelib chiqishi, asl ildizi qayerga borib taqalishi haqida olimlar tomonidan juda ko'plab ilmiy faraz, taxmin hamda fikr-mulohazalar o'rtaga tashlangan. Ba'zilari haqiqatga yaqin bo'lsa, ba'zilari munozaratalab.

Lekin shunisi ayni haqiqatki, umumturkiylar tarixida "O'g'uznoma" va "Dada Qo'rqud" kabi eposlarning ahamiyati, ular zamirida ajdodlarimizning kim ekani, qayerlarda umrguzaronlik qilganliklari anchayin oydinlashadi.

Keling, avvalo, "Dada Qo'rqud" haqida fikr yuritsak. "Kitobi Dada Qo'rqud" yoxud "Kitab-i Dadam Qorqud ala lisan-i taifa-i Og'uzan" (O'g'uz qabilalarining tilida Dadam Qo'rqud kitobi) turkiylarning eng qadimiy yozma obidalaridan biri hisoblanadi. Voqealar hikoyanavisi sifatida ko'riladigan Qo'rqud ota nabiyimiz Muhammad (s.a.v) zamondoshi ekanligi e'tirof etiladi va bu kitob muqaddimasida ham o'z aksini topgan.

Rasulullоh (s.a.v) 571–632-yillar oralig'ida yashaganlarini inobatga olsak, Qo'rqud ota ham taxminan shu yillarda yashab, umrguzaronlik qilgan. Manbaga tayanadigan bo'lsak, u zot turkiylar tomonidan oxir zamon payg'ambari yoniga elchi sifatida yuborilgan. Katta ehtimol bilan Allohning Rasulini ko'rib, muborak suhbatlariga manzur bo'lgan bo'lishi kerak.

Olimlarning qayd etishicha, "Kitobi Dada Qo'rqud" tarkibiga kirgan doston hamda hikoyalarning ayrimlari VII–VIII asrlardayoq og'zaki ravishda yaratila boshlangan. Yozma yodgorlik o'z tarkibiga 12 bo'y (hikoya)ni qamrab olgan.[1] Bular: "Dirsaxon o'g'li Bo'g'ochxon dostoni", "Solor Qozon uyining talon-toroj bo'lganligi haqida doston", "Boyburabekning o'g'li Bamsi Bayrak dostoni", "Qozonbek o'g'li O'rozbekning tutqun bo'lganligi", "Duoxo'ja o'g'li Dali Domrul", "Kanglixo'ja o'g'li Xonto'rali", "Qozilikxo'ja o'g'li Yaganak dostoni", "Basatning Tepako'zni o'ldirganligi", "Bagil o'g'li Emron dostoni", "Ushunxo'ja o'g'li Sakrak", "Solor Qozonning tutqun bo'lgani va o'g'li O'roz qutqargani dostoni" hamda "Icho'g'o'zning Tasho'g'o'zga itoat etmagani va Bayrakning o'limi haqida".

Dada Qo'rqud dostonlari XI asrdan boshlab qog'ozga tushirila boshlangani qayd qilingan. Bizgacha yetib kelgan nusxalar esa XVI asrdan ko'chirilgan qo'lyozmalarga asoslangani e'tiborlidir.

Hozirgacha bizga Dada Qo'rqud dostonlarining ikki nusxasi yetib kelgan. Birinchi nusxa Drezden (Germaniya) nusxasi bo'lib, 1 muqaddima va 12 bo'ydan iborat. Ikkinchi nusxa – Vatikan nusxasi bo'lib, u 1 muqaddima va 6 bo'ydan iborat. Ayon bo'lyaptiki, har ikkala nusxa ham nisbatan qadimiyroq nusxadan olib tayyorlangan. Ammo u haqida deyarli ma'lumotga ega emasmiz.

1939-yili atoqli turkiyshunos H.Arasli yuqorida qayd etilgan nusxalar asosida Dada Qo'rqud hikoyalarining nisbatan to'liq uchinchi nusxasini yaratadi.

Kitobdagi bo'ylarning sujeti, motivlar, qahramonlar xarakteriga diqqat bilan razm solinsa, ular Gomerning "Odissey"i kabi miloddan avvalgi asrlarga borib taqalishini anglash qiyin emas.

Ushbu noyob asarni ilk bora tadqiqotga tortgan nemis olimi Fridrix fon Ditsinning fikricha, 8-bo'ydagi Tepako'z obrazi "Odissey"dagi Polifemdan ko'ra qadimiyroq.

"Kitobi Dada Qo'rqud" azaldan olim-u turkiyshunoslarni o'ziga jalb etib kelgan. V.Bartold, T.Noldeke, E.Rossi, H.Arasli, V.Jirmunskiy, A.Kononov, A.Yakubovskiy, Kilisli Rifat singari olimlarning ushbu beqiyos nusxani o'rganishga qo'shgan hissasi katta.

Tabiiyki, ushbu noyob qo'lyozma o'zbek olimlarining ham tadqiqotlaridan chetda qolmagan. Nasimxon Rahmonov, Abdurashid Abdurahmonov singari turkiyshunoslar "Kitobi Dada Qo'rqud" asari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qilishgan.

Ustozlarning muborak an'analarini davom ettirgan holda, bizda ham ushbu asar yuzasidan bir qancha fikr-mulohazalar tug'ildi.

Bugungi kunda "Kitobi Dada Qo'rqud" asari ko'proq ozarbayjon xalq adabiyoti va ozarbayjon xalqiga nisbat beriladi. To'g'ri, o'g'uz xalqlari deganda asosan, ozarlar, turklar tushuniladi. Ammo e'tibor berilsa, epos sujeti yaratilgan davrlarda turkiylar yagona millat sanalgan, o'zbek, ozar, turk deya alohida e'tirof etilmas edi. Bundan tashqari, asarda ko'proq ajdodlarimizga xos so'zlar, atoqli shaxslar ko'zga tashlanadiki, bunga aslo ko'z yumib bo'lmaydi.

"Kitobi Dada Qo'rqud" asarini keng tadqiq etgan V.Jirmunskiy fikriga ko'ra, Aruz (O'roz) Afrosiyob (Alp Er To'nga)ning o'g'li deb ko'rsatilgan. R.O'zdek qayta tiklagan "Alp Er To'nga" dostonida Alp Aruz Afrosiyobning ukasi, Peshengning ikkinchi o'g'lidir. Shuningdek, aksariyat turkiyshunoslarning fikriga ko'ra, Solor Qozon – Afrosiyobning ikkinchi nomi. Bundan tashqari, ushbu obraz bahodirligiga ko'ra Alpomish va Manasni eslatib yuboradi.

E'tiborimizni tortgan jihatlardan yana biri, yozma yodgorlikda mifologik unsurlar ham ko'zga tashlanadi. Misol uchun, Dali Do'mrul – Azroilni eslatsa, Tepako'z – Polifemni yodga soladi. Shuningdek, asarda tug'ilish, o'lish, ajal, osmon, yer, samoviy jismlar haqida ham ajdodlarimizning tasavvurlari haqida muayyan fikrga ega bo'lish mumkin.

Turkiy xalqlarning kitobiy dostonlaridan ikkinchisi "O'g'uznoma" dostonidir. U eski uyg'ur-turk yozuvida bitilgan bo'lib, asl matni hozirda Parij milliy kutubxonasida saqlanadi.

Ushbu asar haqida fikr yuritganda shubhasiz, O'g'uz shaxsi to'g'risida, turkiy qavmlarning etnik jarayoni to'g'risida so'z ketadi.

Urug'chilik jamiyatidagi mif va afsonalar asos bo'lgan mazkur kitobiy doston shakl jihatidan Kul tigin yodgorligini yodga soladi. Sababi, undagi mifologik qatlam, O'g'uzning aniq bir geografik muhitdagi faoliyati shundan dalolat beradi. Kul tigin yodgorligi boshlanmasida mifik jarayon (Tangri – ota, yer – ona) yetakchilik qilganiday, "O'g'uznoma"ning boshlanmasida ham shunday unsur mavjud.[1]

Filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmonovning fikricha, "O'g'uznoma"dagi motivlarning aksariyati bizga, ya'ni ota-bobolarimiz yashagan mintaqaga xos. Masalan, "Dostondagi diqqatga sazovor yana bir mifologik motiv O'g'uzning o'rmonda bahaybat yirtqich bilan kurashuvidir. Bu kurash motivining ildizi Markaziy Osiyodagi qavmlar epik ijodidagi ezgu va yovuz ruhlar o'rtasidagi kurashga borib taqaladi. Jumladan, Avestodagi yovuzlik timsoli bo'lgan Axriman bilan ezgulik timsoli Xurmuzdning kurashi bunga misol bo'la oladi".

Ma'lumingizkim, zardushtiylik ta'limotining vatani sifatida ham O'rta Osiyo, aniqrog'i Xorazm diyori e'tirof etiladi.

"O'g'uznoma"ni ikki qismga bo'lib o'rganish mumkin. Dastlabki qism mifologik qatlamdan iborat bo'lib, unga O'g'uzning g'ayritabiiy tug'ilishi va ulg'ayishi, yovuz shunqorga qarshi kurashishi va uni o'ldirishi lavhalari kiradi.

Ikkinchi qism esa tarixiy dostonlarga xos voqealardan iborat. Unda O'g'uzning uylanishi, farzandlarining tug'ilishi, jang lavhalari va turli yurtlarni bosib olishi, farzandlariga o'z qo'l ostidagi yurtlarni bo'lib berishi lavhalari aks etgan.

Ba'zi xorijlik olimlarning nuqtayi nazari fikrlarimizga zid ekanini qayd etish joiz. Xususan, I.Markvarta O'g'uzxonni Chingizxon bilan, Rizo Nosir esa Aleksandr Makedonskiy bilan bog'laydi. Yuqoridagi mualliflardan farqli o'laroq G.N.Potanin O'g'uz xoqonni mo'g'ullarning Van Kir va Uxir Bamaxon hamda qirg'iz eposlaridagi Jonibek obrazi bilan tenglashtiradi.[2] Albatta, ushbu mulohazalar munozaratalab. Ularni tarixiy hamda mantiqiy jihatdan asoslash, manba keltirish lozim.

Umuman olganda, har ikkala kitobiy doston turkiylar, xususan, o'zbek millati taraqqiyoti, etnik kelib chiqishi, an'analari haqida qimmatli ma'lumot beruvchi bebaho yodgorliklardir. Ushbu ikki asar haqidagi xulosalar ularni yangi bosqichda, yangi yo'nalishlarda o'rganish, ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Ayon bo'ladiki, hozirgacha har ikki noyob asar haqida yakdil fikr, so'nggi so'z aytilmagan. Demak, olim-u mutaxassislar gardanida hali ilmiy izlanish, tadqiqot hamda kashfiyotlar yuki turibdi.

[1]Qo'rqut ota kitobi. – "Yoshlik", 1988. 5-, 6-, 7-, 8-sonlar.
[2]O'g'uznoma. O'zbek tiliga ag'daruvchi N.Rahmonov. – "Sharq yulduzi", 1989, № 4, 165–171-betlar.

Dilafruz MUQIMOVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

KAMOL XO'JANDIYNING G'AZAL JANRI RIVOJLANISHIDAGI HISSASI

Annotatsiya. *Asrlar osha fors-tojik she'riyatida nazira, tatabbu va javob tariqasida bitilgan she'rlar ijodkorlar e'tiborida bo'lib kelgan bo'lsa-da, bu borada jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilgani bizga ma'lum emas. Maqolada Kamol Xo'jandiydan XV–XVI asr shoirlarining ta'sirlanishi hamda Kamol Xo'jandiy she'riyatida mahorat bilan qo'llanilgan qofiya, radif, obraz va timsollar, badiiy ifoda hamda tashbehlar ularning ijodiga qanday ta'sir ko'rsatganligi aniq misollar bilan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *nazira, tatabbu, radif, obraz, qofiya, husni matla', maqta', taxallus, Davlatshoh Samarqandiy, Zabehulloh Safo, Sirus Shamiso.*

Annotation. *Although poems written in Persian-Tajik poetry in the form of nazira, tatabbu and answer have been the focus of writers' attention for centuries, we do not know if there has been any serious research on the subject. The article provides specific examples of the influence of Kamol Khojandi's works on poets of the 15th-16th centuries, and analyzes how rhymes, radiphs, images and symbols, artistic expression and metaphors skillfully used in Kamol Khojandi's poetry influenced their work.*

Key words: *nazira, tazmin, tatabbu, radiph, image, rhyme, husni matla', maqta', takhallus, Davlatshah Samarkandi, Zabehullah Safo, Sirus Shamiso.*

Аннотация. *На протяжении веков персидско-таджикские стихотворения, написанные в форме назира, татаббу и ответа, находились в центре внимания исследователей, однако неизвестно, проводились ли серьезные исследования по этому вопросу. В статье приводятся конкретные примеры влияния творчества Камола Ходжанди на поэтов XV–XVI веков и показано, как повлияло на их творчество используемые в поэзии Камола Ходжанди рифмы, радифы, образы и символы, художественное выражение и метафоры.*

Ключевые слова: *назира, татаббу, радиф, образ, рифма, хусни матлаъ, мактаъ, тахаллус, Давлятшах Самаркандий, Забехуллах Сафо, Сирус Шамисо.*

Shayx Kamol Xo'jandiy yuqori ma'naviyati, insoniyligi, g'oyaviy ustuvorligi bilan fors-tojik adabiyotida muhim o'rin egallagan shoirlardan bo'lib, o'z zamonasining buyuk shoirlari Rudakiy, Firdavsiy, Nosir Xusrav, Umar Hayyom, Zahiriy Foryobiy, Anvariy, Xojoniy, Nizomiy Ganjaviy, Attor, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy va boshqalardan saboq olgani tadqiqotchilar tomonidan ko'p marotabalab qayd etilgan. Shuningdek uning maqomi, martabasi va latif suxani haqida juda ko'p tazkiralar mualliflari to'liq ma'lumot berishgan.

Davlatshoh Samarqandiyga ko'ra, "...zamonasining ulug'i, odillar maqbuli, xos-u avom panohgohi, davr ako-

birlari sardori edi. Aziz tab'i ko'proq shoirlikka moyilligi bois, uning sharofatli zikri shuaro guruhida yozilayotir. Shayxning valiylik va irshodlik darajasi ortiq bo'lib, shoirlik esa u erishgan martabalarining pastidir" [1:305]. Shayx Kamol shaxsiyati va latif ijodiga berilgan bu ta'riflarga bugungacha tadqiqotchilar xolisona yondashib, uning she'riyati tuzilishi unsurlariga aynan mana shu ta'rifilar doirasida qarab kelganlar.

G'azal janrining paydo bo'lishi, rivojlanishi haqidagi masalalar Shibliy No'moniy, Y.E.Bertels, I.S.Braginskiy, Zabehulloh Safo, Said Nafisiy, Sirus Shamiso, Abdulg'ani Mirzoyev va boshqa adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida keng yoritib berilgan. Bu tadqiqotchilar fikriga ko'ra, VI asr boshlarida, ya'ni Sanoiy ijod etgan davrgacha g'azal shaklidagi she'r kam uchraydi. Agar Sanoiygacha bo'lgan mumtoz shoirlar ijodiga e'tibor qaratsak, ba'zi devonlar, masalan, Nosir Xisrav va Azraq Hiraviy, Lome'i Gurgoniylar devonida g'azal uchramaydi. Rudakiy, Unsuriy va Manuchehriylar devonida esa 2 yoki 3 g'azal ko'zga tashlanadi, xolos. [2:35]

Rudakiy davridagi g'azalnavislik to'g'risida Shibliy No'moniy bildirgan munosabatga ko'ra, u davrda g'azal mustaqil janr sifatida paydo bo'lmagan, qasidaning boshlanishidagi tashbib (qasida avvalida kelgan yor, tabiat va boshqa narsalar vasfi) g'azal deb atalgan. [3:55] Sirus Shamisoning qayd etishicha, g'azal alohida janr bo'lib amal qilgunicha, tag'azzul shaklida mavjud edi. Tag'azzul qasida avvalida kelib, qasida boshlanishidagi baytda ishq, ma'shuqa vasfi yoki tabiat va shunga o'xshash narsalar haqida so'z yuritib, keyin madh etilayotgan obrazga bog'liq bir yoki bir-ikki misra bayt aytilgan. Ayni shu baytlarni tag'azzul va o'sha bir yoki bir-ikki misrani taxallus (rahoiy va gurez (qochirim) ma'nosida) deb atashgan. Bundan g'azal kelib chiqishi qasidaning tag'azzulidan ekani ma'lum bo'ladi.

Rudakiy adabiy merosida kuzatilgan va XII asrda kuchaygan g'azalning har bir bayti alohida mustaqil ma'noga ega bo'lish holati va ilk unsurlar Sa'diy g'azaliyotida ancha kengaydi. [4:118–119] Darhaqiqat, Sa'diy va ungacha bo'lgan shoirlar g'azallaridan ko'rinadiki, u g'azal tili, ma'no va tuzilishi, baytlardagi mustaqil ma'no borasida arzirli xizmat qilgan va uning yo'nalishini keyingi davr shoirlari ham davom ettirganlar. Masalan, XIV asrda Sa'diy ilgari surgan g'azalnavislik yo'nalishi nafaqat qabul qilindi, balki g'azalda taxallus qo'llash, baytlar miqdoriga rioya qilish va baytda alohida mustaqil ma'no bildirishi yo'qotilishi kabi unsurlar bu davr g'azalnavislari ijodiga mansubdir. Hofiz g'azallaridan aksariyat baytlar alohida ma'no kasb etadi. Masalan, "Kanori obu poi bedu tab'i she'ru yori xush / *Muoshir-dilbare shirinu soqiy-guluzore xush/*" [5:354] matla'lik g'azalida baytlar shu darajada mustaqil ma'noga ega ediki, matla' bilan maqta'dan tashqari, boshqa har qanday bayt g'azaldan ajratib olinsa, asosiy mazmunga putur va g'azal tuzilishiga shikast yetmaydi. Bu yerda shuni ilova qilish mumkinki, bu davrning ulug' g'azalnavislari, xususan, Hofiz g'azallarida g'azal baytlarining mustaqil ma'noga ega bo'lishi g'azalnavislikning qonuniyati deb qabul qilingandi. Bu davrning boshqa bir namoyandasi Xoja Kamol Xo'jandiy g'azaliyotida ham bu qonuniyatga amal qilinib, g'azal baytlari miqdoriga qat'iy rioya qilingan, ya'ni aksari g'azallari yetti bayt miqdorida ijod qilingan. Buni shoirning o'z ishoralarida ham ko'rishimiz mumkin. Kamol Xo'jandiy g'azaliyotining tuzilish xususiyatlari va qofiya, radif, husni matla', maqta', taxallus, g'azal baytlari miqdori va boshqalarni ushbu mavzu doirasida tahlil qilamiz. Shoir o'zining aksari g'azallarida bunga ishora qilgan.

Xoja Kamol Xo'jandiy qofiyalanuvchi so'zlarni qo'llash masalasida juda zakiy ijodkorlar sirasidan bo'lib, u ishlatgan qofiyalar musiqiyligi, bayt ma'nosini kuchaytirishi bilan g'azalni mukammallashtirgan. Xoja Kamol Qur'on oyatlarini ham qofiya o'rnida o'rinli qo'llagan:

Bigo', ki ganji suxan az ki yofti tu, Kamol?
Ba yumni himmati farmoni kunfakoni yoft. [6:293]
Mazmuni:
Aytingchi, so'z xazinasin kimdan topdingiz, Kamol?
Kunfakoniy buyrug'in saxiyligi tufayli.

Bu o'rinda Qur'onning 117 – Baqara surasida "kun fayakun" ("Bo'l!") (dedi Xudo) va bo'ldi") qofiya o'rnida ishlatilgan. "Lomakoni", "injahoni", "posboni", "sargaroni", "javoni", "zindagoni" kabi so'zlar bu g'azalning qofiyalaridir.

Shayx Kamol zulqofiyatayn g'azallar muallifidir. A'loxon Afzahzod o'z risolasida shoirning "Oshiqonat ba saharho, ki duo mego'yand, Ba duo bo'i tu az bodi sabo mejo'yand" [7:142] matla'li zulqofiyatayn g'azali haqida ma'lumot bergan. Adabiyotshunos A.Sattorzoda esa o'z maqolasida Xojaning "Hargizam ro'zi nadod, on turfai Bag'dod dod, Xirmani ummedro z-on dodaam bar bod bod" [8:13] matl'asi bilan boshlanuvchi zulqofiyatayn g'azalini keltirgan. Ishora qilingan bu ikki g'azaldan boshqa zulqofiyatayn g'azal Kamol devonida ortiq uchramaydi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, radif Kamol g'azaliyotida alohida mavqe'ga ega bo'lib, u shoir ash'orida ohanglilik, latofat va chiroyli bayon uchun xizmat qilgan. Eronlik tadqiqotchi Sirus Shamiso shoir g'azaliyotida qofiya va radif haqida shunday degan: "Uning ba'zi g'azallarida qofiya va radiflar juda qiyindir" [2:131]. Kamol g'azaliyotida radifning muhim xususiyatlari borasida adabiyotshunos A'loxon Afsahzod o'z risolasida [7:194–196), radifning tuzilish jihatidan har xil ma'no keltirib chiqarishi, badiiy san'atlar paydo qilishi va boshqalar haqida Asadulloh Navro'ziy [9:45–49], Shoira Po'lotova [10:299–304], Abdunabi Sattorzoda [8:5–15] o'zlarining alohida maqolalarida fikr yuritganlar. Shoira Po'lotova o'z maqolasida shoirning 2011-yilda tartib berilgan devoniga asoslangan holda [11] shoirning 1061 ta g'azalidan 725 tasi radifli deb keltirgan. Ammo bizning ishimiz uchun 2015-yilda tartib berilgan Kamol devoni [6] asos qilib olindi. Unga ko'ra, 1076 ta g'azal bo'lib, shundan 658 tasi radiflikdir. Miqdor jihatdan radiflik g'azallar kam bo'lsa ham shu sanoq to'g'riroqdir. Xoja Kamol radiflarining tuzilish jihati (so'zlar adadi) tahlillarda aniq ko'rsatilmagan.

Kamol g'azaliyotida sodda radiflar miqdori ko'p bo'lib, ular maxsus ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shoir o'z g'azallarida sodda radiflardan tashqari murakkab radiflar ham keltirgan bo'lib, bu uning g'azallaridagi so'zlar jozibasini orttirgan. Tojik adabiyotshunosi A'loxon Afsahzod bu mavzuga doir qaydlarida shunday yozadi: "G'azalning ikki muhim jihati rivojlanishida, ya'ni aksari yetti baytli bo'lishida va g'azal maqta'sida taxallus kelishida Kamol Hofiz va boshqa zamondoshlariga qaraganda ko'proq his-

sa qo'shgan. Shuning vositasida u g'azal an'anaviyligi va qoidalari tarqalishida munosib xizmat ko'rsatgan. Kamol fors-tojik g'azaliyoti shakllanishi va takomilida munosib mavqega ega" [7:75]. Aslida ham Shayx Kamol g'azalda shunday uslubda ijod qilishi, chiroyli matla' va maqta'si, g'azalda taxallusni keng qo'llashi va boshqa jihatlari bilan bu an'ananing tashkil topishi va rivojlanishiga asos soldi.

Husni matla'. Qasida yoki g'azal matla'si tarzi, muvofiq kelishi dilga yoquvchi bo'lishi kerak. Bu esa tinglovchiga shunday ta'sir qilishi kerakki, u she'r davomini tinglashga rag'bat va e'tibor sezsin. [12:200–201) Xoja Kamol g'azallarining aksari go'zal matla' bilan boshlanadi. Masalan:

Matla'i anvori husn ast on ruxi chun oftob,
Matla'e guftam bad-in xubi, ki mego'yad javob? [6:134]
Mazmuni:
Quyosh kabi ruxsoring husn anvorining boshlanishidur,
Matla'yimni yaxshi so'zlar bilan boshladim, javobini kim aytadur?

***

In chi majlis, chi bihisht, in chi maqom ast in jo?!
Umri boqi, ruxi soqi, labi jom ast in jo. [6:78]
Mazmuni:
Bu qanday majlis, qanday jannat, qanday maqom bu yerda?
Boqiy hayot, soqiy chehrasi, qadahning labi bu yerda.

Shoir matla'da tashbeh, tavsif, istiora va tanosub, chiroyli mutanosiblik va musiqiylikni juda o'rinli qo'llab, o'quvchini o'ziga jalb qila olgan. Kamol Xo'jandiy chiroyli bayon borasida benazir edi. Mutolaa natijasida aniqlanishicha, shoirning 576 ta g'azali chiroyli matla' bilan boshlanib, bu Xoja Kamolning juda nazokatli shoir ekanidan dalolatdir.

Husni maqta'. Uni go'zal yakun deb atashadi. Qasida yoki g'azalning oxirida chiroyli bayt keltirib, so'zni tugatib, tinglovchi va o'quvchida asar haqida yoqimli taassurot qoldirish husni maqta'dir. [12:201]

Ishonch bilan aytish mumkinki, Kamolning deyarli barcha g'azallari shunday fazilatga ega bo'lib, o'quvchi bundan lazzat oladi. Masalan:

Kamol az podshah dorad farog'at,
Ba vaqti xesh o' ham podshoh ast. [6:266]
Mazmuni:
Kamol podshohdan istirohatdadur,
O'z vaqtida u ham podshoh bo'lmishdur.

Husni taxallus. "Tarjumonu-l-balog'a"ning muallifi Muhammad Roduyoniy bu borada shunday yozadi: "Shuningdek, shoir oxirgi baytni chiroyli va kuchli aytishga urinadi, bunda taxallusni go'zalroq keltirishi balog'at va san'atdir" [13:57].

Xoja Kamol bu san'atni o'z g'azaliyotida keng qo'llagan. Uning g'azaliyotida husni taxallusli maqta' bilan tugallanuvchi g'azallar soni 1038 ta bo'lib, maqta'dan oldin 23 ta g'azal, maqta'dan oldin ikki baytli 2 g'azal, maqta'dan oldin 3 baytli 1 g'azal va jami 12 ta g'azal betaxallus ekanligini kuzatdik.

Shayx Kamol Xo'jandiy g'azaliyotida yetti baytlik g'azallar birinchi o'rinni (yetti baytli g'azallari miqdori haqida shoir o'z she'rlarida qayta-qayta ishora qilgan), olti baytlik g'azallar ikkinchi o'rinni, sakkiz baytlik g'azallar uchinchi o'rinni, to'qqiz baytlik g'azallar to'rtinchi o'rinni va besh baytlik g'azallar oltinchi o'rinni egallaydi. Yetti baytlik g'azallarning birinchi o'rinda turishi shoirning yetti baytlik g'azallar aytishga moyilligi kuchli ekanligidan dalolatdir. Marhum adabiyotshunos Abdumannon Nasriddinov bu borada shunday degandi: "Odatda, g'azal 7–11 baytni tashkil qiladi. 4–5 baytlik va 15–20 baytlik g'azallar ham kam emas. G'azalchilikda yigirmadan ortiq baytli g'azallar ham mavjud. Shayx Kamol yagona g'azal qolipi bo'lishini istadi va u yetti baytlik g'azallar yozdi. Bunga nima sabab ekanligi ma'lum emas. Balki bu raqamning muqaddas raqamlardan sanalganligi (Qur'oni Karimning ilk surasi yetti oyatdan iborat, tasavvufning yetti vodiysi, yetti yulduz, yetti iqlim ...) shoirning g'azaliyotga uni joriy qilishiga olib kelgandir. Har holda yetti baytlik g'azallar unga yoqardi" [14:578].

Abdumannon Nasriddin qarashlariga qo'shilgan holda shuni ilova qilamizki, shoirning irfoniy shaxsiyati va yetti raqamiga uning haddan tashqari ko'ngil qo'yishi Qur'onning yetti oyatlik suralariga bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki, Qur'onning 107 – Moun surasi ham yetti oyatdan iborat bo'lib, unda qazo va qadarga ishonish, yetimlarga ozor berish, riyokorlik hukmi va boshqalarga ishora bor. Bu ma'nolarni shoirning aksari g'azallarida uchratish mumkin va ular ushbu suraga ma'no jihatdan yaqindir. Masalan:

Mah tal'ati turo ba tamomi g'ulom shud,
Dar matlai suxan suxani mo tamom shud. [6:258]
Mazmuni:
Oy chiroyingni ko'rib chin yurakdan g'ulom bo'ldi,
G'azal matla'yida aytur so'zimiz tamom bo'ldi.
***
Zohid az ro'i tu to chand maro tavba dihad?
Go' duo kun, ki Xudoyash zi riyo tavba dihad. [6:523]
Mazmuni:
Zohid qachongacha siz tufayli mendan tavba talab qilsin?
Ayting, duo qilsin, tavba uchun Xudoga ibodatda bo'lsin.

Shunday qilib, Xoja Kamol g'azallarining tuzilish unsurlarini bir necha tomondan ko'rib chiqdik. Xulosa qilib aytganda, shoir g'azallarida chiroyli radiflar keltirish, maxsus o'z uslubini yaratish (jumladan, til tuzilishining mustaqil va nomustaqil so'z turkumlari bilan bog'liqligi bo'yicha), turli mavzularni muayyan qolipga sig'dirish (yetti baytlik), 99,9 foiz g'azallarida taxallusni keng qo'llash bilan Kamol o'z asrida g'azalnavislik shakllanishi va rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shdi. "Nishtari ishq" tazkirasi muallifi Hasanqulixon Azimobodiy Xoja Kamolning g'azanavislikni yuqori cho'qqiga chiqarishdagi xizmatlarini shunday e'tirof etadi: "Shayx g'azalnavislikda o'z taxallusi bilan balog'at poyasiga yetdi. Jumladan, uning iste'dodli salaflari uning xushkalomligini ta'riflardilar. Haqiqatdan, uning kalomi nihoyatda ravon va shirin, jonbaxsh edi" [15:79].

Shuni alohoda qayd etish lozimki, g'azal janrining takomillashuvi, kashf etilishi va tizimga solinishi Rudakiydan boshlanib, Shayx Kamolda oxiriga yetdi. Ularning har biri

bu adabiy janr tuzilishi va timsollar kashfida o'ziga xos hissa qo'shdi.

Fors-tojik adabiyotining XV–XVI asrlar rivojlanish jarayoniga e'tibor qaratilsa, ushbu davrda shoirlar o'rtasida o'zaro nazirago'ylik va tatabbu bog'lash hodisasi ancha kuchli an'anaga aylanganini kuzatish mumkin. Ana shu xil ajoyib an'ananing rivojida zamon shoirlaridan Ismat Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy. Xayoliy Buxoriy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Saqqoyi Buxoriy, Badriddin Hiloliy va boshqa qator shoirlar ulkan hissa qo'shdilar.

Kamol Xo'jandiy shunday shoir ediki, uning she'riyatdagi uslubi go'zallikda beqiyos bo'lib, ayniqsa, XV–XVI asrlarda ko'plab qalam sohiblari uning uslubiga payravlik qilishni odatga aylantirgan edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samarqandi, Davlatshoh. Tazkiratu-sh-shuaro / Tahiyai Muxlisa Nurulloyeva. – Xo'jand: Noshir, 2015.
2. Shamiso, Sirus. Sayri g'azal dar she'ri forsi. – Tehron, 1380/2001.
3. No'moni, Shibli. She'ru-l-Ajam / Tarjumai Saidmuhammad Taqii Faxri Doii Geloni. J.1. – Dushanbe, 2016.
4. Mirzoyev, Abdulg'ani. Mas'alahoi ro'zgor va osori Abo'abdullohi Ro'daki (majmo'ai risola va maqolaho). – Dushanbe: Adib, 2014.
5. Sherozi, Hofiz. Kulliyot / Tahiya va muqaddimai J.Shanbezoda. – Dushanbe: Irfon, 1983.
6. Xujandi, Kamol. Devon / Tahiyai Abdujabbori Surush. – Xo'jand: Xuroson, 2015.
7. Afsahzod A. Kamoli Xujandi – ustodi g'azal. – Dushanbe: Devashtich, 2005.
8. Sattorzoda, A. Lutfi suxani Kamol yo muqaddimae bar hunari shoirii o' // Faslnomai ilmi-adabii Kamoli Xujandi. №4 (8). – Xo'jand: Noshir, 2016.
9. Navro'zi, Asadulloh. Kamoli Xujandi – xoliqi radifhoi latif // Mavodi konferensiyai baynalmilalii "Kamoli Xujandi: tashakkuli adabiyotshinosi va ra-vobiti adabi". – Xo'jand: Noshir, 2016.
10. Po'lodova Shoira. Mavqei radif dar g'azaliyoti Kamoli Xujandi // Mavodi konferensiyai baynalmilalii "Kamoli Xujandi: tashakkuli adabiyotshinosi va ra-vobiti adabi". – Xo'jand: Noshir, 2016.
11. Xujandi, Kamol. Devon / Tahiyai Surush, A., Saidov S. – Xo'jand: Andesha, 2011.
12. Humoi, Alloma Jaloluddin. Fununi balog'at va sanooti adabi. – Tehron, 1389.
13. Roduyoni, Muhammad. Tarjumonu-l-balog'a / Bo tasheh va ehtimomi Ahmadi Otash. – Tehron, 1362.
14. Nasriddin, Abdulmannon. Kulliyoti osor. Dar haft mujallad. J.1. – Xo'jand: Xuroson, 2013. 608-bet.
15. Muqaddimai kamolshinosi / Tahiyai Bahrom Rahmatov va Izzatbek Sheximov. – Xo'jand: Noshir, 2015. 504-bet.

Maxfirat QURBONALIYEVA,
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

MOVAROUNNAHR TAZKIRANAVISLIK TARIXIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. *Maqolada fors-tojik adabiyoti tarixida muhim adabiy manbalardan biri hisoblangan tazkiralar haqida so'z yuritilgan. Unda zikr etilgan tazkiralar Movarounnahr tazkiranavisligining yorqin namunasi sanalib, ularning har birida boshqa tazkiralarda uchramaydigan, ya'ni o'sha davr shoirlarining hayoti va ijodiga doir qimmatli ma'lumotlar mavjud.*

Kalit so'zlar: *tazkira, Movarounnahr, "Chahor maqola", "Lubob-ul-albob", "Muzakkir-ul-ahbob", "Tuhfat-us-surur", "Tazkirat-ush-shuaro".*

Annotation. *The article talks about tazkiras (anthologies), one of the most important literary sources in the history of Persian-Tajik literature. The anthologies presented in the article are a vivid example of the Transoxianan anthology writing practice, each of them contains valuable information about the life and work of the poets of that time, which are not found in other anthologies.*

Key words: *anthology, Transoxiana, "Chahor maqola", "Lubob-ul-albob", "Muzakkir-ul-ahbob", "Tuhfat-us-surur", "Tazkirat-ush-shuaro".*

Аннотация. *В статье рассматриваются тазкиры (антологии) – один из важнейших литературных источников в истории персидско-таджикской литературы. Приведённые в статье антологии являются ярким образцом антологии Мавераннахра, в каждой из них встречаются ценные сведения о жизни и творчестве поэтов того времени, которых нет в других антологиях.*

Ключевые слова: *антология, Мавераннахра, "Чахор макола", "Лубоб-ул-албоб", "Музаккир-ул-ахбоб", "Тухфат-ус-сурур", "Тазкират-уш-шуаро".*

Tazkira fors-tojik adabiyotida muhim adabiy manba sanaladi. XVI asrgacha bo'lgan barcha forsiy adabiy kitoblarda tazkira so'zi "esdalik, "xotira", "xotirlash" ma'nosida kelgan. Xususan, XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda Davlatshoh Samarqandiy tomonidan shoirlar hayoti va she'rlaridan namunalar keltirib yozilgan kitobni tazkira deb atashgan. [3: 264]

Tazkiranavislik tarixiga nazar solinsa, dastlabki tazkiralar Movarounnahrda paydo bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Bu mintaqa avvalboshdan qadimiy fors-tojik adabiyotining asl vatani sifatida tanilgan. Adabiyotda tarixiy-nazariy xususiyatga ega kitoblar ham ayni shu mintaqaga mansubdir. Markaziy Osiyoda tazkiranavislik paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy nuqtalari sifatida quyidagilarni bayon etish mumkin. Fors-tojik adabiyotida Movarounnahr tazkiranavisligi yagonagiy (birlik) va judoiy (ajralgan) asrlari deb nomlangan. [2: 76–79] Yagonagiy asri ikki davrga bo'linadi: birinchi davr – XII asrdan XV asrgacha; ikkinchi

davr – XVI asrdan XIX asrgacha. XII asr boshlariga qadar shoirlar hayoti va ijodidan ma'lumot beruvchi manbalar ko'zga tashlanmaydi. Shu asrda Movarounnahrda tazkiranavislar paydo bo'la boshladi.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy tomonidan 1112-yili yozilgan "Chahor maqola" asari tazkiraviy xususiyatga ega asar hisoblanadi. Asar debocha va to'rt maqolot (bob) dan iborat. Muallif ikkinchi maqolot boshida Rudakiydan Ali So'fiygacha bo'lgan Oliy Somon, Oliy Nosiruddin, Oliy Xoqon, Oliy Bo'ya, Oliy Saljuq, Tabariston mulklari va Oliy G'o'rdagi 62 ijod ahli nomlarini keltirib, 8 nafar mashhur shoirlar – Rudakiy, Unsuriy, Farruxiy, Muizziy, Azraqiy, Rashidiy, Mas'ud Sa'diy Salmon, Abulqosim Firdavsiylarning hayoti va ijodi borasida qimmatli ma'lumotlar bergan. [7: 68–116] Asarda she'r masalalari va shoir bilishi kerak bo'lgan bilimlar haqida bahs yuritilib, o'tgan shoirlar hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar keltirilgan bo'lsada, "Chahor maqola" ilk tazkira sifatida tan olinmagan.

Fors-tojik tazkiranavislik tarixidagi ilk tazkira Muhammad Afviy Buxoriy tomonidan 1221-yilda yozilgan "Lubob-ul-albob" hisoblanadi. [2: 286] Markaziy Osiyo adabiy doiralarida tarbiyalangan Muhammad Avfiy tazkirasida Movarounnahr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Bundan keyingi davr tazkiranavislari o'z tazkiralarida, ular mantiqan qanday bo'lishidan qat'i nazar, Muhammad Avfiy asariga izdoshlik qilganlar. Shunga ko'ra, uning tazkirasi fors-tojik adabiyotidagi barcha tazkiralarning asosi sifatida tan olingan.

"Lubob-ul-albob" mumtoz fors-tojik adabiyotidagi ilk tazkiradir. Tazkira so'zini ilk bor Davlatshoh Samarqandiy XV asrda o'zining "Tazkirat-ush-shuaro" asarida keltirgan edi. "Tazkirat-ush-shuaro" debocha, arab shoirlari tazkirasidagi muqaddima, fors shoirlari zikridagi yetti tabaqa va xotimadan iborat.

Davlatshoh Samarqandiy "Muqaddima"da "Lubob-ul-albob"dagi an'ana va qoidaga ko'ra 11 nafar arab shoiri, xususan, Labid ibn Asvad al-Bohiliy, Farazdaq an-Najdiy, Di'bil ibn Ali al-Xuzoiy, Ibn ar-Rumiy, Mutanabbiy, Abul'alo ibn Sulaymon al-Maarriy, Haririy, Abulfath al-Bustiy, Muinuddin Abunasr Ahmad ibn Abdurazzoq at-Tantaroniy, Ka'b ibn Zuhayr ibn Abisalmo haqida ma'lumot beradi. [5: 37–45]

Yetti tabaqa va asar xotimasida muallif 141 nafar forsiyzabon shoir va ularning she'rlari haqida so'z yuritgan. [5: 48–473] Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat-ush-shuaro" asari Arab-u Ajamning jami 152 nafar ijod ahli hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Yuqorida keltirilgan mualliflar o'z tazkiralarini Movarounnahrdan tashqarida yozgan bo'lsalar ham o'zlari Samarqand va Buxoro farzandlari edilar.

Yagonagiy asrining ikkinchi davridagi tazkiralar XVI–XIX asrlarda yaratilgan.

Judoiy asri ham ikki davrga bo'lingan. Birinchi davrda (XIX asrning ikkinchi yarmidan to yangi davrgacha) Qori Rahmatullohi Vozehning "Tuhfat-ul-ahbob fi tazkirat-ul-ashob", Mir Siddiq Hashmatning "Tazkirat-ush-shuaro", Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning "Tazkor-ul-ash'or", Hoji Abdulazim Shar'iyning "Tazkirat-ul-fuzalo", Afzal Maxdum Pirmastiyning "Afzal-ut-tazkor fi zikr-ush-shuaroi va-l-ash'or" tazkiralari yaratilgan.

Judoiy asrining ikkinchi davriga Sadriddin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" asari kiradi. [9]

Movarounnahrda tazkiranavislikning eng muhim davri XVI–XVII asrlar hisoblanadi. Bu davrning eng muhim tazkiralari sirasiga Sayyid Bahouddin Xoja Hasan Nisoriyning "Muzakkir-ul-ahbob", Hofiz Darveshali Changiyning "Tuhfat-us-surur" va Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat-ush-shuaro" asarlari kiradi. Xoja Hasan Nisoriy "Muzakkir-ul-ahbob"ni Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat-ush-shuaro" va Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois" asarlaridan keyingi "uchinchi tazkira" deb ataydi. [4: 219] Tazkira maqola, to'rt bob va xotimadan iborat. [10: 9] Adabiyotshunos I.Bekjonovning aytishicha, asar maqola, ikki rukn va har bir rukn ikki faslga ajratilgan. Birinchi ruknning birinchi va ikkinchi fasllarida Shayboniyxon, Ubaydulloxon va Abdulatif Bahodurxon, Rustam Bahodurxon, Abusaidxon, Navruz Ahmad kabi sultonlar ahvoli, ikkinchi ruknning birinchi va ikkinchi fasllarida chig'aytoy sultonlari Bobur, Humoyun, Kamron podshoh, Mirzo Asqariy, Hindol podshoh, va Sulaymon podshoh kabi 16 nafar ijodkor hukmdorlar haqida ma'lumot berilgan. [11: 288–291]

Bu tazkiraning o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda muallif o'rta osiyolik, xurosonlik, sharqiy turkistonlik, turkiyalik, ozarbayjonlik, hindistonlik zamondosh shoirlar hayoti va ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Xoja Hasan Nisoriyning mazkur tazkirasi davriy tazkira hisoblanib, 288 nafar shoir haqida ma'lumot beradi. [4: 219]

"Muzakir-ul-ahbob"ning 3-bobi alohida e'tiborga loyiq. Chunki bu qismda Nisoriy shaxsan o'zi muloqotda bo'lgan Buxoroda tug'ilib voyaga yetgan, shu adabiy muhitning bevosita vakillari, shuningdek, o'z devoniga ega bo'lgan 14 nafar shoir haqida ma'lumot bergan. Shu jihatdan tazkiraning mazkur bobi XVI asrning birinchi yarmi Markaziy Osiyo ilmiy-adabiy hayoti haqidagi muhim adabiy manba hisoblanadi.

Darvishali Changiyning "Tuhfat-us-surur"i XVI asrda yaratilgan tazkiradir. Mazkur tazkira 1572–73-yillarda yaratilgan bo'lib, muallif uning 12 maqomini "bob"larga bo'lgan. Darvishali o'z tazkirasini yozib bo'lgach, uni Abdulloxon Shaboniy – zamon hoqoniga bag'ishlagan. [10: 15] Ushbu asar Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Chahor maqola" asariga o'xshash tazkira xususiyatiga ega bo'lsa-da, boshqa ilmga yo'naltirilgan. Masalan, muallif 7–10-boblarda Alijon G'ijjakiy, Najmuddin Kavkabiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Hasan Nisoriy, Hasan Kavkabiy, Hofiz Mirak Buxoriy, Vosiliy Marviy, Hofiz Turdi Qonuniy va Abdulloh Noliy kabi ham so'z ustasi, ham mashhur musiqachi bo'lgan 95 nafar shoir haqida ma'lumot berganki, ayrim ma'lumotlar boshqa manbalardan topilmagan. [10: 15]

Markaziy Osiyoda tazkirachilik an'anasini Hasanxoja Nisoriydan keyin muvaffaqiyatli davom ettirgan muallif Mutribiy Samarqandiy hisoblanadi. Mutribiy 1605–1606-yillarda yozgan tazkirasi – "Tazkirat-ush-shuaro"da 343 nafar zamondosh shoir haqida ma'lumot beradi. [6: 45] Bu asar ikki fasldan iborat bo'lib, quyidagi shaklda tuzilgan:

"Tazkirat-ush-shuaro"ning ilk faslida shoir o'ziga zamondosh bo'lgan 17 nafar shoir-sulton haqida ma'lumot bergan. Bu fasl "Ism" deb ataluvchi uchta bobdan iborat.

Ikkinchi fasl asarning asosiy qismi hisoblanib, unda 326 nafar shoir-u fuzalolar hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Mutribiy tazkirasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, muallif ayrim o'rinlarda g'azal, qasida yoki shunga o'xshash she'riy janrlar havolasini, aruz o'lchov ruknlari va

bahr nomlarini ma'lumotnoma tariqasida qo'lyozmaning o'sha she'r keltirilgan sahifa hoshiyasida yozgan. [11]

Tazkirada har bir shoir alohida sarlavhalarda va yashagan yoki vafot yillari ko'rsatilgan holda tartiblangan. Dastlab ularning tarjimayi hollari berilgan, keyin an'anaga ko'ra shoirlar ijodidan namunalar keltirilgan. Keltirilgan barcha ma'lumotlar tojik matnshunosligida qimmatli manba hisoblanadi.

Bu davr tazkiralarini o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldikki, tazkiralar mumtoz adabiyotning ayrim nazariy masalalari, adabiy muhitlar o'rtasidagi ijodiy aloqalar hamda O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotini yoritib beradigan yagona manba hisoblangan.

Tadqiqotimiz jarayonida ma'lum bo'ldiki, bu tazkiralarda bir davrning 500 dan ziyod shoirlari hayoti va ijodi, fikri, ijod usullari, do'stona munosabatlari, safarga chiqqanligi, ilmga bo'lgan chanqoqligi, ilmiy qarashlari va ularning fors-tojik adabiyoti rivojlanishiga qo'shgan hissalari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, mualliflarning ta'kidlashicha, ularni ko'rgan-ko'rmagan bo'lsa ham boshqalar orqali ular bilan muloqotda bo'lgan, ustoz-shogird an'analarini davom ettirgan, izdoshlik qilgan, ularning zamondoshi bo'lgan. Bu esa tazkiralar yuksak adabiy-tarixiy qiymatga ega ekanligini isbotlaydi. Bu tazkiralarning yana bir muhim jihati shundaki, ular movarounnahrlik, pokistonlik, hindistonlik, eronlik, turkiyalik, yamanlik, sharqiy turkistonlik shoirlarning o'sha davridagi hayoti va ijodi, adabiy aloqalarning mustahkamligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov U. Adabiyoti tojik dar asri XVI. – Dushanbe: Donish, 1985.
2.Tazkiranavisii forsiy dar Osiyoi Miyona // Donishnomai adabi forsiy dar Osiyoi Miyona // Ba sarparastii Hasan Ano'sha. J.1. – Tehron: Vazorati Farhang va irshodi islomi, 1380.
3. Maoniy, Ahmad Gulchin. Ta'rixi tazkirahoi forsiy. J.1. – Tehron: Intishoroti Kitobxonai Sanoi, 1363.
4. Maoniy, Ahmad Gulchin. Ta'rixi tazkirahoi forsiy. J.2. – Tehron: Intishoroti Kitobxonai Sanoi, 1363.
5. Samarqandiy, Davlatshoh. Tazkirat-ush-shuaro / Tahriyai Muxlisa Nurulloyeva. – Xujand: Noshir, 2015.
6. Samarqandiy, Mutribiy. Tazkirat-ush-shuaro // Bo muqaddima va tahshiyavu ta'liqoti Aliy Rafeii Alomarvdashtiy. – Tehron: Markazi nashri merosi maktub, 1382.
7. Samarqandiy, Nizomii Aro'ziy. Chahor maqola // Tahriya va tavzehi Faxriddin Nasriddinov. – Xujand: Noshir, 2015.
8. Sutuda, Marja'shinosiy va ravishi tahqiq. – Tehron: Intishoroti Samt, 1373.
9. Tazkiranavisiy. Somonai Pajo'hishkadai Boqirululum.
10. Hodizoda R., Karimov U., Sa'diyev S. Adabiyoti tojik (Asrhoi XVI–XIX va ibtidoi asri XX). – Dushanbe: Maorif, 1988.
11. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. (Fors tilidan Ismoil Bekjonov tarjimasi). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

Yulduz NUROVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

ETNOLINGVISTIKA VA ETNOLOGIYA MUNOSABATI

Annotatsiya. *Etnolingvistika – milliy urf-odat, an'analarining lisoniy namunasi, etnologiya esa xalqning etnik madaniyati, etnik tarixiy jihatlarni o'rganuvchi soha. Maqolada xalqning etnik xususiyatlari, shu xususiyatlarni ifoda etuvchi etnolingvistik birliklar munosabati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *etnologiya, etnomadaniyat, urf-odat, etnolingvistika, an'ana, etnolisoniy xususiyat, til va xalq madaniyati, nomshunoslik (onomastika), dialektologiya, til tarixi, sotsiolingvistika.*

Annotation. *Ethnolinguistics is a linguistic example of national customs and traditions, and ethnology is the study of people's ethnic culture and ethnic history. The article describes people's ethnic characteristics, the ratio of ethnolinguistic units expressing these characteristics.*

Key words: *ethnology, ethnoculture, customs, ethnolinguistics, tradition, ethnolinguistic features, language and folk culture, nomenclature (onomastics), dialectology, history of language, sociolinguistics.*

Аннотация. *Этнолингвистика – это лингвистический пример национальных обычаев и традиций, а этнология – изучение этнической культуры и этнической истории. В статье описываются этнические особенности народа, соотношение этнолингвистических единиц, выражающих эти характеристики.*

Ключевые слова: *этнология, этнокультура, обычай, этнолингвистика, традиция, этнолингвистические особенности, язык и народная культура, номенклатура (ономастика), диалектология, история языка, социолингвистика.*

Har bir millat madaniyatini uning urf-odat, an'ana va qadriyatlaridan ajratgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Yer yuzida mavjud turli millat va elat vakillarining har biri o'z milliy madaniyati, etnik xususiyatlari, tili, lahjasi bilan o'zaro farqlanadi. Lingvistikada tilning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, muayyan tilning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti yoritiladi. Shunday ekan, til sohalari ham cheksiz bo'lib, ular o'rganilish darajasiga ko'ra tavsiflanadi. Jumladan, etnolingvistika va etnologiya o'zaro bog'liq etnik tarixiy jihatlarni o'rganuvchi sohalar bo'lib, har ikkalasi ham etnik madaniyat va til o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etadi. Etnolingvistika – etnologiya va

tilshunoslikning kesishgan nuqtasidagi fan. Etnolingvistika etno (yunon tilidan ἔθvos – odamlar, qabilalar) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, turli etnik guruhlar tomonidan dunyoni anglashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan tilshunoslikning bir bo'lagi hisoblanadi. Etnolingvistika va etnologiya terminlari nisbatan qadimiy bo'lib, bu sohadagi dastlabki izlanishlar XIII asrda I.G.Herder va XIX asrda V.Gumboldt tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. XX asrga kelib xalqlarning etnologiyasini o'rganish rivojlandi. Bu amerikalik hindularning tillari va madaniyatini o'rgangan etnograf F.Boas hamda tilshunos-etnograf E.Sapir nomlari bilan bog'liq. Ma'lumki, etnolingvistika tilshunoslikning xalq (millat, elat) va uning tili orasidagi aloqa va munosabatni etnolisoniy jihatdan (etnik madaniyat va etnik til mushtarakligi tamoyili asosida) o'rganuvchi soha. Etnolingvistika ikki yo'nalishda ish ko'radi:

– xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsifiy asosda o'rganish;

– xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsiyaviy asosda o'rganish.

Birinchi maqsadni shartli ravishda tashqi va ikkinchisini ichki maqsad deyish mumkin.

Etnolingvistika – tilshunoslikning bo'limi yoki kengroq ma'noda tilshunoslik yo'nalishi bo'lib, tadqiqotchini til va ma'naviy madaniyat, til va xalq mentaliteti, til va xalq ijodiyoti o'rtasidagi bog'liqlik va aloqani, ularning o'zaro chambarchasligi va yozishmalarining har xil turlarini ko'rib chiqishga yo'naltiradi. Tilshunoslik tabiiy til, uning tuzilishi va qonuniyatlarini o'rgansa, etnolingvistika xalq madaniyatining tildagi ifodasini o'zida namoyon etadi, ya'ni tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar, antroponimlar, nutqiy etiket shakllarini o'rganadi. N.I.Tolstoyga ko'ra etnolingvistikaga ikki xil ta'rif berish mumkin:

1) etnolingvistika bu – tilshunoslikning bo'limi yoki kengroq qilib aytganda, tadqiqotchini til va ma'naviy madaniyat, til va xalq mentaliteti, til va xalq ijodiyoti, ularning o'zaro bog'liqligi va ularning har xil turlari o'rtasidagi bog'liqlik va aloqani ko'rib chiqishga yo'naltiradigan tilshunoslik yo'nalishi. Etnolingvistika tilshunoslikning bir tarmog'i sifatida tushuniladi va u madaniyat bilan aloqador tildir;

2) etnolingvistika murakkab intizom sifatida tushuniladi, uning mavzusi madaniyat, xalq psixologiyasi va mifologiyasining "mazmun rejasi" bo'lib, ularning rasmiy shakllanishi vositalari va usullari (so'z, marosim, obraz va boshqalar) nazarda tutiladi. [2:397–405]

